



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**N.X. VOXIDOVA, F.O. MIRZAYEVA, B.N. SAIDOVA**

**MILLIY TARBIYA ASOSLARI**

*Pedagogika ta‘limi sohasi bakalvriat ta‘lim yo‘nalishilari uchun  
darslik*

**Toshkent  
“METODIST NASHRIYOTI”  
2024**

UO'K: 004.4(075.8)

KBK: 32.973.-05

D 65

**N.X. Voxidova, F.O. Mirzayeva, B.N. Saidova**

**Milliy tarbiya asoslari. Pedagogika ta'limi sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2024, 309 b.**

*Mazkur darslik pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'z ichiga milliy tarbiya asoslari mazmuni, komponentlari, tamoyillari, metodlari shakllari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va milliy tarbiyaning nazariy asoslariga oid ma'lumotlarni iborat bo'lgan kurslarni qamrab olgan. Darslikda talabalar zamonaviy yondashuvlar, ilmiy-nazariy ma'lumotlar, faktlar, tarbiyaviy konsepsiyalar, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishi kelajakda ularga nafaqat hayotda mavjud muammolarni izohlash, tushuntirish, balki ularning keyingi rivojini taxmin qilish, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xosliklari, boshqarish usullari, pedagogik faoliyat olib borishning asosiy metod va shakllarini bilishi va ulardan foydalana olishi, talabalarda tarbiyaviy jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishda pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish kabi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.*

**Taqrizchilar:**

**Z.K. Ismailova**

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

**D.O. Ximmataliyev**

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-may 232-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

**ISBN 978-9910-740-15-2**

© N.X. Voxidova , F.O. Mirzayeva, B.N. Saidova, 2024.

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2024.



## KIRISH

*Ta'limning milliy yo'naltirilganligi – Ta'lim to'g'risidagi Qonun tamoyillaridan biridir. Bu – ta'limning milliy tarix, xalq ma'naviyati, an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarix va madaniyatini hurmatlashga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimini taqozo qilmoqda.*

*Milliy tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy ehtiyoj hamdir. Sobiq sho'rolar davrida ijtimoiy ongda "zamonaviylik-milliylik" tushunchalari orasida "sivilizatsiya-ekzotika" shaklidagi sun'iy antiteza hosil qilindi. Shu tufayli milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib yetkazuvchi jarayon – milliy tarbiyaning tobora zaiflashuviga yo'l qo'yildi, mafkuraviy maqsadlar ostida milliy qadriyatlarni o'zaro aloqada yuksaltirish emas, balki birxillashtirish harakati rag'batlantirildi. Ayniqsa, tarbiyani sotsialistik baynalmilallashtirish siyosati va amaliyotning asoratlari millatlarning ma'naviy hayoti, qiyofasida milliy g'ururni tiklash, ajdodlar merosini o'rganish kabi ehtiyojlarida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan millatlarning o'z milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklashga bo'lgan ehtiyoji tabiiy, qonuniydir. Bu esa milliy tarbiya mohiyatini ilmiy talqin qilishni umuminsoniy ma'rifiy zarurat maqomiga ko'taradi.*

*Har bir mamlakatning o'z tarbiyaviy tizimi uning mustaqillik, milliy taraqqiyot yo'lining pedagogik in'ikosidir. MDH mamlakatlari ham jahonning sobiq mustamlaka mamlakatlari bosib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning uch yo'liga duch keldilar. Dunyoviy tajriba bu yo'llarni quyidagicha ta'riflaydi: milliy fundamentalizm – o'tmishdagidek yashash; milliy modernizm - milliy zamonaviylashuv; milliy reformizm -boshqacha (masalan, ovrupocha, amerikacha yoki boshqalarga o'xshab) shakl va mazmun kasb etish. Istiqlol yillarining boshida O'zbek xalqining tarixda millat sifatida hayotini muvaffaqiyatli davom ettirishini, o'zligini mukammal saqlab qolib, jahon sivilizatsiyasida namoyish qilishi talablariga qaysi yo'l javob*

bera oladi? Buning uchun O'zbekiston maktablaridagi sobiq kommunistik tarbiya tizimi o'rnini qanday tarbiya tizimi egallashi kerak? "Jamiyat ma'naviy inqirozga yuz tutgan, millatni millat qiladigan narsalar butunlay toptalgan vaziyatda" bu yo'l - milliy-madaniy taraqqiyotning modernistik tarzi milliy zamoniylashuvdir. Milliy davlatchilik, mustaqillikni mustahkamlashning pedagogik kafolatini ham aynan shu yo'l - milliy-istiqloliy tarbiya g'oyasi ta'minlashga qodir. Zero, milliy tarbiya jadidchilarning yangi usulda ta'lim va tarbiyani Ovrupo sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovrupo sivilizatsiyasini o'rganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirish g'oyasining yangi sharoitda, O'zbekiston istiqloli talablari bilan boyitilib, kun tartibiga qo'yilishidir.

Milliy-zamoniylashuv yo'lidan borish BMTning teng huquqli a'zosi - O'zbekistonning "Inson huquqlari Deklaratsiyasi"da "Har bir kishining ona tilidan foydalanish, ona tilida ta'lim olish, milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish huquqi ta'minlanadi", - deb ta'kidlangan 4-moddasini amalda tatbiq etishga kirishganligidan ham dalolat beradi. YuNESKO amaliy tamoyillarida "o'z madaniyatiga ega bo'lmagan xalq yo'q; har bir madaniyat hurmat qilinishi va saqlab qolinishi kerak bo'lgan qadr-qiyamatga ega; o'z madaniyatini rati yuzaga kelsa, o'sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e'tibor keskin kuchayib, tarbiyani, jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi deb tan olinib boshlanadi. Tarix bu kabi misollarga boy. Ana shu nuqtai-nazardan mustaqil O'zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki endilikda ular "sovet bolalari"ni emas, balki o'zbek xalqining eng go'zal fazilatlaridan bo'lgan milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, O'zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, sof vijdonlikni, milliy istiqlol mafkurasini o'z yo'l ko'rsatkichi qilib olib, yagona Vatan - O'zbekistonning dunyo miqyosidagi sharafiga xizmat qila oluvchi o'g'il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi kerak. Bu milliy-istiqloliy buyurtma oila, bolalar bog'chalari, maktab, mahalla, turar joylarda, maktabdan tashqari muassasalarda hamkorlikda olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin.



*“Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YuNESKO tamoyili) vositasi; O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma‘naviy manbai; - o‘quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go‘zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo‘nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O‘zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishining insonparvarona yo‘li va vositasi; ijtimoiy va maktab tarbiyalari uyg‘unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg‘unlikka olib borishning pedagogik yo‘li; ijtimoiy- ma‘naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta‘minlashning strategik obyekti va vositasi; etnopsixologik nuqtai-nazardan; o‘quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, rivojlantirish jarayoni ekanligi shundan dalolat beradi.*

*Mustaqil O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining milliy tarbiya tizimi – bu o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy xarakteri, axloq qoidalariga va milliy istiqlolning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, yangi – barkamol avlodlarni shakllantirishning pedagogik jarayonidir. Milliy tarbiya O‘zbekistonda ilmiy-pedagogik atama sifatida ya‘kında qo‘llanaboshlanganligiga qaramasdan u o‘zbek xalqi bilan azaldan birga, mavjud edi. Chunki o‘zbek xalqining tarixi - o‘zbekchilikka asoslangan tarbiyaning tarixi hamdir.*

## **MAVZU: “MILLIY TARBIYA ASOSLARI” FAN SIFATIDA**

### **Reja**

1. “Milliy tarbiya asoslari” fanining maqsad va vazifalari.
2. “Milliy tarbiya asoslari” fanining asosiy kategoriyalari.
3. “Milliy tarbiya asoslari” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.

***Tayanch so‘zlar:** millat, milliy, insonparvarlik, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, pedagogik munosabat, axloqiy tarbiya, oila, maktab, mahalla, maqsad, vazifa, urf-odat, qadriyatlar, an’analar, erkin fikr, jismoniy rivojlanish, shaxs xususiyatlari, komil inson fazilatlari.*

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. *«Ijtimoiy pedagogika» (darslik). T. 2022.*
3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegim nashriyoti, 2021.*
4. Vohidova N.X. *«Milliy g‘urur tarbiyasi» (Monografiya). –T.: Istiqlol, 2010.*
5. Quronov M. *Bizni birlashtirgan g‘oya / M.Quronov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 348 b.*

O‘zbekiston "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta‘lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat‘iy talablarini qo‘ymoqda. "Milliy yuksalish" mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish, jonajon diyorimizda yagona oila bo‘lib yashayotgan, o‘z tarkibida 130 dan ortiq millat va elatlarni birlashtirgan bag‘rikeng xalqimizning ezgu orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish asosida, xalqimiz ma‘naviy dunyosini yanada boyitishdir<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun kechgan tarixan qisqa vaqt ichida siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda katta islohotlar amalga oshirildi. Barcha islohotlar samaradorligi uning bosh omili – inson salohiyatiga, dunyoqarashi va hayotga munosabatiga, Vatanga muhabbati,

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. Tasvir nashriyot uyi. Toshkent.2021y. - 36 b, 5-bet.



ma'naviyati, milliy tarbiya va milliy iftixor tuyg'ularining yuksak darajada shakllanishiga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimiga oid davlat siyosatida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 - yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son<sup>2</sup>, 2018 - yil 14 - avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy, axloqiy va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni o'qitish va tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3907-son<sup>3</sup>, 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son<sup>4</sup> qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qarorlarida mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga, ularni o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqarolar sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi bejiz emas.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da, chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, "Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish" ekanligi belgilab qo'yilgan<sup>5</sup>. Milliy istiqlol mafkurasi negizidagi umuminsoniy kamolot bosqichlarining muhim qismi bo'lgan milliy ma'naviy qadriyatlar aynan ana shu maqsadga xizmat qilishga

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 noyabrdagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son farmoni.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3907-son qarori.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1059-son qarori

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni/ "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami", - 6 (766) - son, 2017yil.

qaratilgandir. Zero, o'zligini anglash orqali komillikka intilayotgan har bir kishi hayotga befarq qaramaydi, o'z taqdirini millat va vatan taqdiridan ayricha tushunmaydi. Tarbiya va yoshlarning milliy tarbiyasi hamma davrlarda sharqona tarbiyaning muhim qismini tashkil qilgan, eng qadimgi yozma yodgorliklar: "O'rxun-Enasoy" bitiktoshlari-yu "Avesto"dan tortib, xalq og'zaki ijodining "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Avazxon", "Kitobi"da "Qo'rquq" kabi namunalarigacha shundan dalolat beradi.

*Milliy tarbiya asoslari fanining maqsadi - milliy tarbiya mazmunini – ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va obyektiv jarayon sifatida o'rganish, Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning milliy tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini o'rganish, mustaqil O'zbekistonda milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi, milliy tarbiya tizimini joriy qilinishining nazariy va amaliy qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.*

**Milliy tarbiya asoslari fanining vazifalaridan** biri ana shu obyektiv qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Milliy tarbiya asoslari fanining amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

-milliy tarbiya qonuniyatlarini umuminsoniy va milliy ijtimoiy hodisa sifatida, shuningdek, jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'rganish;

-milliy tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakllarini jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda yoritish;

-milliy tarbiyaga oid bilimlar – bo'lajak pedagoglarning milliy, tarixiy, ma'anaviy-pedagogik ongini shakllantirishga faol ta'sir etishini nazarda tutish va h.k.

**Milliy tarbiya asoslari fani ham mustaqil fan sifatida** arxeologik va tarixiy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi materiallari, sharqning yetuk allomalari, ma'rifatparvar olimlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan asarlar, vaqtli matbuot materiallari, o'quv rejaları, dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ta'lim muassasalari faoliyatiga doir hujjatlar, ta'lim-tarbiyaga oid statistik ma'lumotlar va pedagogik asarlarni o'rganishni ilmiy tadqiqot metod sifatida qo'llaydi. Shuningdek, umumlashtirish uchun



sotsiologik, matematik tadqiqot usullaridan ham, pedagogika nazariyasida qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlaridan ham foydalanishi mumkin.

**Milliy tarbiya asoslari fanining manbaalari:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi, "Xalq og'aki ijodi", "Avesto", Quroni Karim, Hadislar, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Koshifiy, Ulug'bek, Amir Temur va boshqa mutafakkirlarning, shuningdek, ma'rifatparvar shoirlar va jadidlarning pedagogik asarlari, ta'lim -tarbiya muassasalari faoliyatiga doir boshqa hujjatlar.

***"Milliy tarbiya asoslari" fanining asosiy kategoriyalari.*** "Milliy tarbiya asoslari" fanining asosiy kategoriyalariga "tarbiya", "millat", "elat", "xalq", "milliy g'oya", "xalq mentaliteti" va boshqa tushunchalar kiradi.

**Tarbiya** kategoriyasi juda qadimiy tushuncha bo'lib, u insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab mavjud. Ko'p asrlar ilgari odamlar tarbiya nima va qachon paydo bo'lganligi haqida o'ylashgan. Qadim zamonlarda ham eng buyuk yunon faylasufi Arastu ta'lim-tarbiyani xalqning axloqiy qarashlari, ko'nikma va qobiliyatlarni katta avloddan yoshlarga o'tkazish jarayoni bo'lib, madaniyatining uzluksizligi ta'minlovchi jarayon deb hisoblagan.

***Tarbiya - arabchada "tarbiya", "tarbiyat" so'zlari 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o'rgatish; odob o'rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko'rsatish; ko'z quloq bo'lish; himoya qilish kabi ko'pqirrali mazmunga ega***

Ilmiy adabiyotlarda bola tarbiyasi uch darajada qaralishi: ijtimoiy-falsafiy jihatdan tarbiya - keksa avlod tajribasini yosh avlodga hayotga tayyorlash uzatish jarayoni; ikkinchisi - umumpedagogik, tarbiya davlat tomonidan maxsus tashkil etilgan

ta'lim muassasalarida shaxsni shakllantirish jarayoni; uchinchi tor pedagogik ma'noda tarbiya shaxsda ijobiy fazilatlarini (axloqiy, estetik va hokazo tarbiya) shakllantirish tushuniladi.<sup>6</sup>

*Xalq — bu odamlar jamoasi bo'lib, ularning tili, madaniyati, san'ati, dini boshqa jihatlarini birgalikda aks ettiradi.*

Xalq tushunchasi keng bo'lib, umumiy jihatlari bilan birlashtiriladigan odamlar yig'indisiga aytiladi: 1) muayyan mamlakatning barcha aholisi; 2) tarixiy birlikning turli shakllari (qabila, elat, millat). Xalq bu odamlar, tarixiy birlikning turli shakllari: qabila, elat, millat; muayyan joy aholisi; O'zbekiston xalqi. Qishloq xalqi. Shahar xalqi; biror joyga to'plangan odamlar; xaloyiq, olomon; kasb, mashg'ulot, toifa yoki jinsni bildiruvchi so'zlar bilan kelib, o'sha kasb, mashg'ulot, toifa yoki jinsga mansub kishilar guruhini bildiradi: shoir xalqi, polvon xalqi, ayol xalqi; umum (aholi, odamlar) ga aloqadorlikni, umum tomonidan e'tirof etilganlikni ifodalovchi so'z sifatida ba'zi muassasalar, lavozim va unvonlar nomlari tarkibida qo'llanadi: xalq maorifi, xalq ta'limi, xalq sudi, xalq deputati, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston xalq artisti.

An'anaga ko'ra, "xalq" so'zi "o'zimizniki yoki begona" ma'nosidagi qarama-qarshilikni ifodalaydigan markaziy tushunchadir: folklor afsonalari va e'tiqodlarida me'yori g'oyasi o'z xalqi bilan bog'liq bo'lsa, "begona" xalqlar, jismoniy, ijtimoiy yoki axloqiy nuqtai nazardan g'ayritabiiy deb hisoblanadi.

*Millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, siyosiy va ijtimoiy maqsadlari bir biriga zid kelmaydigan, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli hisoblanadi.*

---

<sup>6</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. // Begmatov E., Madvaliev A. va boshqalar.; - II jild. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 606 b



**Millat** - kishilarning jips tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir. Ungacha ijtimoiy taraqqiyotning etnos (xalq) shakli ham mavjud bo'lib, xalq atamasi juda keng va tor ma'noda ishlatiladi. Masalan, keng ma'noda: o'zbek xalqi, nemis xalqi kabi, shuning uchun ijtimoiy fanda xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganishda etnos bilan bir qatorda etnik birlik atamasi ham ishlatiladi. Chunki u ma'lum bir ijtimoiy tuzumda vujudga kelgan etnik uyushma: aniq, bir xalqqa nisbatan ishlatiladigan atama sanaladi. Xalqaro huquq tizimida "millat" atamasi davlat tushunchasi bilan sinonimdir. Siyosat nuqtai nazaridan millat o'z makonida va zamonda umurguzaronlik qiladigan, o'zlarining mavjudligini ma'lum bir hudud va rivojlanish tarixi bilan bog'laydigan odamlar uyushmasidir. Ushbu o'z-o'zini joylashtirish barqaror va ongli bo'lishi kerak.

Milliylik ko'pincha millat bilan aralashtiriladi. Biroq, ikkinchi tushuncha etnik jamoani anglatadi va bu millatning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun millat tushunchasi torroq. Millatning tarkibiga ko'ra ular monoetnik va ko'p millatli guruhlariga bo'linadi. Monoetnik guruhlar kam uchraydi, ko'pincha millat bir necha etnik guruhlar asosida shakllanadi.

Bitta millat vakillari til jihatidan birlashishi mumkin, ammo bu ham shart emas. Xuddi shu tildan bir necha millat foydalanishi mumkin. Ko'p millatli millatlarning bir qismi sifatida aksariyat etnik guruhlar o'zlari uchun ona tilida bo'lmagan yoki o'z millati tilini bilmaydigan tildan foydalanishlari mumkin. Tarixiy jihatdan xalqlarning shakllanishi ishlab chiqarish munosabatlari, umumiy iqtisodiy tizim va savdo sohasining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Natijada, o'z-o'zidan milliy parchalanish va izolyatsiyani yengib o'tish zarur bo'ldi.

Bundan tashqari, millatlar ham mustahkam aloqalarga ega bo'lgan katta millatlar asosida, ham barcha zarur sharoitlar bo'lmagan holda (mustamlakachilik janglari, mustaqillik uchun urushlar paytida) shakllangan.

Millatparvarlik tadqiqotchisi B.Andersonning fikriga ko'ra birinchi zamonaviy xalqlar Lotin Amerikasi bo'lgan. Siyosiy ma'noda millat tushunchasining o'zi Buyuk Fransiya inqilobi davrida paydo bo'lgan. Eng yosh millatlar Vetnam va Kambodja deb hisoblanadi.

Umuman olganda, millat - hududiy va iqtisodiy hayot, til va ma'naviy xususiyat, ma'lum darajada biologik o'ziga xoslik (tashqi ko'rinishdan bilinadi) shuningdek, xarakter, temperament va urf-odat xususiyatlari birligiga ega bo'lgan, tarixan tarkib topgan odamlar uyushmasining maxsus shaklidir.

**Etnos.** Ushbu atama rus olimi S.M.Shirokogorov tomonidan 1923-yilda ilmiy foydalanishga kiritilgan. Unga ko'ra, etnos kelib chiqishi umumiy va yagona turmush tarziga ega bo'lgan, bir tilda so'zlashadigan odamlardan iborat guruh bo'lib, ularning tili, madaniyati, e'tiqod va urf-odatlar bir xil bo'ladi.

**Millat** - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, siyosiy va ijtimoiy maqsadlari bir biriga zid kelmaydigan, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli hisoblanadi.

***Etnos** - bu umumiy til, turmush tarzi, madaniy an'analar bilan birlashtirilgan va o'zlarini yagona jamoat sifatida anglab etadigan odamlarning katta guruhidir.*

Tarixiy jihatdan etnik guruhlarining shakllanishi ko'pincha til yoki din kabi barqaror madaniy elementlar atrofida sodir bo'ladi. Masalan, bu jihatdan biz xristian madaniyati yoki islom sivilizatsiyasi haqida gaplashishimiz mumkin. Etnosni shakllantirishning asosiy shartlari umumiy hudud va aloqa vositasi sifatida ma'lum bir umumiy tildir. Bundan tashqari, bir nechta ko'p tilli elementlar asosida umumiy til shakllanishi mumkin. Shakllanishning qo'shimcha shartlari sifatida jamiyat a'zolarining



irqiy nuqtai nazardan yaqinligini, yirik metizo (aralash) guruhlar va umumiy e'tiqodlarning mavjudligini aytish mumkin.

Milliy tarbiyaning navbatdagi muhim kategoriyasi **mentalitet**dir. "Mentalitet" (frantsuzcha "mentalite" dan ingliz tilida "mentalite" va nemis tilida - "mentalitat" dan) "mentalitet" deb ta'riflangan. Izohli lug'atlarda "mentalitetni shaxs yoki shaxslar sinfini tavsiflovchi ongning sifati", "ong qobiliyati yoki kuchi", "munosabatlar, kayfiyatlar, ongning mazmuni", "fikrlash uslubi, fikrlash yo'nalishi yoki xarakteri", "Jismoniydan farq qiladigan aqliy qobiliyatlar yoki kuchlarning yig'indisi" deb ham ta'riflanganligini ko'rish mumkin.

***Mentalitet** - bu ijtimoiy yoki etnik guruhga, millatga, xalqqa, millatga xos bo'lgan aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar, qadriyat yo'nalishlari va munosabatlari majmui. Bu atama lotincha "mens" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tarjimasi aql, fikrlash, tafakkur degan ma'noni anglatadi<sup>1</sup>.*

Demak, mentalitet muayyan madaniyatning butun dunyoqarashini bildiradi. Bu insonga taalluqli bo'lgan barcha jihatlarda aks etadi: intellektulda; hissiyotida; xulq-atvor; dunyoni yaxlit idrok etish.

Alohida shaxsni tasvirlash mumkin bo'lganidek, etnik guruh haqida ham umumiy fikrni bildirish mumkin. Ya'ni, bu umumiy omillar, masalan, davlat siyosati ta'siri ostida shakllangan jamoa ruhiyati. Shaxsning mentaliteti ota-onadan meros bo'lib o'tishi, yoki tarbiya natijasida shakllanishi mumkin. Shuningdek, mentalitet hayot saboqlari yoki ma'lum bir tor ijtimoiy guruhda bo'lish (masalan, ishda) tufayli o'zgarishlar mumkin.

Mentalitet, oddiy so'z bilan aytganda, inson shaxsining tug'ilgan joyi; jamiyatning ta'siri; ta'lim hamda din kabi omillar guruhlari ostida shakllangan shaxsiy xususiyatdir. Bu sabablarning barchasi shaxsning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va faqat bitta asosiy ni ajratib ko'rsatish mumkin emas. Ulardan biri etishmayotgan bo'lsa ham (masalan, ta'lim yoki din), bu ham



mentalitetda sezilarli iz qoldiradi.

Agar insonga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarning yig'indisini tavsiflaydigan bo'lsak, bular: irsiy xususiyatlar; ota-onalarni maqsadli tarbiyasi; bola ulg'ayayotgan oila, ota-onaning dunyoqarashi; ta'lim muassasasi; ijtimoiy doiralarni tanlash: do'stlar, sheriklar; ish; san'at (kitoblar, filmlar, musiqa, rasmlar) - bularning barchasi ko'proq ta'sir qiladi.

Jamiyat mentaliteti quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi: an'analar; madaniyat; fikrlash turi; qadriyatlar; normalar; axloq; hayotning turli jabhalariga qarashlar; dunyoqarash; hayotiy tajriba; ijtimoiy moslashish qobiliyati. Mentalitet: insonlar yashab turgan mamlakati bo'yicha (nemis, ingliz); kasbi bo'yicha (o'qituvchi, haydovchi) kabi bo'lishi mumkin.

Amerikaliklar har uchinchi odam antidepressantlarga moyillik sezishlariga qaramay, juda ijobiy va hissiy odamlar hisoblanadilar. Ular doimo tabassum qiladilar va barcha narsadan xursand bo'lishadi (ehtimol, bu ko'p yillar davomida erkin qurol olib yurishning natijasidir - o'qqa tutilgandan ko'ra tabassum yaxshiroq).

Agar amerikaliklar o'zlarining his-tuyg'ularini yoki biror narsaga munosabatini bildirsalar, "Ajoyib!", "Men seni juda yaxshi ko'raman!", "Bu juda ajoyib!" deb olqishlaydilar. Amerikaliklar muvaffaqiyatli odamlar hisoblanadilar hamda ishni shaxsiy hayotlaridan ajratib, unga katta e'tibor berishga harakat qilishadi. Ular bepul narsalarni yoqtirmaydilar, agar ichimliklar bepul bo'lsa ham baribir pul to'lashga harakat qiladilar. Ular yaxshi tinglovchilar hamda yangi suhbatdoshga ishonch kreditini berishadi. Siz yolg'on gapiryapsizmi yoki yo'qmi, ular hech qanday ma'lumotni tekshirishga harakat qilishmaydi.

Nemislar tartibni nihoyatda yaxshi ko'rishlari bilan ajralib turadilar. Nemis xonadonida barcha narsaning o'z o'rnini bor va har bir buyum faqat o'z o'rniga bo'lishi kerak. Bu tartib nafaqat oilada, balki ish o'rnida va davlatda o'rnatilgan qoidalarga ham tegishlidir ("Ordnung muss sein" - har doim tartib bo'lishi kerak). Germaniya xalqi hech qachon hech narsani birga baham ko'rmaydi, hattoki bir bo'lak pitsani ham. Nemislarning bolalar bilan munosabatlarida



o'ziga xoslikni kuzatish mu mkin. Bolalarni urish va ularga baqirish qonun bilan taqiqlangan.

Yapon mentaliteti Sharq madaniyatining sirli va juda jozibali qismidir. Dunyoviy turmush tarzi, asl izolyatsiya qilingan geografik joylashuv, tabiiy resurslarning yetishmasligi, ko'p asrlik tarix - bularning barchasi dunyoda o'xshashi bo'lmagan yapon mentalitetining shakllanishiga asos bo'ldi. Ortiqcha burch hissi: bu milliy xarakter xususiyatining rivojlanishiga samuray madaniyati yordam berdi. Intizom va sabr-toqat: bu fazilatlar Yaponiya aholisida go'daklikdan tarbiyalangan. Intizomning asoslari besh yoshdan boshlab qo'yiladi, bolalarga hamma narsaga ruxsat beriladi. Yapon millatining o'zini hurmat qiladigan hech bir vakili kechikishiga yo'l qo'ymaydi.

Ular o'zlariga nisbatan bir xil aniqlik talabini qo'yanlar. Birlashma yoki guruhga mansublik: Yaponiyada yolg'iz yashash qabul qilinmaydi va yaponlar jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadilar. Salomatlikka g'amxo'rlik qilish: yaponlarning milliy xarakteri ularning barcha tirik mavjudotlarga, tabiatning barcha xilma-xilligiga, shu jumladan, o'z sog'lig'iga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini belgilab berdi. Sentimentallik: Yapon ijodi ayniqsa rang-barang va tuyg'ulardan toza. Kamera va milliy musiqa butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarni ilhomlantiradi va yapon multfilmlari va animelari animatsiyaning klassikasidir.

Yaponlar kuniga 18 soatgacha ishlashlari va yillar davomida ta'til va kasallik ta'tillarisiz yurishlari mumkin. Mehnatsevarlik, aqidaparastlik, tejamkorlik va estetik sentimentallik aholini nafaqat ajoyib ishchilar va yoqimli suhbatdoshlar, balki ajoyib do'stlar ham qiladi.

Ushbu tavsiflar millat haqida faqat umumiy tavsif xarakteriga ega, keltirilgan fikrlar Amerika, Germaniya, Yaponiya vakillari aynan shunday degan xulosani bermaydi.

***“Milliy tarbiya asoslari” fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.*** O'z mohiyati, amaliy ahamiyatiga ko'ra “Milliy tarbiya

asoslari” fani ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Shunga ko’ra u boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan ham o’zaro bog’liqlik va aloqadorlikda rivojlanadi. “Milliy tarbiya asoslari” fanining rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi fanlarni ularning yo’nalishiga ko’ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

### ***“Milliy tarbiya asoslari” fanining rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi fanlarning guruhlari***

<b><i>№</i></b>	<b><i>Fanlar turkumi</i></b>	<b><i>Fanlar nomi</i></b>
1.	<i>Pedagogik turkum fanlar</i>	<i>“Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik konfliktologiya” hamda “Oila pedagogikasi”</i>
2.	<i>Psixologik fanlar</i>	<i>“Umumiy psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Yosh va pedagogik psixologiya”</i>
3.	<i>Gumanitar fanlar</i>	<i>“Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Etnografiya” “Axloqshunoslik”, “Estetika asoslari”</i>
4.	<i>Tabiiy fanlar</i>	<i>“Yosh fiziologiyasi va gigiena”</i>

Quyida “Milliy tarbiya asoslari” fanining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi va ularning asoslaridan foydalanish imkoniyatlari xususida so’z yuritiladi.

**“Pedagogika nazariyasi va tarixi”** – muayyan tizim asosida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat, ta’lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, metod va vositalari, shuningdek, pedagogik fikrlarning paydo bo’lish va rivojlanish tarixini, turli davrlarda yoshlar tarbiyasini tashkil etishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiluvchi fan. Ushbu fan yoshlar tarbiyasini tashkil etishda guruh rahbarlarini insoniyat, xususan, o’zbek xalqi tomonidan to’plangan tarixiy tajriba bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi. Xususan, xalq pedagogikasining yetakchi g’oyalari, yoshlarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash, ulardagi salbiy odatlarni bartaraf etishda qo’llaniladigan xalqona pedagogik faoliyatning samarali, shakl, metod hamda vositalar, yoshlar tarbiyasini tashkil etishga nisbatan milliy yondashuvning o’ziga xos jihatlariga oid ma’lumotlar bilan guruh rahbarlarini tanishtirishda “Pedagogika nazariyasi va tarixi”



fani o'ziga xos o'rin tutadi.

**“Ijtimoiy pedagogika”** – shaxsni ijtimoiylashtirish qonuniyatlari, voyaga yetmaganlar bilan bogʻliq ijtimoiy muammolar (pedagogik qarovsizlik, bolalar ichkilikbozligi, voyaga yetmaganlar, jinoyatchiligi, giyohvandligi va fohishabozligi kabilarni)ni pedagogik nuqtai nazardan hal qilish, ijtimoiy pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish texnologiyalarini yaratish masalalarini oʻrganadigan fan. Yoshlar tarbiyasini tashkil etishda guruh rahbarlarini “oʻtish davri” – oʻsmirlikning oʻziga xos xususiyatlari, bu davrda oʻsmirlar xulqida kuzatiladigan pedagogik oʻgʻish, oʻsmirlarni toʻgʻri tarbiyalash yoʻllari, shakl, metod, vositalari, shuningdek, ularning shaxsida koʻzga tashlanadigan salbiy sifatlarni bartaraf etishga oqilona yondashuv, oʻsmir hamda oʻspirinlarni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etishning pedagogik afzalligi kabilardan xabardor qilishda “Ijtimoiy pedagogika” fani muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, mazkur fan guruh rahbarlarini pedagogik qarovsizlik, bolalar ichkilikbozligi, voyaga yetmaganlar, jinoyatchiligi, giyohvandligi va fohishabozligi kabi salbiy ijtimoiy illatlardan muhofaza qilish, voyaga yetmaganlarda sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirishga oid nazariy hamda amaliy bilimlar bilan qurollantiradi.

**“Pedagogik mahorat”** – boʻlajak pedagog (tarbiyachilar)da pedagogik jarayonni metodik jihatdan toʻgʻri, samarali tashkil etish, tarbiyachi va oʻquvchi munosabatlarini oqilona yoʻlga qoʻyish, boʻlajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash masalalarini oʻrganadigan fan. Ushbu fan asoslari guruh murabbiylarini pedagogik bilimlarini boyitish bilan birga ularda shaxslararo, xususan, guruh aʼzolari oʻrtasidagi munosabatlarni yuksak mahorat bilan boshqarish koʻnikma hamda malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruh rahbarlarini pedagogik mahorat asoslaridan xabardorliklari yoshlar tarbiyasini tashkil etishda oʻzlari bilan farzandlar oʻrtasida ijtimoiy munosabatlarning mehr-muhabbatga, oʻzaro yordamga asoslanishini taʼminlab, har qanday ziddiyatni bartaraf etadi. Fanning imkoniyatlaridan foydalanish guruh murabbiylari tomonidan guruh aʼzolari bilan

bo'ladigan munosabatlarda muloqot uslubi (avtoritar, liberal va demokratik uslubi)ning to'g'ri tanlanishiga olib keladi. Qolaversa, guruh murabbiylarining yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishlarida pedagogik mahorat mohiyatini yorituvchi bilimdonlik, qobiliyat, muloqot, kommunikativ ta'sir ko'rsatish, pedagogik texnika, nutq texnikasi, refleksiya, relaksatsiya, shu bilan birga tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishlari yoshlar tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

**“Pedagogik konfliktologiya”** – pedagogik konfliktlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida ijobiy xususiyatga ega ziddiyatlarni boyitish, ulardan maqsadli foydalanish, salbiy xarakterdagi nizolarni bartaraf etish yo'llari, tamoyillari, shakl, metod, vosita va texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishni tadqiq etuvchi fan. Guruh murabbiylari pedagogik konfliktlarning mohiyatidan xabardor bo'lar ekanlar, guruh a'zolari o'rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni to'g'ri baholash, ijobiy xarakterdagi ziddiyatlardan yoshlar tarbiyasi samaradorligini oshirishda foydalanish, salbiy xarakterdagi nizolarni esa o'z vaqtida aniqlab, tezda bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Guruh murabbiylarining nizolar to'g'risidagi bilimlariga ega bo'lishlari yoshlar jamoasida yuzaga keladigan nizolarga nisbatan to'g'ri yondashishga ham o'rgatishga xizmat qiladi. Agarda ularning nizolarning mohiyatiga oid bilimlari yetarli bo'lsa, u holda yoshlarga beradigan ko'rsatmalari ham ijobiy natijalarni kafolatlaydi.

**“Oila pedagogikasi”** – fanining asosini oilada tarbiyaviy ishlarni to'g'ri, samarali tashkil etish. Shu sababli ota-onalar har bir xatti-harakatlarining tarbiyaviy mohiyatga, ta'sirga egaligini chuqur anglab yetishlari zarur. Albatta, oilada tashkil etiladigan tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy) ishlar ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi reja, dastur hamda maxsus tayyorgarlik asosida amalga oshirilmaydi. Oila tarbiyasining murakkabligi, qiyin jarayon ekanligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Aksincha, ota-onaning yurish-turishi, o'zini tutishi, so'zlari, atrofdagilar bilan muomalasi, oila xo'jaligi, hatto kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvi ham farzandlarning ko'z o'ngida yaqqol namoyon



bo'ladi. Shu bois oila pedagogikasiga oid bilimlar guruh rahbarlariga ota-onalar bilan hamkorlikda yoshlarning yurish-turishi, o'zini tutishi, so'zlari, atrofdagilar bilan muomalasi, hatto kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvini ijobiy mazmunga ega bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Guruh murabbiylarini oila davrasida tashkil etiladigan suhbatlarda ishtirok etishi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil etishi, oiladagi ijtimoiy muhit, oila va ta'lim muassasasi hamkorligini tashkil etishda yoki o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishdagi muammolari haqida guruh murabbiysi o'quvchilar hayoti uchun muhim bo'lgan masalalarni ota-onalar bilan muhokama qilish jarayoniga ularni jalb etish katta tarbiyaviy ta'sirga egaligini yetarli darajada anglay olishi zarur.

**“Umumiy psixologiya”** – psixologik hodisalarning umumiy qonuniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rgangan holda ruhiyat va shaxs xulq-atvori mohiyati yuzasidan eng umumiy tushunchalarni beruvchi fan. Guruh murabbiylarining “Umumiy psixologiya” asoslari borasidagi bilimlarga ega bo'lishlari farzandlarning ruhiy holatlari, xulq-atvorlarini to'g'ri baholash, ularda ruhiyat salomatligini ta'minlash, ijobiy xulq-atvorni tarbiyalashga imkon yaratadi. Mazkur fan asoslariga oid bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, guruh murabbiylari tomonidan guruhda sog'lom psixologik muhitning yaratilishi, guruh a'zolari o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni oqilona tashkil etilishiga zamin yaratadi. Qolaversa, guruh murabbiylarining umumiy psixologik bilimlarga egaliklari yoshlarning barkamol inson bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashga erishishda, shuningdek, farzandlarning ruhiyati va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishda qo'l keladi.

**“Ijtimoiy psixologiya”** – ijtimoiy sub`ektlarning turli ijtimoiy guruhlardagi xulq-atvori va faoliyati qonuniyatlarini, shuningdek, ushbu guruhlarining psixologik xususiyatlari o'rganuvchi fan. Mazkur fan asoslari guruh murabbiylariga ijtimoiy hamkorlikka asoslangan munosabatlar jarayonida sub`ektlarda yuzaga keladigan g'oya, tasavvur, kechinma, his-tuyg'u hamda kechinmalar, shakllanadigan xulq-atvor mohiyatini anglash

imkoniyatini yaratadi. Mazkur bilimlarga tayangan holda guruh murabbiylari guruh a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning yoshlar ongi va xulq-atvoriga ta'sirini yetarlicha baholay oladi. Har qanday ijtimoiy munosabatning bola shaxsiga ko'rsatadigan ta'siri yuqori ekanligini anglagan holda bu jarayonda imkon qadar guruh a'zolari tomonidan salbiy hissiyotlarni ifodalashning oldini olish tadbirlarini ko'radilar. Aksincha, ijobiy – o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlashga, hamdardlikka asoslangan munosabatlarni yanada rivojlantirish choralarini belgilashga urinadilar. Fan asoslarini o'rganish orqali guruh murabbiylari jamoa muhitida namoyon bo'ladigan har bir munosabatning sabab va oqibatlarini o'rtasidagi aloqani anglashni o'rganadilar. Bu boradagi bilimlarning takomillashib borishi esa jamoani, faoliyatini to'g'ri, oqilona tashkil etishga doir tajribaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**“Yosh va pedagogik psixologiya”** – individning tug'ilganidan boshlab to keksaligigacha bo'lgan ontogenetik rivojlanishi davomidagi shaxs psixologik taraqqiyoti hamda uning shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganuvchi fan<sup>7</sup>. Fan asoslari guruh murabbiylariga turli yoshdagi farzandlar bilan muloqotni tashkil etish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy, irodaviy sifatlarni, sog'lom ruhiyatni samarali shakllantirishda yordam beradi. Qolaversa, guruh murabbiylari yoshlarni yosh, psixologik xususiyatlariga tayangan holda ularni turli mazmun, yo'nalish va ko'lamdagi ijtimoiy munosabatlarga jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'smirlarda shaxsini shakllantirish ustida ko'proq ishlash, nafaqat mehnat faoliyati, shu bilan birga sport turlari bilan faol shug'ullanishga oid malakalarning shakllanishiga erishsalar, o'spirinlarda kasbiy faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash, qiziqish, xohish-istaklariga tayangan holda muayyan kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislik bilimlarini puxta o'zlashtirishga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalanishining uddasidan chiqadilar. Shu bilan birga guruh murabbiylarining yosh va pedagogik psixologiyaga oid bilimlari yoshlik, navqironlik va keksalik davrlarida kundalik, ijtimoiy va kasbiy faoliyatni, turli

<sup>7</sup> Большая психологическая энциклопедия. – Москва: 2019. С – 92.



doiralarda kechadigan muloqotni eng maqbul shakllarda tashkil etish borasidagi tajribalarining yoshlarga samarali tarzda uzatilib boradi.

**“Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari”** – mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashga oid yaxlit, izchil ta`limot mohiyatini yorituvchi fan. Bo`lajak guruh murabbiylarining fan asoslaridan xabardorliklari ta`lim muassasasida olib borilayotgan faoliyat va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, yoshlar istiqbolini mamlakat taraqqiyoti bilan bog`liq holda ko`rish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga bo`lajak o`qituvchilarni fan asoslari bilan tanishish orqali fuqaro sifatida barkamol insonni tarbiyalashga mas`ul ekanliklarini anglab yetadilar.

Turli madaniyatlar qorishuvi, “ommaviy madaniyat” ta`siri, mafkuraviy kurash tobora kuchayib borayotgan mavjud sharoitda ta`lim muassasalarida milliy tarbiyani tashkil etish, farzandlarni turli yot, buzg`unchi g`oyalardan himoyalash, ularni asrlar davomida qadrlanib kelinayotgan an`analar ruhida tarbiyalash yo`llari, metod va vositalaridan xabardor bo`ladilar.

**“Etnografiya”** (grekcha: etno- xalq va ... grafiya - yozaman) – jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlarini, moddiy va ma`naviy taraqqiyot darajasidan qat`iy nazar, teng holda o`zaro tafovuti yoki umumiyli va o`xshashligini, ularning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganuvchi maxsus fan sohasi<sup>8</sup>. Bo`lajak o`qituvchilarning fan asoslari bilan tanishishlari ularning asrlar davomida yoshlar tarbiyasida qo`llanib kelinayotgan milliy tarbiyaviy ta`sir shakllari, metod va vositalardan xabardor bo`lish, shaxsiy faoliyatda ulardan foydalanishlariga yordam beradi. Qolaversa, “Etnografiya” fani asoslari bo`lajak o`qituvchilar yoshlarning yosh, psixologik xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlariga tayangan holda milliy tarbiyaviy ta`sir metod va vositalarini o`rinli, maqsadli qo`llashga o`rgatadi. Natijada ular

<sup>8</sup> O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Sharq – Qizilqum / 10-jild. Tahrir hay`ati A.Azizxo`jaev va b. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 283-bet.

milliy tarbiyaviy ta`sir metod va vositalarining shaxs kamolotiga ta`sirini to`g`ri baholash, turli vaziyatlarda metod va vositalarni birga qo`llash, bir metod yoki vositani ikkinchisi bilan o`rinli almashtirishga doir ko`nikma, malakalarini o`zlashtiradilar.

**“Axloqshunoslik”** (“Etika”; lot. “et’ica”, yun. “et’os” – urf-odat, xulq-atvor) – axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o`rnini<sup>9</sup>, axloqning shakllanish shart-sharoitlarini va shakllarini o`rganuvchi<sup>10</sup> fan.

Bo`lajak o`qituvchilar tomonidan “Axloqshunoslik” fani asoslarining o`zlashtirilishi ularda yoshlarda namoyon bo`ladigan ma`naviy-axloqiy sifatlar xususidagi tasavvurlarni, yoshlarning ma`naviy-axloqiy fazilatlarini uning kamolotini belgilovchi asosiy mezonlar ekanligi to`g`risidagi tushunchalarni hosil qiladi. Yoshlarning muayyan ma`naviy-axloqiy sifatlarga ega bo`lishi ularning kamoloti darajasini belgilaydi.

Shu sababli bo`lajak o`qituvchilar jamiyat, oila hamda bola mansub bo`lgan mikromuhitda shakllangan munosabatlarning unda ma`naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga ta`sirini bilishlari nihoyatda muhim. Qolaversa, yoshlarning shaxs sifatidagi ijtimoiy mavqei uning borliqqa bo`lgan munosabati bilan belgilanadi. Bolada o`z shaxsiga, atrofdagilarga, tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishda “Axloqshunoslik” fani asoslaridan bo`lajak o`qituvchilarning xabardorlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

**“Estetika asoslari”** (“Nafosatshunoslik”; yun. “aist’etikos” – his qilish, hissiy idrokka oid) – inson va olam o`rtasidagi qadriyatli munosabatning o`ziga xos jihatlarini, kishilarning badiiy faoliyati sohasini o`rganuvchi fan<sup>11</sup>.

Shaxsning ijobiy his-tuyg`ularga, estetik didga ega bo`lishi unda ijtimoiy borliqqa nisbatan samimiy munosabatni shakllantiradi. Shu sababli yoshlarda juda yoshlikdan ijobiy his-tuyg`ularni

<sup>9</sup>O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Sharq – Qizilqum / 10-jild. Tahrir hay`ati A.Azizxo`jaev va b. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 278-bet.

<sup>10</sup>O`zbek tilining izohli lug`ati. Shukrona – H / 5 jildli. Beshinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay`ati: E. Begmatov va b. – Toshkent: “O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 61-bet.

<sup>11</sup>O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Sharq – Qizilqum / 10-jild. Tahrir hay`ati A.Azizxo`jaev va b. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 269-bet.



tarbiyalash, ularning estetik didini o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak o'qituvchilarning estetika bilimlaridan xabardor bo'lishlari ular tomonidan yoshlarni ijobiy his-tuyg'ularga boy qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, shaxsning ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'lmasligi, ularda ijtimoiy borliqqa, hatto o'z oilasiga nisbatan befarqlikni, e'tiborsizlikni qaror toptiradi. Borliqqa nisbatan befarq, e'tiborsiz shaxsda xudbinlik sifatlari shakllanadi. Bunday shaxsning hayotiy maqsadi-hech bir ijtimoiy majburiyatlarni zimmaga olmagan holda faqat o'zi uchun yashash, o'z ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Bu esa insonning ijtimoiy maqomiga ziyon yetkazadi. Zero, har bir shaxs shaxslararo munosabatlar jarayonida shakllanadi, ularning ta'sirida muayyan ijtimoiy ong va madaniyatga ega bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarning vazifasi esa yoshlarni jamiyat, Vatani uchun kerakli, ularning manfaatlari uchun kurashadigan faol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. "Estetika asoslari" fani bo'lajak o'qituvchilar pedagogik bilimlarini, hayotiy tajribalarini shu nuqtai nazardan boyitishga xizmat qiladi.

**"Yosh fiziologiyasi va gigiena"** – voyaga yetmaganlarni fiziologik jihatdan to'g'ri o'sishlarini ta'minlash, ularda gigienik madaniyatni shakllantirish yo'llari, shakl, metod va vositalarini tadqiq etadigan fan. Globallashuv va texnikaning mislsiz rivojlanishi sharoitida inson salomatligini ta'minlash har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Garchi tibbiyot zamonaviy yutuqlarga erishayotgan, ijtimoiy sub`ektlarning ishlab chiqarish qobiliyatiga egalik yoshi uzayib borayotgan bo'lsa-da, biroq, voyaga yetmagan yigit yoki qizlarning fiziologik jihatdan to'g'ri tarbiyalanmasligi ularning organizmida muayyan qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'rinda zamonaviy taraqqiyot ta'sirida kelib chiqayotgan – kam jismoniy harakatsizlik, tana vaznining oshishi kabi kasalliklarning oldini olish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilar "Yosh fiziologiyasi va gigienasi" fani asoslaridan xabardor bo'lar ekanlar, ta'lim mussasasi sharoitida yoshlarning gigienasiga alohida e'tibor qaratib, shaxsiy gigienik



madaniyatni yoshlikdan shakllantira oladilar.

Shu bilan birga o'g'il va qiz bolalarning fiziologik nuqtai nazardan to'g'ri kamolotga yetishishlari, reproduktiv salomatlikka ega bo'lishlarini ta'minlashga muvaffaq bo'ladilar.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. "Milliy tarbiya asoslari" fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini tasniflab bering.

3. "Milliy tarbiya asoslari" fanining ilmiy tadqiqot metodlari qaysilar hamda ularning funksiyalarini bayon eting

4. "Milliy tarbiya asoslari" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi mazmunini bayon eting.



## **MAVZU: MILLIY TARBIYA G'OYASINING TARIXIY PEDAGOGIK ASOSLARI**

### **Reja**

1. Milliy tarbiya mazmuni, mohiyati.
2. O'zbekona tarbiyaning o'ziga xosligi turli manbaalardagi talqini.
3. O'zbek mentaliteti: tayanch komponentlar, fazilatlar, xususiyatlar.

*Tayanch so'zlar: millat, milliy, g'oya, tarix, asos, pedagog, o'zbek, insonparvarlik, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, pedagogik munosabat, axloqiy tarbiya, oila, maktab, mahalla, maqsad, vazifa.*

### **Adabiyotlar:**

1. Quronov M. *Milliy tarbiya. Monografiya. Toshkent "Ma'naviyat" 2007.*
2. Sobirova M., Holiqova E. *Etnomadaniyat. - Toshkent: "Innovatsion-ziyo", 2021. B.286.*
3. Yo'ldosheva S. *"Xalq-urf odatlari va an'analari" T., "Ijod dunyosi", 2003.*
4. Asqarov A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - Toshkent: "Universitet", 2007.*
5. Qo'shjonov M. *Adib ma'naviyati mustaqillik xizmatida. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1993-yil iyun.*

**Milliy tarbiya mazmuni, mohiyati.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida respublika suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi e'tirof etilib, davlat xalq irodasini ifoda etishi, uning manfaatlariga xizmat qilishi, O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilashi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishi ta'kidlanib, O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasligi, O'zbekiston Respublikasida davlat tili o'zbek tili ekanligi, Respublika hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlanishi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi,

O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan<sup>12</sup>.

O'z tiliga, o'ziga xos qadimiy urf-odatlar va an'alariga ega bo'lgan o'zbek millatining o'zining boy milliy tarbiyasi bor. Milliy tarbiya mazmuni nimadan iborat, bu tushunchaning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?

**«Milliy tarbiya» tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib:** milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YuNESKO tamoyili) vositasi; Ta'lim to'g'risidagi Qonunning asosiy prinsiplarining tarkibiy qismi (ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, 4 modda); turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai; o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo'li va vositasi; ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg'unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li; ijtimoiy-ma'naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik obyekti va vositasi; o'quvchilarda milliy (avto va getero) stereotiplarni maqsadli shakllantirish, ma'naviy boyitish jarayoni hisoblanadi<sup>13</sup>.

*Milliy tarbiya - asrlar davomida o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan e'tiqodlar, g'oyalar, ideallar, an'analar, urf-odatlar qarashlar tizimi bo'lib, yoshlarda keksa avlod tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, yutuqlarni o'zlashtirishni nazarda tutadi.*

<sup>12</sup><https://lex.uz/docs/6445145>

<sup>13</sup> Куронов М. Миллий тарбия. Тошкент. "Маънавият". 2007 й.



Yangilanayotgan O'zbekistonda milliy tarbiya - bu o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan e'tiqodlar, g'oyalar, ideallar, an'analar, urf-odatlar qarashlar asosida yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayonidir.

*Milliy tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek xalqi tomonidan to'plangan ijtimoiy tajribani, xalqning boy milliy madaniyatini, uning millatga xos bo'lgan fazilatlari asosida O'zbekiston fuqarolarida millatga xos bo'lgan xususiyatlar : milliy ong, yuksak odoq-axloqlilik, badiiy did, huquqiy madaniyat, mehnat va ekologik madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.*

Milliy tarbiya O'zbekistonda ilmiy-pedagogik atama sifatida milliy mustaqillik bergan imkoniyat orqali yangidan ko'tarilib qo'llanilgan bo'lsa ham, u avvaldan mavjud bo'lgan, xalqimiz turmush tarzida ifodalanib kelgan. Chunki o'zbek xalqining tarixi o'zbekchilikka asoslangan milliy tarbiyaning tarixi hamdir. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar (Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayhon Beruniy, Mikluxo Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, Herman Vamberi va boshqalar) tomonidan qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta'limotlarda turli xalqlarning bir-birlarini tanishi, bilishi, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning milliy jihatlari o'rganilganligi tarixdan ma'lum.

XIX asrga kelib G'arb ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya yo'nalishlari yuzaga kelib, bu fanlar «boshqa dunyo kishisi» muammosini, ya'ni boshqacha tarbiya tizimi, uslublari, maqsadlaridagi xususiyliklar o'rganila boshlandi. XIX asr uchun «boshqa dunyo kishisi»ni o'rganish taraqqiyparvar yangilik edi. Zero, kulturantropologiya «Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?», «U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?», «U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?», «U o'z xatti-harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?» kabi savollarga javob izlar edi.



Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid bo'ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip (odamning boshqa xalqlar haqidagi bilimlar yig'indisi) ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip (o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi)ning shakllanishiga ham turtki bo'ldi. Zero M.Mid tomonidan 1927-yili nashr ettirilgan "Coming on' age Samoa" (Samoadada ulg'ayish) kitobi tarbiyaning milliyliigi isbotlangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasi edi. M.Mid har bir kishining ma'lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta'sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi. Chunki, bolalarning milliy tarbiyaviy ta'sirni qabul qilish jarayoni va kattalarning milliy fe'l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib keluvchi an'analar, marosim, udum, ishlab-chikarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor shakllari, bolalarga, o'smirlarga, qariyalarga munosabatlarning o'ziga xosligi katta rol o'ynashini M.Mid alohida qayd etadi<sup>14</sup>. Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo'lgan fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan namunaviy milliy shaxs siymosi mavjudligini birinchi bo'lib A.Kardiner qayd qildi. U «milliy shaxs»ning shakllanishida, eng avvalo, oilaning milliy-tarbiyaviy ta'sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining yetakchi rolini alohida qayd qiladi<sup>15</sup>.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya va G'arbiy Germaniya aholisining psixologiyasi o'rganilib, millat, uning qadriyatlar tizimi, muloqot usullari va boshqa ko'rsatkichlari milliy madaniyat ta'sirida shakllanishi isbotlandi. Turli mintaqalarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining umumlashtirilishi: muayyan xalqqa xos dunyoqarash, turmush tarzining mavjudligi xalqlarning turli «namunalari»ni hosil qilishini; turli «namunalari»ning mavjudligi esa bolalarni tarbiyalashda o'ziga xoslikning mavjudligiga, qadriyatlar tizimining kattalar xulq-atvorida aks etishiga bog'liq ekanligini

<sup>14</sup> <https://muhaz.org/blackcurse>

<sup>15</sup> Современная западная социология: Словарь. — М.: Политиздат, 1990, с. 208.



ko'rsatdi. Biroq, o'tkazilgan etnografik va etnopsixologik tadqiqotlar muayyan bir xalqning milliy xarakterini o'rganayotgan olimning o'zi boshqa madaniyatga mansubligi tufayli o'rganayotgan millat madaniyatining tub mohiyatini mukammal his qilolmasligi natijasida, tadqiqot ma'lumotlarini talqin qilishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishi mumkinligini ham isbotladi. 50-yillarda Amerika etnopsixologiyasining milliy xarakteriga xos kamchiliklari ham aynan shunda edi. Albatta, bu omil milliy xarakter konsepsiyasiga xos obyektiv mohiyatni o'zgartirmadi, aksincha, tadqiqot uslubiyatini takomillashtirishga turtki bo'ldi, xolos.

Misrlik mashhur pedagog Sote' al-Husriy milliy tarbiya vositasida avlodan-avlodga o'tuvchi milliy madaniyat va uning sivilizatsiya bilan munosabatini shunday ta'riflaydi: «Menga madaniy birlikning kafolatini bering, men esa sizga birlikning boshqa barcha turlari kafolatini beraman». Olim 1953-yili Misr milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, maktabni «ma'naviy mustamlakalik»ka qarshi kurash maydoni, deb atadi. Shuning uchun ham u arab maktablarida milliy g'urur, vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishga chaqirdi. U G'arb ta'lim tizimini Arabistonga namuna, nusxa qilib ko'chirib olish xavfli va befoyda deb hisoblar edi. Chunki, «boshqa muhitga ko'chirilgach, o'z joyiga xos bo'lgan ijtimoiy omillar ta'siridan ajratilgach, ko'chirib keltirilgan ma'orif tizimi butunlay boshqa natijalar beradi». Shuning uchun, deydi pedagog Al-Husriy, «biz boshqa har qanday millat maorif tizimiga o'ralashib qolmasdan, taraqqiyotda bizdan o'zib ketgan barcha millat tajribalaridan kelib chiqqan holda o'zimizning alohida maorif tizimimizni tuzmog'imiz kerak»<sup>16</sup>. Shuningdek, Al-Husriy arab tilining ilmiy atamalarini yaratishga chaqirib, «**milliy tarbiya**» tushunchasini ilk bor ilmiy-pedagogik muomalaga kiritdi.

Demak, milliy tarbiya: muayyan milliy tarbiyaviy fazilatlarning asosli etaloni, mezoni va aniq yo'nalishi bo'lib, milliy tarbiya «tarbiya» tushunchasining mohiyati zamonaviy

<sup>16</sup>Т.Тихонова. Сать аль-Хусри о роли культуры в укреплении арабского единства. Проблемы арабской культуры. Сб. научн. ст. — М.: Наука, 1987, с. 332-343.

pedagogika, psixologiya, etnopedagogika, etnopsixologiya, sotsiobiologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi va antropologiyasi kabi bilimlar tizimi asosida oydinlashtiradi, milliy tarbiya til, urf-odat, psixologiya, dunyoqarash hamda bolaga uning xohishidan tashqari holatda o'tkaziladigan tarbiyaviy ta'sir natijasida amalga oshadi.

**O'zbekona tarbiyaning o'ziga xosligi.** Milliy tarbiya jarayonini «yashash darsi»ga qiyoslash mumkin. Ana shu darsdan «a'lo» baho olish uchun inson bobolar hikmatlarini, xalq maqollarining mazmunini chuqur anglashi kerak bo'lgan. XIX asr o'rtalarida xalqimiz hayoti, fe'l-atvorini o'rgangan olim H.Vamberi o'zbeklarning, tarbiyadagi umumiylikning natijasi o'laroq, fe'l-atvori bilan bir xilligini qayd etadi. O'sha davrda o'zbeklarning soni (Vamberining hisob-kitobiga ko'ra) ikki millionga teng bo'lgan. Ya'ni Buxoro hukmronligida bir million, Xiva hukmronligida 700 ming, Afg'oniston hukmronligida 200 ming kishi bo'lgan. XIX asr o'zbeklari haqida olim shunday deydi: «Oltin O'rdada «o'zbek» degan nom ancha oldindan ma'lum bo'lib, «musulmoncha tarbiyalangan» degandek tushunilgan. Ya'ni ular «shafqatsiz odatlardan bosh tortishib, O'zbekiston muqaddaslashtirgan musulmon Osiyo madaniyatiga yo'l ochgan: o'troq va yarim o'troq, asl dehqon; harbiy millat; savdoda og'ir vazmin; sanoatda mo'tadil; ochiq ko'ngil, mard; jiddiy, haqiqiy turkiy qimmatga ega; ma'yuslikkacha kamgap, og'ir vazmin; sovuqqonlik odob-axloq namunasi hisoblanadi; bir gapni o'ylab og'zidan chiqarguncha bir qancha daqiqalar o'tadi; o'zbek o'ylabroq gapirishga moyil, u buni tabiiy deb biladi; sadoqatli va dovyurak bo'lib, to'g'ri gapiradigan, to'g'ri harakat qiladigan, ko'zga tik qaraydigan erkakni mukammallik namunasi deb biladi<sup>17</sup>. Davlat himoyasini o'z zimmasiga olgan, o'zbeklarning oilaviy munosabatlarini asl namuna hisoblasa bo'ladi. Ko'p xotinlik faqat hukmronlarga xos; o'rta yoshga borib qolgan farzandlar o'z ota-onalariga juda hurmat va ehtiromli bo'lishadi.

<sup>17</sup>Куронов М. Миллий тарбия. Тошкент. «Маънавият».2007й.



O'zi 30-40 yoshlarga borib qolgan o'g'il otasining bir qarashidayoq cho'chib ketadi va hech qachon otasi bor paytda chilim chekmaydi, birinchi o'tirmaydi va birinchi gapirmaydi; turkiy shevada gapiradilar; o'zbeklar xudojo'ydir va bolalardan qunt talab qilishadi; mug'ambirlik kamdan kam uchraydi; o'zbeklar yaxshi musulmondirlar — shu jihatdan anatoliyalik turklarga o'xshaydilar; ashula va musiqani jon dilidan sevishadi»<sup>1</sup> va h.k. Ushbu xolisona tavsifning o'zi ham XIX asr o'rtalariga kelib, milliy tarbiyaning maqsad va vazifalari, uslublari takomillasha borganligi tufayli o'zbek milliy xarakteri o'zbekchilikning yanada muayyanlasha borganligini ko'rsatadi.

Milliy tarbiya tizimining o'tkir vositalaridan biri har bir kishining o'z ajdodlari tarixini bilishi lozimligi va shunga ilk yoshlardanoq bolalarning o'rgatila borishi edi. «Turk va tojikda barcha odam farzandi ichinda rasm turar, yetti otani sanab biladi<sup>18</sup>. Xalqi aytur, yetti orqadan beri temurchiman va yo ayturki, mening yetti otam shu yurtda o'tgandur» deb yozadi «Shajarai turk» muallifi Bahodirxon Abdulg'ozixon. Xorazm tarixining 1644-1664-yillar sohibi bo'lgan Abulg'ozixon o'zidan boshlab to Odam Safiullohgacha «otasini otasi faloncha», - deya nomma-nom bayon qiladi. Bu misoldan ilgari ajdodlarimiz yetti ota naslini batafsil aytib bera olganliklari ayon bo'ladi. Ajdodlar yodi har bir kishining o'zligini anglatib, ajdodlar nomiga dog' tushiruvchi xatti-harakatlardan saqlab, yaxshilik, olijanoblikka chorlab turgan.

O'zbek milliy tarbiyasi tarixining XIX asriga kelib an'anaviy ravishda Ahmad Yassaviyning «Chor kitob»ini, Vafoiyning «Ravnaqul islom»ini, So'fi Olloyorning «Haftiyak»ini va boshqalarni o'rganib kelgan maktab ta'limi mazmuniga Mahmudxo'ja Behbudiyning «Kitob ul-aftol», Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», Abduqodir Shakuriyning «Jome-ul hikoyat» va Rizouddin ibn Faxruddin, Faxrul Banot, Ali Nozimo va boshqa mualliflarning asarlari kirib keldi. Bu esa maktablarga yangi, o'z davrining tarbiyaviy ruhini kiritdi.

---

<sup>18</sup>Tурк Ўзбегим. «Звезда Востока» журналы кутубхонаси. «Ватан» серияси. -Т.: 1992, 114-128-бетлар.



O'zbekona tarbiyaning turli qirralari ulkan adiblarimiz Abdulla Qodiriy, Oybek, Pirimqul Qodirov va boshqalarning tarixiy asarlarida muvaffaqiyatli aks ettirilgan. Abdulla Qodiriy tomonidan «O'tgan kunlar»ning «o'zbeklar turmushidan tarixiy romon» deya aniqlashtirilishi ham adibning milliy zaminda qat'iy turgan yozuvchi ekanligining misolidir. Asarning milliy tarbiyaviy mohiyatini atoqli olim M.Qo'shjonov shunday bayon qiladi: «A.Qodiriy o'zbekni o'zbekday ko'rsatdi. Bir zum u yaratgan yetakchi obrazlar Otabek, Kumush, Anvar yoki Ra'no xarakterlari tasvirlangan muhitni o'zgartirib, ularni boshqa nom bilan atab ko'ring. Birinchidan, muhit yot bo'lib, nomlari mos tushmaydi, Marg'ilonni Sibir yoki Abdullani Ivan degandek; ikkinchidan, qanday muhitda ko'rsatmang va qanday nom qo'ymang, ular faqat Sharq, ya'ni o'zbek farzandlari ekani ko'rinib turadi»<sup>19</sup>.

***O'zbek mentaliteti: tayanch komponentlar, fazilatlar, xususiyatlar.*** Tarixdan ma'lumki, milliy o'ziga xosliklar uzoq; tarixiy davrdagi ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi hamda mentalitet millatlarning aqliy intellektual imkoniyatlari va ruhiy-psixologik o'ziga xosliklarini qamrab oladi. Millat xarakteridagi o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urfodatlar, marosim va ma'rakalarining yahlit tizimi tashkil etadi<sup>20</sup>.

O'zbek xalqining milliy mentalitetining shakllanishiga xalq boshidan kechirgan 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqich (zardo'shtiylik, buddaviylik, islom, kommunistik) ta'sir ko'rsatganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganligi va o'z o'rnida millatning fe'l-atvorida o'chmas iz qoldirganligi barchaga ma'lum. Tarixning

---

<sup>20</sup> Қўшжонов М. Адиб маънавияти мустақиллик хизматида. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1993 йил июнь.



guvohlik berishicha, o'zbeklar o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega xalq sifatida o'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizini esa qadimiy turkiy xalqlardan boshlagan. Har ikkala asosiy ildizlarning birikishi – o'zaro sintezi o'zbek elatini va keyinchalik o'zbek millatini tashkil etgan.

O'zbek xalqining etnik jihatidan ko'p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatning ayniqsa rivoj topishni taqozo etib kelgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikda moyillik, g'am-anduhi paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlari ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.

Ikkinchi guruh, sabablar doirasiga muayyan millat istiqomat kilib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, jug'rofiy-hududiy va iqlimiy omillar ta'sirini ko'rsatib o'tish joizdir. Ma'lumki, mamlakatimizning asosan tekislik va cho'llardan iborat keskin kontinental iqlimli, jug'rofiy hududda joylashganligi, jazirama issiq, yoz bilan qahraton qishni, almashinishi, bahor va kuzning shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimizning fe'l-atvorida aniqlik va lo'ndalikni, to'poriliq qaynoq mehrini, qattiqqo'llik va intizomni tarkib toptirgandir.

Xullas, xalqimizning intellektual ma'naviy qiyofasi-mentalitetiga baho berishda yuqoridagi muhim jihatlarni e'tiborga olish zarurdir. O'zbeklarning Movarounnahr va Xorazm hududida, hamda ularga tutash mintaqalardagi o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatiga ega avtoxton xalq ekanligiga xalqimizning ona tabiatga, yerga, suvga, havoga, olovga bo'lgan cheksiz hurmati va ularni e'zozlash bilan bog'liq turfa xil urf-odat va marosimlari, an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilik udumlari, ko'p asrlik islom sharoitidan qat'iy nazar, o'zbek xalqining turmush-tarzida, urf-odatlarida saqlanib kelayotgan son-sanoqsiz zardo'shtiylik elementlarida ayniqsa yaqqol ifodalangan.

Shuningdek, bugungi kunda o'ziga xos tarzda tarix rivojlanayotgan shaharsozlik va me'morchilik an'alarimiz, boy folklor na'munalarimiz, yozma meros, adabiyot, san'atga bo'lgan qiziqishlarimiz, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, koinot va zamin, inson va havo, o'lim va abadiyat haqidagi asotir va rivoyatlarimizda, asosan o'troq, madaniyat sohiblariga tegishli bo'lgan Navro'z, Mehrjon, Sada, Gul sayllari, Hosil bayrami kabi bayram va sayllarning davomiyligi, yoinki insonning qayg'uli onlari-motam marosimlarida maxsus o'lik xizmatchilari-g'assollar, go'rkovlar ipgiroki bilan bog'liq udumlarimiz, rasm-rusmlarimiz davom etib kelayotganligi fikrimiz dalilidir.

O'zbeklarning boshqa asosiy ildizi turkiylardan boshlaganligiga (turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, lafz halolligi) bag'rikenglik sahovatpeshalik, hojatbarorlik kabi hislatlarimizda o'zining yorqin ifodasini topgan. Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y tantanalarga o'ta o'chligida, yillar mobaynida yig'ib – terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, a'za va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motam marosimlarimizgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarimizda, keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo boshqosh bo'lishi kabi udumlarimizda kuzatamiz.

Milliy mentalitetimizda turkiylarga xos jihatlar ma'naviy madaniyatimizda, chillak, chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarmizda, «quloqtoshlar», «beshikkerti», «qalin», «to'qqiz» kabi rasm-rusm va udumlarimizda, qolaversa, otga bo'lgan o'ziga xos mehr-muhabbat va motam marosimlarda ishtiroki bilan bog'liq udumlarimizda yorqin ifodasini topgan. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ming-ming yillar davomida shakllangan milliy mentalitetimiz bizga qo'shni bo'lgan boshqa xalqlarga muallaq holda, o'zga xalqlardan ayri rivojlanmagan. Aksincha, milliy mentalitetimizga biz bilan qo'shni bo'lib yashab kelgan boshqa xalqlarning ma'lum ma'noda ta'siri bo'lgan. Ayniqsa o'zbek milliy mentalitetida forsiy zabon xalqlar va arablarning ta'siri katta bo'lgan.

O'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzini ko'proq an'ana urf-odatlar orqali



boshqarilishidir. O'zbek xalqi oila qurish an'analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda, hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu o'rinda «G'arb qonunlari, sharq urfodatlari bilan boshqariladi» degan iborani eslamok joiz. Darhaqiqat, Sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida, yoinki, keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.

G'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa insonning ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutloq aralashmaydi. Sharqda esa butkul boshqacha manzarani kuzatamiz. Sharqda jamoaga asosiy e'tibor beriladi. Har bir urf-odat, marosim jamoa, mahalla ahli ishtirokida o'tkaziladi. Jamoa insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi muntazam ishtiroki uning umumiy ahloqiy me'yorlari doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ajralgan holda ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi.

Asrlar mobaynida o'zbek xalqi millat sifatida shakllandi, buning barobarida o'ziga, mentalitetiga xos bo'lgan tayanch komponentlar, fazilatlar, xususiyatlarni o'zlashtirdi. Ularni shartli ravishda ijtimoiy fazilatlar, jamoaviy jihatlar va axloqiy sifatlarga

bo'lish mumkin, bunda har bir komponent, fazilat va xususiyatlar o'ziga xos ta'rif va tasnifga ega.

**Ijtimoiy fazilatlar:** maqsadlilik, bunyodkorlik, tabiatga muhabbat, g'oyaviy kurashuvchanlik, urf-odatlariga rioya qilish, vatanparvarlik me'yorga rioya qilish, ijtimoiy faollik, e'tiqodlilik, faoliyatda hamisha birinchilikka intilish.

**Jamoaviy jihatlar:** oilaga sodiqlik, mehmondo'stlik, jamoaviylik, ibrat olishga moyillik, boshqalarga qarab ish tutish, farzandsevarlik, bolajonlik, bag'rikenglik, hamjihatlik, ahillik, do'stga sodiqlik, o'zi yonib, boshqalarni ham yondira olish.

**Ahloqiy sifatlar:** halollik, hayo, uyat, ibolilik, tejamkorlik, sahovatlilik, qanoatlilik, sabrlilik, vijdonlilik, insoflilik, shukronalik, haromdan hazar qilish, istarasi issiqlik.

1. **Moslashuvchanlik.** Keraksiz janjal va ko'ngilxiraliklardan qochish uchun sodiq bo'lish juda muhimdir.

2. **Haqiqat.** O'zaro munosabatlarda halollik hamma narsaning asosidir. Usiz kuchli va ishonchli oilani yaratish mumkin bo'lmaydi. Uning har qanday ko'rinishini o'qish, tanqidni oqilona qabul qilish kerak, chunki keyingi safar siz o'zingizning manzilingizda haqiqatni eshitmaysiz.

3. **Hamjihatlik.** Oila a'zolari har xil faoliyatni amalga oshirish uchun shaxsiy makon va erkinlikka ega bo'lishlari kerak. Ammo hamma uning har doim qaytib kelishi mumkin bo'lgan mustahkam oilasi borligini aniq bilishi kerak. Bitta bo'lish uchun bo'sh vaqtni birga o'tkazish, qarindoshlar bilan uchrashish kerak.

4. **Kechirim.** Siz kechirishni bilishingiz kerak, maydachuyda narsalardan xafa bo'lmang. Hayot shunchalik qisqa, uni kuch, vaqt va kuch sarflaydigan keraksiz janjallarga sarflash kerak.

5. **Saxiylik.** Bolalarni bolaligidan evaziga talab qilmasdan berishga o'rgatish kerak. Bu hamdardlik, sezgirlik, xushmuomalalik, hamdardlik, insonparvarlik va boshqalar kabi qimmatli fazilatlarni yotqizishdir. Axir, agar bu hayotining boshida bu maydalanganlarga berilmasa, u holda u ruhning bo'shligini to'ldirmaydi.

6. **Qiziqish.** Bolalarning qiziqishini vaqtida payqash va qondirish, unga dunyoni o'rganishga yordam berish kerak.



7. **Aloqa.** Har bir oilada juda muhim qadriyat. Biz har doim hamma narsa haqida gaplashishimiz kerak. Muloqot hamma narsani ushlab turadigan ishonchni kuchaytiradi.

8. **Mas'uliyat.** Shaxs ma'suliyati inson yoshi ulg'ayishi bilan takomillashib boradi, buning uchun ma'suliyat tuyg'usi bolaga yoshligidan boshlab singdirib borilishi kerak. Bunda bolaga o'yinchoqlarini yig'ishtirish, xonasini ozoda saqlash, uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilish kabi topshiriqlar asosida amalga oshirish mumkin. Bu fazilatga egalik bola ijtimoiylashuvida muvaffaqiyat omili bo'lib xizmat qiladi.

### ***Savol va topshiriqlar***

*1. O'zbek milliy tarbiyasi tajribasining tarixiy-pedagogik tavsifini yoriting.*

*2. O'zbekona tarbiyaning turli qirralari aynan qaysi adiblar talqinida bayon etilgan. Misollar bilan tushuntiring.*

## **MAVZU: MILLIY TARBIYANING MAZMUNI VA UNI UNI AMALGA OSHIRISH TAMOYILLARI**

### **Reja**

- 1. Milliy tarbiya - ijtimoiy buyurtma sifatida.**
- 2. Milliy tarbiyani amalga oshirish tamoyillari.**

*Tayanch soʻzlar:* millat, milliy, insonparvarlik, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, pedagogik munosabat, axloqiy tarbiya, oila, maktab, mahalla, maqsad, vazifa, urf-odat, qadriyatlar, anʼanalar, erkin fikr, jismoniy rivojlanish, shaxs xususiyatlari, komil inson fazilatlari.

### **Adabiyotlar:**

- 1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
- 2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «Ijtimoiy pedagogika» (darslik). . T. 2022.*
- 3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegum nashriyoti, 2021..*
- 4. Sh.S. Shodmonova, G.N. Ibragimova, F.O. Mirzayeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*

**Milliy tarbiya - ijtimoiy buyurtma sifatida.** Mustaqillik sharofati bilan milliy oʻzlikka qaytish, oʻsib ulgʻayib kelayotgan avlodni milliy ruhda tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda oʻquv adabiyotlarimiz, darsliklarimiz toʻlaligicha milliy gʻoya bilan sugʻorilgan mazmunga oʻtdi.

Oʻzbek xalqi oʻz madaniyati va maʼnaviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta eʼtibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aql-u zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega boʻlgan Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy va Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy va Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy va Bobur, Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqdi, komil insonni tarbiyalashga oid asarlar yaratdi. Shulardan baʼzilarini sanab oʻtamiz. Chunonchi, Kaykovusning «Qobusnoma», Saʼdiyning «Guliston», «Boʻston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub», Xusayn Voiz



Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqa asarlarni ko'rsatish mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlari berilgan.

Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim sifatida tibbiyot, riyoziyot (matematika), falakiyot, fizika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, filologiya, falsafa, axloq, estetika va jismoniy tarbiya kabi ko'plab fanlarning yetuk bilimdoni bo'lgan. Uning aql-zakovati, yaratgan asarlari O'rta Osiyoda emas, balki Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham hurmat bilan tilga olinadi. U har tomonlama komillik darajasiga yetgan ulug' inson bo'lgan. Abu Ali ibn Sino yigirma to'rt yoshida ko'pgina ilm sohalaridan xabardor bo'lib, Buxoroda olimlar bilan bo'lgan bahsda ularni dog'da qoldirganligi ma'lum. Bunday muvaffaqiyatga olim kamolotga erishganligi tufayli muvaffaq bo'lgan edi.

Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish–yaxshi, muloyim fe'lli bo'lish, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xushxulq bo'lish, rozi–rizolik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu–armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy–axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo'ya xatti–harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishini ta'minlaydi.



Ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq-odobini o'rganishga, tadqiq qilishga bag'ishlagan ekan. Ittifoqo, o'sha olim bizni yurtimizga tashrif buyurib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'libdi. Yurtiga qaytib borgach: „Hozirgacha o'rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o'n besh yoshlik o'zbek qizalog'ining o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yganча choy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim“, degan ekan. Biz shunday yuksak madaniyatli xalqning farzandlari ekanligimizdan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Darhaqiqat, xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlarga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan “eskilik sarqiti” deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik. Axloqsizlik, hayosizlik, ichkilikbozlik, qadimiy merosimizdan nafratlanish asosida qurilgan “yangi axloq” zo'rlab targ'ib qilindi. Bu “ovrupocha odob”ning samarasini, xalqimiz boshiga solgan kulfatlarini, ma'naviyatimizga yetkazgan zararlarini bugun hammamiz ko'rib turibmiz.

Milliy tarbiya masalalarini tahlil qilar ekanmiz, bu tushunchalar insoniyatning o'zi kabi ko'hna ekanligining guvohi bo'lamiz. To'maris va Shiroq afsonalari - yu O'rxun-Enasoy yodnomalari, Aristotel, Suqrot, Aflotun kabi qadimgi yunon mutafakkirlari - yu Gegel, Lessing singari buyuk nemis olimlari asarlarida milliy tarbiyaga doir turlicha qarashlarni uchratish mumkin.

Sharq va G'arb ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida milliy tarbiya tushunchasi turli tarixiy davrda turlicha talqin qilinganligiga qaramasdan, ularning zamirida vatanparvarlik, insonparvarlik, boshqa xalqlarning milliy e'tiqodlari va urf-



odatlariga hurmat bilan qarash kabi mushtaraklik mujassamdir. Jumladan, vatanparvarlik, g'urur, iftixor tuyg'ulari bilan bog'liq milliy va umuminsoniy qadriyatlar Aristotel, Suqrot, Aflotun kabi qadimgi yunon olimlari qarashlarida qanchalik ulug'langan bo'lsa, Al Buxoriy, at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlar tomonidan ham shu qadar e'zozlanganini ko'rish mumkin.

Eramizdan oldin yashagan yunon olimi Aristotel "Vatan sha'niga" nomli asarida: "Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shunday: o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi, o'z vatanini sevmagan kishi o'zgalari vatanini qadrlamaydi", - degan bo'lsa, hadisi sharifda: "Vatanni sevmok – imondandir" – degan g'oya ilgari surilib, vatanni sevish va uni ardoqlash oliy qadriyat sifatida tilga olinadi.

Beruniy "Minerologiya" asarida bir grek donishmandining fikrini keltirib, g'urur tushunchasiga kengroq miqyosda yondashadi: "Kimda kim o'z o'tmish avlodlari bilan g'ururlansa, o'sha avlodlar tirik, uning o'zi esa o'likdir... agar kishi o'zini o'zi yuksaklikka ko'tarmasa, ulug' o'lik suyaklar unga g'urur boisi bo'lolmaydi".

Abu Nasr Forobiy o'zining inson va jamiyat masalalariga bag'ishlangan asarlarida xalqni o'zaro tinch-totuv yashashga chaqiradi. Urushlarni yovuzlik deb ataydi. Yer yuzidagi barcha jamoalar, xalqlar birlashuvini "Buyuk jamiyat" deb ataydi va baxt-saodat hukm surgan adolatli shahar – davlat haqida fikr yuritar ekan, har bir xalq o'ziga xos urf-odatga, odob-axloqqa, tilga ega ekanligini qayd qilib, inson uchun asosiy yo'l – ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir, degan g'oyani ilgari suradi. Allomaning fikricha, urushlar vositasida bir-birini yo'q qilish hayvonot olamiga xos, kimki urushlarni targ'ib qilsa, insoniyatni tahqirlaydi.

Xuddi shu kabi umuminsoniy g'oyalar Xorazmiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlar ijodida ham muhim o'rin tutadi. XI asrning qomusiy olimlaridan Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" nomli bebaho asarida o'z davridagi xalqlarning urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va o'ziga xos ma'naviy-ruhiy

olamiga munosabat bildirar ekan, Vatanni, unga tegishli har bir narsani muqaddas deb bilish, o'zini shu Vatanning farzandi deb his qilish turkiy xalqlarning haqiqiy insonlarga xos fazilati ekanligini alohida e'tirof etadi.

XI asrning buyuk mutasavvufi Ahmad Yassaviy tuproqni Allohning munavvar nuri, suvni uning yorug' hayoti, havoni buyukligi, olovni g'azabi timsoli hisoblaydi. Uning nazarida tuproq yaralganidan buyon ulug' farzandlarini quchog'iga bosib kelayotgan mushfiq zamin. Shuning uchun ham uni e'zozlab ona – Vatan deymiz.

O'z faoliyati davomida xalq va Vatan osoyishtaligi, madaniyati va ma'rifati rivoji uchun kurashgan Alisher Navoiyning ijodiy merosi tarixiy-ma'rifiy jihatdangina emas, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Uning "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbubul-qulub", "Majolis un-nafois" asarlarida jamiyatning har bir a'zosi o'z xalqiga xizmat qilishi, boshqalarga yordam berishi, bani odamga foyda keltirishi, xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'ymog'i lozimligini ta'kidlaydi. Munavvar qori Abdurashidxonov har bir millatning millat sifatida shakllanishining birinchi belgisi o'zligini tanishi va o'zini o'zi himoya qilish tuyg'usining uyg'onishi, millat qadriyatlarini saqlash va taraqqiy ettirishda ekanligini uqtiradi.

Milliy tarbiya millatni ajratuvchi, millatlarni bir-biridan ustun qo'yishni ifodalovchi tushuncha emas, balki barchani yagona vatan tuyg'usi ostida harakat qilishga chorlash va safarbar qilishni anglatadi. Ana shu g'oyani, eng avvalo, oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolardan biri sanaladi. Zero, jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlash va jadallashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy omillari singari o'ta zarur bo'lgan yana bir muhim asosi bor. Bu – yuksak ma'naviyat va ma'rifatga erishishdir. Boshqacha aytganda, shaxsning ma'naviy-ma'rifiy kamolotidir.

Dunyodagi har bir davlat katta-kichikligidan qat'iy nazar, o'zining taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sezishi tabiiy. Bu – tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi



ahamiyati tarixning burilish davrlarida, ayniqsa, beqiyos bo'lishi davlatimizning istiqloq davri taraqqiyotida o'z isbotini topdi. Har qaysi davlatning ravnaq topishi unda yashayotgan xalqning soni bilan emas, balki ijtimoiy-siyosiy yetukligi, milliy ma'naviyati darajasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi, ularni avaylab-asrab kamolot bosqichlariga ko'tarilishi bilan belgilanishi ayon haqiqatdir.

Milliy, sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni Karim oyatlari mazmuni, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillikka intilib, ruhiy najot yo'lini qidiradi. Shu orzu intilish samarasi o'laroq, ma'naviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Milliy odob-axloq haqidagi ta'limot insonni yuksak kamolotga yetishini ko'zda tutadi. Barkamol shaxs biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo–lim to'la pokiza zot. Barkamol inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi. Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir!. "Millat", "milliylik", "milliy g'urur", "milliy odob", "millatlararo muloqot madaniyati" tushunchalarining o'zagini arabcha "mil" so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada "o'zak", "'tub mohiyat", "negiz" ma'nolarini anglatadi.

***"Millat" so'zi esa bir necha ma'noni:***

*1) din: mazhab;*

*2) ummat: bir mazhabga mansub aholi:*

*3) xalq ma'nolarini anglatadi<sup>2</sup>.*

"Millat", "milliylik" tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa

islomiy o'zbeklarga borib tutashadi. Ya'ni Ovrupo xalqlari tillariga "millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo'lsa, Osiyoga esa Islom ta'limoti orqali yuqoridagi uch xil ma'noda kirib kelib singdi.

Milliy sharqona tarbiya insonda iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklik asosida milliylikni xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma'naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g'urur va boshqalar. Milliy tarbiya — Yangilanayotgan O'zbekiston davlatida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi, uni joriy qilishga kamarbasta farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

***Milliy tarbiyani amalga oshirish tamoyillari.*** Milliy tarbiyani amalga oshirishda tamoyillarga rioya etish bu jarayonni tizimli va natijali bo'lishiga xizmat qiladi. Milliy tarbiyani amalga oshirishning eng muhim tamoyillari quyidagilardan iborat: insonparvarlik, demokratiklik, milliylik, tabiiy muvofiqlik, madaniy muvofiqlik, uzluksizlik, ta'lim jarayonining etniklashuvi, ta'lim jarayonini differentsiallashtirish va individuallashtirish, ta'lim shakllari va usullarining izchilligi, tizimliliigi va o'zgaruvchanligi, integrativlik.

Milliy tarbiya tamoyilidan maqsadli foydalanish o'quvchi yoshlarni o'z millati, o'z xalqi, uning tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlarini, turmush tarziga sobitlikni ta'minlaydi; ona tilini puxta egallash, milliy ongini shakllantirish, ona yurtga, o'z xalqiga mehr-muhabbatni singdirish; o'zbek xalqi va O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlarning madaniyati, merosi, xalq an'analari va urf-odatlarini, milliy-etnik marosimlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabilarni shakllantiradi.

**Tarbiyaning insonparvarlashtirish tamoyilini ta'minlash** - bu o'quvchi shaxsini eng yuqori ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilish, uning erkinlik huquqini e'tirof etish, qobiliyat va individuallik namoyon bo'lishini rivojlantirish, bolaning eng yaxshi fazilatlarini va qobiliyatlarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni



yaratish, uning rivojlanish manbalari. Hayotiylik (e'tibor bolaga uning ehtiyojlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari bilan qaratiladi) bolaning shaxsiyatini hurmat qilish, uning ehtiyojlarini, manfaatlarini, qadr-qimmatini tushunish, unga ishonish; insonparvar, samimiy, insonparvar, muruvvatli, muruvvatli shaxsni tarbiyalash.

**Tarbiyaning demokratlashtirish tamoyili** ta'limning avtoritar uslubiga barham berish, pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish, pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi; erkinlik g'oyalari, inson huquqlari va uning ijtimoiy mas'uliyati o'rtasidagi munosabatlarni chuqur anglashni shakllantirish.

**Tarbiyaning tabiatga muvofiqligi printsipi** insonning ko'p qirrali va yaxlit tabiatini, bolalar, o'quvchilar va o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning anatomik, fiziologik, psixologik, milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olishni anglatadi.

**Tarbiyaning madaniyatga muvofiqligi tamoyili** avlodlar ma'naviy birligini va davomiyligini ta'minlashni anglatadi; xalq tarixi, tili, madaniy va maishiy an'analari, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik va hunarmandchilik bilan uzviy bog'liqlik. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bu yerda madaniyatlarning qarama-qarshiligi emas, balki o'zaro boyitish tamoyili ustunlik qilishi kerak. Mamlakat ta'lim siyosatining yetakchi tamoyillari, albatta, milliy madaniyat xususiyatlarini hisobga olish tamoyili bilan bog'liq bo'lishi kerak.

**Tarbiyaning uzluksizligi tamoyili** ta'limda yaxlitlik va uzluksizlikni ta'minlash, uni inson hayoti davomida davom etadigan jarayonga aylantirish demakdir. Ta'lim va tarbiyaning ajralmasligi, bu ularning uzviy uyg'unligidan, ta'lim va tarbiya mazmunini yaxlit va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga bo'ysundirishdan iborat.

**Tarbiya jarayonini etniklashtirish tamoyili** ta'limni fuqaroning o'z-o'zini anglashini shakllantirishga qaratilgan milliy mazmun bilan to'ldirishni anglatadi. Etniklashtirish tamoyili

O'zbekistonning barcha xalqlari vakillariga birdek taalluqlidir. Barcha bolalarning o'z ona maktabida o'qishi, milliy qadr-qimmat, milliy ong, o'z xalqiga etnik mansublik tuyg'usini tarbiyalash imkoniyatini yaratish. Farzandlarda o'z xalqining mentalitetini ko'paytirish, har bir xalqda mavjud bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni yosh avlodda davom ettirish, bolalarni milliy madaniyatning namunali tashuvchisi, ota-bobolari mehnatining davomchilari etib tarbiyalash. Etniklashtirish tamoyili bolalarni ijtimoiylashtirishning ajralmas qismidir.

**Tarbiya jarayonini differentsiallashtirish va individuallashtirish prinsipi** o'quv ishida o'quvchilarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, ma'naviy, intellektual rivojlanish darajalarini hisobga olishni, faollikni rag'batlantirishni, har birining ijodiy individualligini ochib berishni anglatadi.

**Tarbiya shakllari va usullarining izchilligi, tizimliliigi, o'zgaruvchanligi tamoyili** quyidagilarni nazarda tutadi: talaba yoshlarning ongliligi, tashabbuskorligi va ijodiy tashabbusi, pedagogik rahbarlikning tashabbuskorlik va tashabbuskorlik bilan uyg'unligi; ta'limning xalq hayoti, mehnat faoliyati va unumli mehnat bilan bog'liqligi; mehnatga va mehnatkashlarga muhabbatni singdirish; zamonaviy sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qurilish, transport va xizmat ko'rsatish sohasi asoslari bilan tanishish; bolalar va yoshlarda mehnat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, bozor sharoitida hayotga moslashishga tayyorlik.

**Integrativlik tamoyili maktab, oila va jamiyatning pedagogik talablarining birligini nazarda tutadi.** Oilaviy tarbiya va ta'limni tashkil etish ta'lim jarayonining muhim bo'g'ini sifatida ota-onalarning har tomonlama pedagogik tayyorgarligini ta'minlash. Turli ijtimoiy institutlarning bolalariga nisbatan insonparvar, barqaror va yagona talablarni amalga oshirish, ularga pedagogik ta'sirni kuchaytirish, birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish.



**Savol va topshiriqlar**

1. Milliy tarbiyaning ijtimoiy buyurtma sifatidagi mazmunini yoriting.

2. Tarbiyaning insonparvarligi, demokratliligi, tabiatga madaniyatga muvofiqligi, uzluksizligi, differentsialligi va individualligi, izchilligi, tizimliliigi, o'zgaruvchanligi, interativlik hamda maktab, oila va pedagogik talablarining birligi tamoyilini mazmunini yoritib bering.

## **MAVZU: O'QUVCHILARNING MILLIY TARBIYALANGANLIK KO'RSATKICHLARI**

### **Reja**

1. Sharq mutafakkirlari qarashlarida tarbiya masalalarining ifodalanishi.
2. Milliy tarbiya ko'rsatkichlari va mezonlari.

*Tayanch so'zlar:* millat, milliy, insonparvarlik, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, pedagogik munosabat, axloqiy tarbiya, oila, maktab, mahalla, maqsad, vazifa, urf-odat, qadriyatlar, an'analar, erkin fikr, jismoniy rivojlanish, shaxs xususiyatlari, komil inson fazilatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X. *Pedagogika nazariyasi va tarixi* – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
2. Quronov M. *Milliy tarbiya*. Toshkent. "Ma'naviyat". 2007.
3. B.S. Abdullayeva, A.U. Umarov, B.N. Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik)*. T.: Nodirabegum nashriyoti, 2021.
4. K. Xoshimov, S. Nishonova. *Pedagogika tarixi. Darslik. Toshkent-2005*.
5. Quronov M. *Bizni birlashtirgan g'oya / M. Quronov*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 348 b.

**Sharq mutafakkirlari qarashlarida tarbiya masalalarining ifodalanishi.** Insonning ma'naviy kamoloti masalasi insoniyat tarixining barcha bosqichlarida tafakkur ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, bugun dunyoda kechayotgan globalizatsiya va harbiy-siyosiy raqobat jarayonida hamda tobora kuchayib borayotgan mafkuraviy kurash davrida komil inson tarbiyasi masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. Shu bois O'zbekistonda ham zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda<sup>21</sup>.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Eng qadimgi davrdan boshlab, islom va

<sup>21</sup><https://president.uz/uz/lists/view/2820> (23.08.2019).



islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlar, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analar, qadriyatlar hamda xalq pelagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunnig muhim va dolzarb muammosidir. Istiqlolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Ovrupa pedagogikasini asos qilindi, o'rganildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi benihoyat ahamiyatli vazifa bo'lib qoldi.

1991 yilga kelib O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o'zining yangi milliy Qomusi asosida hamma sohada bo'lganidek, o'zbek milliy fani va madaniyatiga ham yangicha yondoshish imkoniyati tug'ildi. Bu imkoniyat shaxsga beriladigan tarbiyani turli zamon va makonlarda qanday xarakter kasb etganligini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqardi. Zero, bunday qiyosiy tahlil milliy tarbiyaning izchilligini, tamoyillarini, mazmunini, usullarini, vositalarini belgilashning tarixiy pedagogik manbalarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

**1.Avesto.** Eramizdan oldingi IX asrdan IV asrgacha davrda hozirgi O'zbekiston hududida tuzilgan ijtimoiy tarbiyaviy majmua bo'lgan "Avesto" asari axloqiy uchlik tamoyiliga qurilgan. Asarning hajman eng katta qismi - "Yasna"larda inson kamolotini belgilovchi axloq-odob mezoni uchlik - Humata (manbalarda Gumata, Humata) – yaxshi fikr, Hukta ( manbalarda Gukta, Huckta) – yaxshi so'z va Hvarsha (manbalarda Gvarsha, Hwarsha) – yaxshi ishlar birligida ifodalanadi. "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman" ("Yasna", 14-bob), deyiladi asarda.

**2.Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklar.** Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan biri sanalgan "Irq bitigi" ("Ta'birnoma") ham Urxun-Yenisey yodgorliklari ta'lim-tarbiya tarixida o'z o'rniga ega. Asarda ilgari surilayotgan fikrlarda yaxshilikning yomonlik, ezgulikning yovuzlik ustidan erishilajak g'alabasi borasidagi qarashlarning yetakchi o'rin egallagan. Xalq doimo o'z kelajagining

yaxshi bo'lishiga ishongan, yomonlik ustidan yaxshilik, ezgulikning g'olib kelishiga bo'lgan ishonch yetakchi o'rin tutgan. "Irq bitigi" ("Ta'birnoma") asarining mazmunida asosan inson va uning qayg'usi, hasrati, dardi, quvonchi, shodligi yotadi. Yaxshi hayotga yetishish yo'lida olib borilgan kurash jarayonida yomonlik, yovuzlik mahv etiladi, uning ustidan yaxshilik, ezgulik g'olib keladi. Yaxshi xislatlarning egasi, yaxshilik va ezgulikni qaror toptiruvchi mavjudot inson sanaladi.

**3. Shariat.** Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan, Qur'oni karim asosida ishlab chiqilgan, jinoiy, fuqarolik va axloq odob-qoidalari majmui. Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi: bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash; so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiriladi. Islom va uning asosiy ta'limoti mujassamlashgan Qur'oni Karim insonda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**4. So'fiylik ta'limoti.** Mazkur ta'limot VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo'lib, butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So'fiylik butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. So'fiylik ta'limotida komil inson – bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. So'fiylar ilohiy poklik, nafosat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni balo-qazolardan asraydi, ularni avaylab asraydi deb bilganlar. Ular mazkur g'oyalarga muvofiq hamda ularga amal qilgan holda haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil insonning shakllanishi – bu ularning ideali, orzusi bo'lgan. Shunday bo'lsada, ular komil, yetuk va ma'rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta'maga qarshi kurashganlar.

**5. Sharq Uyg'onish davri.** Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va



adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar oʻz ilmiy merosida taʼlimiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta eʼtibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan gʻoyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega boʻldi. Shuningdek, Sharq uygʻonish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, taʼlim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida oʻlmas taʼlimoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

«*Munosib inson*»ni yetishtirish. Abu Nasr Forobiy (873 950). «Munosib inson» boʻlish uchun inson boshqalar bilan aloqada boʻlish, ularning koʻmaklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj boʻladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, oʻqituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni oʻzicha bila olmaydi. Unga buning uchun oʻqituvchi lozim. Bunga Forobiy taʼlim – tarbiyani toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan taʼlim – tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini toʻgʻri bilib oladi va hayotda toʻgʻri yoʻl tutadi, boshqalar bilan toʻgʻri munosabatda boʻladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.

**Abu ali ibn Sino** kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan maʼrifatni egallashga daʼvat etadi. Olimning bolani tarbiyalash va oʻqitish sohasidagi fikrlari chuqurligi, insonparvarligi va tarbiya masalalarining murakkabligi bilan hayratda qoldiradi. Ibn Sino oʻz tarbiya sistemasiga oʻrta asr "yetti ozod sanʼat" sistemasidan farq qiladigan: odob, astronomiya, tibbiyot, mantiq, falsafa, tabiatshunoslik, til va uning grammatikasi, musulmonqonunshunosligi fanlarini kiritadi. Ibn Sino tavsiya qilgan tarbiya va taʼlim oʻz ichiga quyidagilarni oladi: aqliy tarbiya; jismoniy sogʻlomlashtirish (davolash ham shunga

xizmat qiladi) hamda estetik tarbiya. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi.

**Qobusnoma.** Unsurmaoliy Kaykovus mazkur asarining so'nggi bobini juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus unda "... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim"<sup>1</sup>, deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'lagan holda kamolga yetkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kaykovus juvonmardlar bilimli bo'lishi bilan birga, hunar va kasb egasi bo'lishi, turmush va xulq-odob qoidalari o'zlashtirishi hamda jismoniy jihatdan yetuk bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi.

**6. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr.** Bu davr tarixda Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb nom oldi. Bu davr madaniyati o'z tamoyillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madaniyatining davomi sanaladi. Shu bois XIV asr oxiri va XV asrlarda Movarounnahrdagi Sharq Uyg'onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga havas kuchaydi.

Madrasalar ochilib, ular ma'lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muhammad Sulton

<sup>1</sup> Кайковус. Қобуснома. 159-бет.



madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning hammasida Qur'on, Hadis, fiqh o'rganilgan. Shuningdek madrasalarning ixtisosligiga ko'ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma'muriyalar ham o'rgatilgani haqida ma'lumotlar bor. Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o'rgatishga ko'proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" va boshqalar ham o'qitilgan.

**Alisher Navoiy.** Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlar mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga ilm-fanga nisbatan muhabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo'la olgan insongina o'z kuchi hamda aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu zakovatiga qattiq ishona olgan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni ham yechimini topa olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson ahamiyatini yoritir ekan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi.

Mutafakkir "Mahbub-ul-qulub" asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: "Har ko'cha-ko'yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman. Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko'rdim. Xasislar va karamlar yetkazgan yara va bergan malhamni ko'nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba'zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do'stlar bu hollardan xabarsiz va ko'ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir...

**7. Jadidchilik (Usuli savtiya).** Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, maorifida taraqqiyparvar oqim. Islom dinining rolini

saqlab qolgan holda, musulmon maktablarida dunyoviy fanlarni ham ona tilida o'qitishga, turkiy xalqlarni ilm-ma'rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan tenglashtirishga ilk harakatlar qilindi. Bu harakatlarning shiori: yangi usulda ta'lim va tarbiyani Ovrupo sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovrupo sivilizatsiyasini o'rganib, milliy madaniyatga xizmat ettirish edi.

**8. Mustaqillik davrida milliy tarbiya.** Davlat milliy tarbiyani yuksaltirishning tashabbuskori va bosh islohotchisi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq kolonial maktablarni birdaniga isloh qilish mumkin bo'lmaganligi tufayli mavjud ta'lim tizimlarini saqlab qolgan holda, avvalo, tarbiyaviy jarayonni milliy asosga qurish boshlandi. 1992 yilda birinchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Qonun, avvalo, milliy ta'lim tizimida mavjud ijobiy jihatlarni, istiqlol davrida jamiyatni ma'rifiy va ta'lim-tarbiyaviy bo'shliqdan omon saqlab qolishga xizmat qildi. Milliy istiqlol taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasida yanada jiddiy yangilanishlarni taqozo etishi natijasi o'laroq 1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ana shu Qonuning mantiqiy – amaliy davomi sifatida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ishlab chiqildi. Milliy dastur bevosita Qonuning ijrosi, shakli, vositasi hamda usullarining yig'ma majmui bo'lib, ular yaxlit holda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari, tamoyillarini, talab va maqsadlarini, muammo yechimi bilan bog'liq rejalar belgilandi hamda hayotga tatbiq etildi.

**9. Yangilanayotgan O'zbekistonda milliy tarbiya masalalari.** Yangilangan ijtimoiy ong pedagogik tafakkurning sog'lomlashishiga olib keldi. Bu hol milliy tarbiya fanining jahon andozalariga muvofiq rivojlanishini taqozo etdi va uning mazmun mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Tarbiyashunoslik insoniylashdi, milliy tarbiya asoslari fani markaziga **tarbiyalanuvchi shaxs – inson chiqarildi.** Endilikda, yangilangan pedagogik fikrlar uchun ta'lim va tarbiya jarayoniga tortilgan shaxs egallagan bilimlar hajmi emas, balki unda qanday ma'naviy-fazilatlar shakllantirilishi muhim masalaga aylandi. Shu asnoda shaxs kamolotida ilk bora bilim emas, ma'naviyat, ta'lim emas, tarbiya muhim ekanligini



hisobga olib ish ko'rish zaruriyati paydo bo'ldi. Davlat uchun ham va jamiyat uchun ham, tarbiyalanuvchi shaxsi bosh qadriyatga, uni imkoni boricha barkamol inson qilib shakllantirish bosh maqsadga aylandi.

Turli zamon va makonda yaratilgan tarbiya konsepsiyalari tahliliga asoslanib quyidagi xulosalarimizni keltiramiz: azaldan sharqona milliy tarbiyada ta'limdan, tarbiyalanganlik bilimlilikdan ustun qo'yilgan barcha makon va zamonlarda yaratilgan tarbiya yo'riqnomalari milliy tarbiyaning ayrim qirralari hisobiga to'ldirilib, boyitilib borilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"<sup>22</sup> ham o'zidan oldin mavjud bo'lgan konsepsiyalarni to'ldirib, ularning eng yaxshi qirralaridan foydalanganligi Yangilanayotgan O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

***Milliy tarbiya ko'rsatkichlari va mezonlari.*** Ma'lumki, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosi yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish ta'lim berishdir<sup>23</sup>. Ma'lumki, milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy-mafkuraviy ong, odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantirishdir<sup>24</sup>.

Milliy tarbiyalanganlik mezonlarini belgilashda o'zbek xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi hamda yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo'lmish shaxsning ijobiy sifatleri: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, imon-e'tiqod, milliy istiqloq mafkuraviy ongini rivojlantirishga qaratish zarur. Ularning aksi bo'lgan salbiy sifatler: milliy befarqlik, vatanfurushtlik, hoyinlik, manqurtlik, millatchilik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga nafrat uyg'otish darkor. Milliy tarbiya

---

<sup>22</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 1059-son Qarori.

<sup>23</sup> O'sha manbaa.

<sup>24</sup> Йўлдошев Ж.Ф. Таълим янгиланиш йўлида. Тошкент. "Ўқитувчи" 2000, 1446

mezonlarini belgilashda o'quvchilarning yosh, aqliy imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Quyida tarbiyalanuvchining milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari va mezonlarining tahminiy namunasini keltiramiz.

**Vatanparvarlik.** Vatanparvarlik barcha insonlar, millatlar, xalqlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o'z vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va buguni bilan faxrlanishda, kelajagi uchun qayg'urish va daxldorlikda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

*Vatanparvarlik – vatanga muhabbat va sadoqat, vatan uchun xizmat qilish va bu yo'lda butun umrini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo'lsa, o'z jonini ham fido qilish demakdir.*

**O'zbekiston vatanparvarligi** O'zbekistonni yagona Vatan sifatida bilish va sevish: uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik, O'zbekiston tarixini, madaniy merosini hurmat qilish, unga qiziqish, istiqpolga sadoqat, O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonch, respublika manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, mahalliy, hududiy manfaatlardan ustunligini anglash va namoyon qilish demakdir<sup>25</sup>. O'zbekiston vatanparvarligi O'zbekistonning tabiiy, ma'naviy, jug'roflya va milliy xususiyatini anglash, o'lkaning o'tmishi, hozirgi hayot va kelajagi haqida tushunchalarga ega bo'lish, O'zbekistonning, o'zbek xalqining qahramon farzandlarining xizmatlarini bilish, O'zbekiston Davlat ramzlarini bilishda namoyon bo'ladi.

**Milliy g'urur.** Milliy g'urur va milliy ongni uyg'otish hamda shakllantirish insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. O'zlikni anglash esa butun borliqni, hayot va abadiyatning tub mohiyatini anglashga yo'l ochadi, milliy g'urur o'z yurtining tarixini bilish,

<sup>25</sup> Куронов М. Миллий тарбия. Тошкент. "Маънавият". 2007й.



xalqning madaniy merosini himoya qilish va uni avaylab-asrab kelajak avlodlarga yetkazish, milliy qadriyatlarni tiklash, shu yo'l bilan millat va vatan taraqqiyotiga xizmat qilish bilan belgilanadi<sup>26</sup>.

*Milliy g'urur. "Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglash natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan madaniy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissiyotidir<sup>1</sup>".*

Milliy g'ururi baland inson adolatsizlikka, nohaqliklarga, subutsizlikka, yolg'onga, aldamchilikka, milliy kamsitilishga, millat va Vatan xoinlariga, xiyonatga, obro'-e'tiborining toptalishiga nisbatan murosasiz bo'ladi. G'ururi baland inson laganbardorlik, manmanlik kabi illatlarga bosh egmaydi, ezgu a'mollari yo'lida kerak bo'lsa, jonini ham fido qiladiki, lekin o'zgalarga ozor bermaydi, sotqinlik, diyonatsizlik, nodonlik qilmaydi. Milliy g'urur tushunchasi insoniyatning o'zi kabi ko'hnadir. To'maris va Shiroq afsonalari - yu O'rxun-Enasoy yodnomalari, Aristotel, Suqrot, Aflotun kabi qadimgi yunon mutafakkirlari-yu Gegel, Lessing singari buyuk nemis olimlari asarlarigacha turli manbalarda milliy g'urur tarbiyasiga doir turlicha qarashlarni uchratish mumkin.

Sharq va G'arb ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida milliy g'urur tushunchasi turli tarixiy davrda turlicha talqin qilinganligiga qaramasdan, ularning zamirida vatanparvarlik, insonparvarlik, boshqa xalqlarning milliy e'tiqodlari va urf-odatlariga hurmat bilan qarash kabi mushtaraklik mujassamdir. Jumladan, vatanparvarlik, g'urur, iftixor tuyg'ulari bilan bog'liq milliy va umuminsoniy qadriyatlar Aristotel, Suqrot, Aflotun kabi qadimgi yunon olimlari qarashlarida qanchalik ulug'langan bo'lsa, Al Buxoriy, at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy,

---

<sup>26</sup>Вохидова Н.Х. Бошланғич синф ўқувчиларида халқ оғзаки ижоди асосида миллий ғурурни тарбиялаш. 13.00.01 - Педагогика назарияси ва тарихи ихтисослиги бўйича педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2011й.

Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlar tomonidan ham shu qadar e'zozlanganini ko'rish mumkin.

Eramizdan oldin yashagan yunon olimi Aristotel "Vatan sha'niga" asarida: "Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shunday: o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi, o'z vatanini sevmagan kishi o'zgalari vatanini qadrlamaydi", - degan bo'lsa, hadisi sharifda: "Vatanni sevmoq - imondandir" - degan g'oya ilgari surilib, vatanni sevish va uni ardoqlash oliy qadriyat sifatida tilga olinadi. Beruniy "Minerologiya" asarida bir grek donishmandining fikrini keltirib, g'urur tushunchasiga kengroq miqyosda yondashadi: "Kimda kim o'z o'tmish avlodlari bilan g'ururlansa, o'sha avlodlar tirik, uning o'zi esa o'likdir... agar kishi o'zini o'zi yuksaklikka ko'tarmasa, ulug' o'lik suyaklar unga g'urur boisi bo'lolmaydi"<sup>27</sup>.

Biz - g'ururi baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha - bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak. Negaki, g'ururi baland xalqning qadr-qimmatini ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli buladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin<sup>28</sup>.

Demak, milliy g'urur o'z xalqi ning bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlarini, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir. Shu bilan birga, milliy g'urur millatining moddiy va ma'naviy meroslari, xalqi, ona yurti bilan faxrlanishi, millat psixologiyasiga oid qarashlar, munosabatlar demakdir. U insonni tug'ilib o'sgan, kindik qoni tomgan yurtini ulug'lashda, uning o'tmishi, buguni, kelajagi uchun qayg'urish va faxrlanishdir.

<sup>27</sup>Абу Райхон Беруний. Минерология. Танланган асарлар, 1-жилд. - Тошкент: Фан, 1968.- 488 б.

<sup>28</sup>Mirziyoev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir. Tasvir nashriyot uyi. Toshkent.2021y. - 36 6



**Millatlararo muloqot madaniyati**<sup>29</sup>. Shaxslar, millatlararo muloqot madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Muloqot, aslini olganda ikki kishi (millat vakili) yoki bir kishi (murabbiy, oqsaqol, siyosiy rahbar, lider...) va muayyan bir guruh (o'quvchilar, talabalar, korxonalar yoki tashkilot ishchilari, aholi...) o'rtasida tushuntirish, o'rgatish yoki fikr almashish maqsadida yuzaga keladigan ochiq (yuzma-yuz) uchrashuv yoki suhbatdan iboratdir. Millatlararo muloqotga quyidagi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi: davlat, viloyat, respublika, viloyat, viloyat yoki tumanning etnodemografik xususiyatlari; xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning tabiati (do'stona, neytral, ziddiyatli); xalqlarning tarixiy taqdiri, madaniyati va tillarida umumiy va maxsus xususiyatlarning mavjudligi; ayrim xalqlar vakillarining etnopsixologik "mos kelishi"; mamlakat, viloyat, tumanning diniy va konfessiyaviy xususiyatlari; odamlarning yosh xususiyatlari va individual psixologik fazilatlari.

*Millatlararo muloqot madaniyati o'quvchining milliy va baynalminal ongining uyg'unlik darajasi bo'lib, boshqa millat bolalari, ularning madaniyati bilan bevosita yoki bilvosita muloqotda aniq namoyon bo'ladi. Bu fazilat boshqa millatlarning an'analari, tili, milliy tuyg'ulariga, qadriyatlariga samimiy hurmat, e'zozli munosabatda ko'zga tashlanadi.*

Millatlararo muloqot madaniyatining ko'pgina elementlari umumiy xulq-atvor madaniyati normalariga mos keladi va shuning uchun axloqiy kategoriyalardir. Millatlararo muloqot madaniyati ongda aks etish va jamiyat hayotida yuqori darajadagi rivojlanishning namoyon bo'lish shaklidir. Bu o'ziga xos prizma bo'lib, u orqali sub'ekt millatlar, millatlar va elatlarning rivojlanishi, gullab-yashnashi va yaqinlashuvining barcha jarayonlarini idrok etadi. Odamlar o'rtasidagi millatlararo muloqot madaniyatining "vektori" ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyil sifatida internatsionalizmdir.

---

<sup>29</sup>Куронов М. Миллий тарбия. Тошкент. "Маънавият". 2007 й.

Ma'lumki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 136 ta millat va elat vakillari hamda 15 ta diniy konfessiya vakillari yashaydi. Millatlararo totuvlik g'oyasi-umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, shu joyda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib etmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. 136 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Bu holat o'quvchilarga beriladigan milliy tarbiyani baynalminallik tarbiyasi bilan uyg'un ravishda amalga oshirishni taqozo etadi.

**Milliy odob.** Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofiklik va go'zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm-xayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singlarlar)ni o'z ichiga oladi. Insonning diniy e'tiqodi uning odobli bo'lib kamol topishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Odob ta'lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

*Odob (arabcha — „adab“ so'zining ko'pligi) — jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi hisoblanib, shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar bilan munosabat (oil, mehnat*



*jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi.*

**Milliy ong** va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish zamirida sodir bo'ladi. Milliy ong va uni anglash har bir odamdan o'zining qaysi millatga mansubligini, o'z milliy tarixi, madaniyati, merosi, urf-odatlarini, tilini turi, har taraflama chuqur bilishni talab etadi.

**Milliy odob**, avval salomlashib, keyin so'z boshlash, o'zbek xalqida, „yaxshi“, „yomon“ deb baholanuvchi xulq namunalarini bilish, barchani „siz“lash, o'zidan katta va kichiklarni izzatlash, do'stlik burchlarini bilish, ustozlarni e'zozlash munosabati, uyat so'z, so'kinishga, odobsizlikka salbiy munosabat bildirishdir.

«Assalomu aleykum» so'zini dunyoning 40 dan ortiq mamlakatida rasmiy salomlashish jumlasini hisoblanadi. Undan 500 dan ortiq millat va elatlar foydalanadilar. Bu dunyo xalqlari madaniyatiga islom dinining kirib borishi bilan bog'liq. Rus tilidagi «Zdravstvuyte» so'zining ma'nosi ham «zdorove» so'zidan olingan bo'lib, «salomat bo'ling» ma'nosini bildiradi. Slyavyan xalqlarining salomlashish odobi ham salomatlik, tinchlik-omonlik tilash orqali ifodalanadi.

### ***Salomlashish odobining asosiy 7 ta qoidasi.***

**1-odob qoidasi. Salomlashishda, eng avvalo, «Assalomu aleykum» va «Va aleykum assalom» so'zlari to'liq talaffuz etilishi shart.** Uni qisqartirish, buzib talaffuz qilish odob qoidalariga, uning asl ma'no-mantig'iga zid. Malalan, «salom» so'zining o'zi «tinch», «salomat» ma'nosida yangrab, undan «sizga tilayman» ma'nosi tushib qolishi mumkin. Bundan tashqari, «yaxshimisiz» so'zi hech qachon «Assalomu aleykum» so'zining o'rnini bosa olmaydi.

**2-odob qoidasi. Salomlashishda, avval yoshi kichik kishi o'zidan yoshi katta kishiga salom beradi. Biroq u birinchi bo'lib qo'l uzatmaydi.** Er-xotin o'rtasidagi salomlashish odobida ham avval xonadon bekasi oila boshlig'iga salom berishi lozim. Farzandlar ota-onasiga, aka-opasiga, xuddi shunday, o'quvchilar o'qituvchisiga birinchi bo'lib salom berishlari shart.

Salomlashishda qo'l uzatib ko'rishish odobi buning teskarisi. Yoshi katta kishi qo'l uzatmaguncha, kichik yoshdagi kishi qo'l cho'zmaydi. Buni hammamiz bilamiz. Lekin nima uchun aynan shunday ekanligini bilasizmi? Bu narsa kishilik jamiyatida asrlar davomida bir qolipga tushib, bora-bora oltin qoidaga aylangan. Negaki, ushbu qoidaning psixologik tomoni mavjud. Muloqotdagi ustunlik, ya'ni mavqe ana shunda belgilab olinadi. Muloqotda yoshi ulug', demak, tajribaliroq kishining ustun kelishi anchayin samarali. Qisqasi, hurmat ko'rsatilgandan so'ng izzat qilinadi. E'tibor bergan bo'lsangiz, rahbarga uning qo'l ostidagilari birinchi bo'lib salom berishadi. Suhbat, ya'ni muloqotning qolgan qismidagi ustunlik ham uning birinchi ko'rinishi, ya'ni salom berishdagi navbatga qarab davom etadi. Bu yerda, albatta, yosh ko'rsatkichi ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin. Bu narsa nafaqat ikkinchi, hatto navbatdagi uchinchi qoidaga ham zid. Demak, rahbar yoshi undan katta va kichik xodimlariga birinchi bo'lib salom berishi — odob belgisi hisoblanadi. Bu yoshi kichikning yoshi kattaga yuzlanib salom berishi bilan barobar narsa. Bosh qimirlatib qo'yish, qosh qoqish, pichirlab qo'yish, kiprik qoqib bir qarab qo'yish — na salom berish va na alik olishga yaraydi. Bunday salomlashish ojizlik, takabburlik belgisi!

**3-odob qoidasi. Ko'pchilik bo'lgan joyga kelgan bir kishi, uning mavqeyi yoki yoshidan qat'iy nazar, birinchi bo'lib salom berishi kerak.** Bu qoidaning o'ziga xos afzallik tomonlari bor. Uning mantig'i ham shunda. Birinchidan, bunday salomlashish qisqa vaqt talab etadi va yig'ilib turganlarning e'tiborini baravariga jalb etadi. Buning aksi esa, salomlashishda ayrim noqulayliklar, uzoq davom etadigan so'rashishlarga olib keladi. Xuddi shu qoida ichiga qo'l uzatib ko'rishishning ham ayrim talablari kiradi. Bir kishi iloji boricha ko'pchilik bilan qo'l berib ko'rishishi shart emas. Ko'pchilik ularning davrasiga qo'shilayotgan yolg'iz kishi bilan qo'l berib so'rashish istagini bildirsa, bu boshqa gap. Davraga eng oxiri qo'shilgan kishi ular bilan shoshmasdan qo'l berib ko'rishib chiqishi mumkin. Biroq bu vaqt va amaliyot jihatidan noqulaylik tug'diradi. Ushbu qoida ayrim hollarda ikkinchi qoidaga zid-ku, deyishingiz mumkin. Masalan, sinf xonasida. Dars boshlanishidan



oldin o'qituvchi va o'quvchilarning salomlashishida. Bu vaziyatda ikkinchi qoida ustunlik qiladi. O'quv binosi ichi yoki tashqarisida, ko'cha-kuyda albatta o'quvchilar o'qituvchisiga birinchi bo'lib salom beradi. Darsga shay, o'z joyini egallagan o'quvchilarning o'qituvchi kirib kelganda o'rnilaridan turib hurmat ko'rsatlari (baravariga jo'r bo'lib salom berishlari) kifoya. O'qituvchi o'quvchilari salomiga alik olib darsni boshlashi mumkin. Bu o'rinda salomlashayotgan shaxslarning soni emas, mavqeyi odob ustunligida bo'ladi.

**4-odob qoidasi. Salom beruvchi va alik oluvchilarning soni va yoshidan qat'iy nazar, namoz o'qiyotgan odamga salom bermay turiladi.** Dunyoning turli dinlarida e'tiqod qilish, uning amallarini bajarish qoidalari turlicha. Musulmonlar olamida namoz o'qiladi, nasroniylar cho'qinadi va hokazo... Muhimi, bunday paytda kishi chuqur ruhiy holatda, ya'ni ma'lum ma'nodagi yolg'izlikda, yakdillikda, iltijoda bo'ladi. Namoz paytida ham namozxon o'z atrofidagi voqea-hodisalarni, g'am-tashvishlarini bir zumga unutib, Yaratganga sajda qiladi. Bu paytda qo'qisdan salom berish, nafaqat salom berish, shovqin solish, ovoz chiqarish — odobsizlik sanaladi. Aslida bir kunda ikki marta salom berilmaydi. Biroq namozdan so'ng kun davomida yana qayta salomlashish mumkin. Namoz o'qib bo'lgan kishiga salom berish yoki uning salomiga alik olish farz, o'zbekona odobning fazilatlaridan biri. Xuddi shu qoida diqqat bilan kitob o'qiyotgan, qog'ozga yoki kompyuter qarshisida nimanidir yozayotgan kishilarga ham taalluqli. Mutolaa va yozuv bilan band kishi bir zumga chalg'ib, siz tomonga qarab qo'ygandagina u bilan salomlashish mumkin. Qur'on mutolaasida bo'lgan yoki uning suralarini ovoz chiqarib o'qiyotgan, tilovat qilayotgan kishilarga salom bermay turishni ham mazkur qoida doirasida.

**5-odob qoidasi. Yuz-qo'li yuvilmagan yoxud tahorati buzilgan kishilar bilan salomlashmay turiladi.** Kishilik jamiyatida ming yillar davomida sayqallanib, qat'iy bir qoidalarga aylangan shaxsiy gigiyena qoidalari mavjud. Uyqudan uyg'onib, yuz-qo'lini yuvmagan kishiga yoki yuz-qo'lini yuvib, aft-angorini

odatiy qiyofaga keltirmagan kishi — salomlashishi noto'g'ri. Bu qoidaning etik va estetik ildizlari ham mavjud. Ma'lumki, kishi uyquga ketganda sochlari to'zg'igan, yuz-ko'zlari shishgan, terisiga turli toshmalar toshgan bo'lishi mumkin. Kishi yuzini, tishini yuvayotib oynaga qaraydi, uyqu alomatlarini yengib tetiklashadi va o'zining qanday ko'rinishda ekanligini to'liq anglaydi. Egnidagi kiyimi, soch turmagi, soch-soqoliga razm soladi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etadi. Mabodo o'zining tashqi ko'rinishidan bexabar bo'lib, salomlashguday bo'lsa, keyin buni bilib qolgach noqulay ahvolga tushishi mumkin. Xuddi shunday, tahorati buzilgan kishilarning ham salomlashishi odobdan emas. Yuzi yuzilmagan, tashqi ko'rinishi epaqayga keltirilmagan, uyqu kiyimida yurgan, u yoki bu sabablarga ko'ra tahorati buzilgan kishi boshqa bir kishining ro'parasidan chiqudek bo'lsa, har ikki tomon ham yerga qarab indamay o'tib ketishlari, noqulayliklar bartaraf etilgandan so'ng ochiqchehra bilan salomlashlari — odob belgisi hisoblanadi.

**6-odob qoidasi. Xojatxona va hammomda umuman salomlashilmaydi.** Odamning turli biologik ehtiyojlari mavjud. Har bir inson tug'iladi, o'ladi, kasal bo'ladi, ovqat yeydi, qusadi, xojatxonaga kiradi, soch oldiradi, tirnog'ini kalta qiladi, yig'laydi, kuladi, jinsiy hayot qoidalariga bo'ysunadi, hammomda cho'miladi va hokazo. Xojatxona va hammomda, jamoat hammomlarida salom berish — odobsizlik!

**7-odob qoidasi. Qabristonda, xususan qabriston eshigi ostonasida va yaqin insonning qabri tepasida marhumlar haqqiga salom beriladi.** Bu odob qoidasi quloqqa g'alati eshinishi rost. Negaki marhumlarning mavjudlik ko'rsatkichi nolga teng. Biroq ularning xoki-poyi, ruhi yodi hamisha mavjud. Bu yerdagi salom berish odobi - marhumlarga hurmat belgisi sanaladi.

**Umumiy qoidalar.** Yuqoridagi 7 ta salomlashish qoidalaridan ma'lum bo'ldiki, insonlar har kuni bir-birlariga sog'lik, tinchlik, omonlik, yaxshilik, ezgulik, to'kinlik va ravnaq tilashlari zarur va shart ekan. Salomlashishda kishi qay ruhiy holatda bo'lmasin, qo'lini ko'ksiga qo'yib, labiga nimtabassum yugurtirib salom berishi yoki alik olishi -madaniy hayotimizning dastlabki nishonasi.



Hatto boshqa millat vakillari bilan xorijiy tilda muloqotga kirishishdan oldin qo‘limiz ko‘ksimizda, o‘zbekona lutf bilan «Assalomu aleykum» deyishimiz - milliy g‘ururimiz nishonasi. Demak, salomlashish odobimiz -bu milliy madaniyat, o‘zaro hurmat-izzat, jamiyatimiz jipsligi.

**Vijdon** – axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o‘z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas‘uliyatni anglash. Buyuk faylasuf olim I.Kant vijdonga: “Dilimizda yashaydigan qonun vijdon deb ataladi. Vijdon esa aslida xatti-harakatlarimizning shu qonunga muvofiq kelishidir” deb ta’rif bergan. Vijdon shaxsning axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini nazorat qila olish, o‘zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o‘zidan uni ado etishni talab qilish va o‘z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Vijdon – chin haqiqat va axloqiy bokiralikdir.

**Milliy vijdoniylik. Milliy mafkuraviy onglilik** o‘quvchining yoshiga mos ravishda uning tafakkurida, xatti-harakatlarida, hayotiy maqsadida, munosabatlarida milliy istiqloq mafkurasi talablariga moslik, faollik darajasini ko‘rsatadi.

*Milliy vijdoniylik o‘quvchi xatti-harakatlarining o‘zi tomonidan ichki nazorat qilinishi, muayyan vaziyatda o‘z burch va huquqlarini o‘zi belgilab, o‘zi bajarishga shaxsiy mas‘uliyat tuyg‘usi, milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, milliy-mafkuraviy onglilikni talab qiluvchi vaziyatlarda bilim, so‘z va ish birligini ta‘minlovchi ichki ma‘naviy nazoratchidir (Quronov).*

Milliy ong – millatlar va elatlar hayotining o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, falsafiy, diniy qarashlar, xulq-atvor normalari, urf-odat va an’analar, qadriyat yo‘nalishlari va ideallari majmuidir. Milliy ong milliy va millatlararo munosabatlar qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. Milliy ongning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: atrofdagi dunyoni idrok etish va unga munosabat; milliy-

etnik mansublikni anglash; o'z milliy-etnik hamjamiyatining tarixi va madaniyatiga munosabat; boshqa millat va elat vakillariga munosabat; vatanparvarlik tuyg'ulari va vatanparvarlik o'ziga xosligi milliy-davlat hamjamiyatidan xabardorlik.

*Milliy ongning ikki darajasi mavjud:*

1) kundalik ong ko'p bosqichli, ko'p qirrali, qarama-qarshi va harakatchan shakllanish bo'lib, u milliy-etnik jamoa vakillarining ko'plab avlodlarining tabiiy-biologik va ijtimoiy rivojlanishi sintezi natijasidir. Kundalik ongning tuzilishiga quyidagilar kiradi: odamlarning milliy xarakterida namoyon bo'ladigan kundalik ehtiyojlar, qiziqishlar, qadriyatlar tizimi, munosabatlari, his-tuyg'ulari va kayfiyatlari va boshqalar; avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalqning ijtimoiy xotirasini kodlovchi va ular faoliyatining me'yori bo'luvchi urf-odat va an'analar;

2) nazariy ong – millatning hayot yo'li, taraqqiyotining o'rni va maqsadlari haqidagi umumlashtirilgan, ilmiy asoslangan, ijtimoiy-siyosiy yo'naltirilgan qarashlar tizimi.

Nazariy ongning tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: muayyan milliy-etnik hamjamiyat vakillarining xulq-atvor normalari, qadriyatlari va namunalari; millat mafkurasi; milliy g'oya. Mazmun jihatidan milliy ong umuminsoniylik va milliylikning dialektik birligi bo'lib, unda umuminsoniylik millatning o'ziga xos mavjudligida namoyon bo'ladi. Milliy ongning asosini milliy o'zlikni anglash tashkil etadi.

O'zbekiston vatanparvarligi, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, milliy vijdoniylik, milliy mafkuraviy onglilik kabi milliy tarbiya ko'rsatkichlarini o'quvchilar o'zlashtirishlarini sinflar kesimida quyidagicha ko'rish mumkin.

1-bosqich (I-IV sinflar) – vatanni anglash, milliy g'urur asoslari, milliy odob, vijdoniylik, milliy mafkuraviy dunyoqarash asoslari.

2-bosqich (V-IX sinflar) – vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy odob, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik.

3-bosqich (IX- XI sinflar) – O'zbekiston vatanparvarligi, milliy g'urur, milliy odob, vijdoniylik, milliy mafkuraviy onglilik.



Mazkur milliy ma'naviy tarbiya bosqichlari o'rtasida deyarli katta farq yo'q. Ularni birlashtirib turuvchi yetakchi g'oya – o'quvchilarda vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashga qaratilganligi bilan belgilanadi.

***Savol va topshiriqlar***

*1. Sharq mutafakkirlari qarashlarida tarbiya masalalarining ifodalanishi.*

*2. Milliy tarbiya ko'rsatkichlari va mezonlari.*

*3. Milliy tarbiyalanganlik mezonlari qaysilar, ularni ta'riflan, misollar keltiring.*

*4. Milliy tuyg'u, O'zbekiston vatanparvarligi, milliy mafkuraviy onglilik, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy g'urur va milliy odob kabi milliy tarbiyalanganlik mezonlarining "Tarbiya" darsliklariga singdirilganlik holatini o'rganib, tahlil eting. Tahlil etish asosida esse tayyorlang.*

## **MAVZU: O'ZBEK OILASIDAGI MILLIY TARBIYA MAZMUNI**

### **Reja**

1. Oila. Oila jamoasining o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari.
  1. O'zbekona tarbiyaning turli qirralari tarixiga qisqacha sharh.
  2. O'zbek oilasi – milliy dunyoqarash manbai sifatida.

*Tayanch so'zlar:* millat, milliy, insonparvarlik, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, pedagogik munosabat, axloqiy tarbiya, oila, maktab, mahalla, maqsad, vazifa, urf-odat, qadriyatlar, an'analar, erkin fikr, jismoniy rivojlanish, shaxs xususiyatlari, komil inson fazilatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «*Ijtimoiy pedagogika*» (darslik). . T. 2022.
3. B.S. Abdullayeva, A.U. Umarov, B.N. Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
4. Sh.S. Shodmonova, G.N. Ibragimova, F.O. Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*
5. *Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. Risola. – T.: 2015. – 72 b.*



**Oila. Oila jamoasining o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli<sup>30</sup>. Oila har bir farzandning qobiliyati, muomala madaniyati, dunyoqarashi shakllanadigan tarbiya maskani, inson ulg'ayib,**

<sup>30</sup><https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси.Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган.



kelajakda o'z o'rnini topadigan ijtimoiy institut. Oila – insoniyatning betakror, bebaho, yorug' va nurli olami, tabiatning tengi yo'q, beadam va cheksiz iftixor tuyg'ulari mujassamlashgan shoh asari, o'qiganing sayin o'qiging kelaveradigan, kuylagan sari kuylashga arziydigan mazmun va mohiyatga ega jamoadir. Oila insoniyatning umrguzaronligi birga o'tadigan, beg'ubor rohat-farog'atlar, dilkashliklar, g'amxo'rliklar, shodu xurramlik va ayni mahalda g'am-anduhlar, tashvishu ko'ngilsizliklar, iztirob va yo'qotishlarni birga kechiradigan, halovatli va halovatsiz damlarning o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

“Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkamlanadi<sup>31</sup>”. Shuningdek, oila yuraklarning siru sinoatlari jamuljam olam, insoniy mayllar tutashadigan go'sha, insoniy xatti-harakatlar va intilishlar toblanadigan, shakllanadigan, qadriyatlar, hikmatlar va donoliklar, jasorat, qahramonliklar kamol topadigan xazinalar maskanidir.

Oila birinchi navbatda bu - ota-ona. Aynan ular har bir bolaning hayotida asosiy rol o'ynaydi, porloq kelajakka yo'llanma beradi, unga mehr-oqibat, insonparvarlik, xushmuomalalikni tarbiyalaydi, hamdardlikni rivojlantirishga yordam beradi. Oila - birodarlar va opa-singillar rivojlanishga muhim ta'sir ko'rsatuvchi maskan. Oila - keksalar uchun hissiy xavfsizlik, qulaylik hissini beruvchi maskan. Oila - kichkintoylar uchun g'amxo'rlik, homiylik, xayrixohlikni namoyon etuvchi, e'tibor beradi, yordam beradi, insonparvarlikni namoyish etadi, xavfsizlik, sevgi va iliqlik hissini beradi. Inson hayotida oilaning qadri cheksizdir.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir<sup>32</sup>. Insonni oiladan, oilani jamiyatdan ayricha tasavvur etish qiyin. Oila farzandlar tarbiyasi va kelajagi uchun ma'suldir. Zero, inson tabiati va dunyoqarashidagi barcha yaxshi

<sup>31</sup> Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – 200 б. 42-б

<sup>32</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 67модда.

xislatlar, avvalo, oilada kurtak yozadi. Do'stlar bilan suhbatlashganimizda birinchi galda oila va farzandlar haqida so'z ochilishi ham shundan. O'zaro suhbatlarda «Bola-chaqa omonmi, shularning baxti deb yashab yuribmiz», degan gap-so'zlar quloqqa chalinadi. Darhaqiqat, o'zbek xalqining asosiy fazilatlari farzandlar kamoli, ularning baxtu saodati yo'lida g'amxo'rlik qilishda ko'proq namoyon bo'ladi.

Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, ota-ona, aka-uka va boshqalarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

**Oila vazifasi** – er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash hamda jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash<sup>33</sup>.

### **Oilaning asosiy tarbiyaviy vazifalari:**

- milliy ongni shakllantirish, avlodlar ma'naviy birligini ta'minlash, ota-onaga, ona yurtga, o'z xalqi tarixiga hurmat va muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, fuqarolik alifbosini puxta egallash;

- bolaning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish, bolaning to'liq rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash (genotip)

- hissiy xavfsizlik, iliqlik, sevgi muhitini yaratish, bolaning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- axloqiy qadriyatlar, ideallar, madaniy an'analar, odamlar o'rtasidagi va jamoat muhitidagi munosabatlar me'yorlarini o'zlashtirish, xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash, rostgo'ylik, adolat, qadr-qimmat, or-nomus, insonparvarlik, kichiklarga g'amxo'rlik ko'rsatish, zaiflarga mehr-shafqat ko'rsatish qobiliyati. va qariyalar;

<sup>33</sup>Алқаров И., Маматкулова Р., Норкулов Х. Шахс ва оила тарбиясининг педагогикаси. Тошкент.2009,218б, 48-б



- bolani faoliyatga jalb qilish, mehnatsevarlikni rivojlantirish, atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish. Farzandlarni madaniyatli ustalar etib tarbiyalash, ularni bozor sharoitida hayotga tayyorlash;

- estetik ko'nikmalarni, kundalik hayotda go'zal va yaxshini, odamlarning harakatlarida go'zalni ajrata olish qobiliyatini shakllantirish; ona tabiatining go'zalligiga, san'at, rasm, adabiyot va musiqa asarlariga muhabbat uyg'otish; bolalarning individual qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish, ularning ijodiy amaliy faoliyati uchun sharoit yaratish; bolalarda go'zallik yaratish istagini uyg'otish; oilaviy an'analarni, oilaviy merosni saqlash, shajaraning ildizlarini o'rganish.

**Oila jamoasining o'ziga xos xususiyatlari:** oila kichik jamoa, ota-onalar va bolalar qon qarindoshlar; oila a'zolari o'rtasida byudjet, birgalikda yashash va uy-ro'zg'orni saqlash, har qanday mulkni sotib olish, moddiy qadriyat mavjud; umumiy bolalar; qonunda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega guruh.

#### **Oilaning funksiyalari**

1. **Reproduktiv funksiya.** Oila aholining ko'payishi hamda bolalar tug'ilishiga bo'lgan tabiiy ehtiyojni qondirishi kerak bo'ladi.

2. **Ta'limiy funksiya.** Oilaning bu vazifasi Konstitutsiyaning 77- moddasida: "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" deb belgilab qo'yilgan.

3. **Iqtisodiy funksiya.** Oila asosiy ehtiyojlarni - boshpana, oziq-ovqat va ichimliklar, kiyim-kechaklarni qondirishni ta'minlaydi. Kichik hamjamiyat a'zolari qo'shma uy xo'jaligini yuritadi, moddiy boylik va qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish uchun sotib oladi va to'playdi.

4. **Qayta tiklovchi funksiyasi.** Inson himoya, sevgi va g'amxo'rlikka muhtoj. Ushbu asosiy ehtiyojlardan qoniqmaslik jismoniy va psixologik kasalliklar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi, natijada depressiyalar, tajovuzlar va asabiy buzilishlar oilada ham, undan tashqarida ham paydo bo'ladi. Bu

ajralishga olib keladi, bolalar to'laqonli oilada o'smaydi. Hammasi oila a'zolariga bog'liq: agar umumiy ruh kuchli bo'lsa, yaqinlar hurmat qilsalar, bir-birlarini yaxshi ko'rsalar, qadrlasalar, yon berishsa, bo'sh vaqt va hayotni tashkil qila olsalar, ularning oilaviy kemasi hech qachon muammolar girdobiga tushmaydi.

***O'zbekona tarbiyaning turli qirralari tarixiga qisqacha sharh.*** O'zbek oilasi a'zolarning barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etadilar. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga axloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi. O'z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jarohat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar.

Sobiq O'zbekiston SSR iqtisod instituti tomonidan 1950 yili chop etilgan «O'zbekiston: iqtisodiy-jug'rofiy xarakteristika» kitobining 79-betida «1914 yili O'zbekiston territoriyasida 160 ta rus maktabi, bir necha o'nta musulmon maktabi bo'lib, ular ham diniy maktablar edi», deyiladi. Holbuki, musulmon maktablarining nazoratchisi I.F.Nalivkin XIX asrning 90-yillari boshida shaxsan o'tkazgan hisob-kitoblaridan kelib chiqib, butunlay boshqa ma'lumotni bergan: «Musulmon maktablarining soni kishida vahima uyg'otadi rasmiy ro'yxatlarda 500 ta, aslida esa taxminan — 1000 ta»<sup>34</sup>. Mazkur tahlillar, o'zbek oilasi a'zolarning katta qismi savodxon, ma'lumotli bo'lganligidan dalolatdir

UNESCO tashkilotining ta'kidlashicha<sup>35</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida mamlakat hukumati maktabgacha ta'lim muassasalari sonini to'rt barobar

<sup>34</sup>Записка Наливкина о мактабах Туркестана в 1894 г. ЦГИА Уз, ф.

<sup>35</sup> <https://qalampir.uz/news/unesco-uzbekiston>



ko'paytirishga erishdi. Aholi sonining tez o'sishiga qaramay, maktabgacha ta'lim va parvarish bilan qamrab olinish darajasi 2017 yildagi 24 foizdan 2021 yilda 62 foizga yetdi. UNESCO tavsiyasiga binoan, O'zbekiston hukumati so'nggi uch yilda oliy ta'lim muassasalari sonini ikki barobar oshirish va 2021 yilga kelib oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichini 28 foizgacha yetkazish bo'yicha amaliy choralar ko'rdi. Bu raqamni 2030 yilgacha 60 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Mamlakatda maktablarning yangi modeli — istiqbolli jahon tajribasidan olingan STEAM o'quv dasturiga ega prezidentlik, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Tashkilot 2020-yilda COVID-19 pandemiyasining maktab tizimiga salbiy ta'siriga qaramay, matematikadan 56 ta, kimyo va biologiyadan 28 ta, informatika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 14 ta shunday maktablar tashkil etilganini qayd etgan.

Shuningdek, mamlakatda xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ahamiyotga molik ishlar amalga oshirilib, muhim dasturlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev : «Yurtimizda xotin-qizlarning sifatli ta'lim va tarbiya olishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutafakkir jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, „Onalar — butun bashariyatning tarbiyachilaridir“. Darhaqiqat, oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi» deb, xotin qizlar ta'limining ahamiyatli ekanligini bildirdi.

Azaldan o'zbek qizlari tarbiyasi bilan onalar shug'ullanishgan. Farg'onada bundan bir asr ilgari o'zbek qizlari tarbiyasi qanday namoyon bo'lganligi haqida qiziqarli xotiralar bor. «O'zbek qizlari ilk yoshlardan boshlab o'z xatti-harakatlaridan xabardor, o'z-o'zini nazorat qila boshlaydi. Garchi u tez, yelib-yugurishni istasada, diniy adablilik unga shaxdam qadam tashlash, qo'llarini siltab yurishga yo'l qo'ymaydi.. Ana shu sipoyilik, vazminlik belgilari uning axloqiy «men»ining namoyon bo'lishida ham ko'rinib turadi. Ko'pchilik qizlarda o'z taassurotlarini nafislab va qosh harakatlari orqali bildirish ba'zi hollarda yuksak

mukammallik darajasiga ko'tarilgan». O'zbek oilalarida qizlarni milliy tarbiyalashning namunaviy misollari sifatida Abdulla Qodiriy tavsifidagi Kumush va Ra'nolarni keltirishning o'zi kifoyadir.

Bobolar hikmatini shoir E.Vohidov «Insofli odam bexosdan toyib ketsa, biror tayoq suqib, ey yo'lovchi, ehtiyot bo'l, bu yerda chuqur bor, ko'zingga qara» deya qilgan ishora — tayoqchaga; boshqalarni o'ylab ochilgan buloq, ekilgan daraxtga; o'zlaridan keyin keluvchilar ham imonli, ilm-ma'rifatli bo'lsinlar deb, ellar, yurtlar o'rtasida yaxshi bordi keldilar bo'lsin deb solingan masjid, madrasa, yo'l, ko'prik, karvonsaroylarga o'xshatadi. Shoir «o'zbekman» degan har bir insonning o'z yurti kechmishi va hozirini mukammal bilmog'ini, o'z ona tilining zargari bo'lmog'ini istaydi. Darhaqiqat, o'zbek xalqining asrlar davomida «yashash darsi»dan to'plangan boy tajribasi ko'plab maqollarda o'z aksini topgan. «Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tusi bor» deganlaridek, maqollarimiz xalqimizning turmushi, urf-odatlarini, an'analarini va eng muhimi — o'zbek bolasining qanday kishi bo'lishi va qanday bo'lmasligi kerakligi haqida ibrat va o'rnaklar jamlangan ma'naviy, madaniy merosdir.

Boshqa xalqlar qatori o'zbek oilalarida ham shunday tarbiyaviy an'analar borki, ularni tiklash, boyitish, zamonaviylashtirish, maktab tarbiyasi bilan uyg'unlashtirish, nafaqat har bir oila, balki butun O'zbekiston ijtimoiy madaniy hayotini ma'nan boyitishga yanada samaraliroq xizmat qila oladi. Qolaversa, mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida: «Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar»<sup>36</sup> deb ota-onaning bola tarbiyasi uchun davlat oldidagi javobgarliklarining qayd qilinishi;

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning yoshlarni o'qitish, tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz ekanligi haqidagi dasturiy fikrlari ota-onalar, mahallalar oldiga qator yangi, milliy istiqloliy

<sup>36</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 68-модда.



talablarni qo'yg'anligi bu masalaning ahamiyatini yanada oshirdi.

Tarixdan ma'lumki, VIII asr boshida Qutayba ibn Muslim buxoroliklarni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana eski dinlariga qaytgan edilar.

“To'rtinchi marta kelganida, Qutayba jang qilib, Buxoro shahrini oldi... Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab, ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab, buyruq chiqarishni to'g'ri topdi.

Va shu yo'l bilan u musulmonchilikni o'rgatdi... , - deb yozgan edi Narshaxiy<sup>37</sup>.

Xullas, arablar ahli Ajamni musulmonlashtirishni eng muhim omil-oilani musulmonlashtirishdan boshlagan. Natijada dastlab oila musulmonlashdi va keyinchalik Buxoroni “Qubbat ul – islom” - Islom dinining gumbaziga aylantirib, shuhratga burkadi. Ana shundan kelib chiqib, milliy tarbiya dastlab oiladan boshlanadi, keyinchalik mahalla, qishloq, shaharlar – O'zbekistonning butun hududida tez va soz joriy qilinishiga olib keldi.

Milliy o'zlikni chuqur anglanishi va yaratuvchanlik maqsadlariga yo'naltirilishida oilaning ulkan hissasi bor va bundan oilaning o'zi ham manfaatdor. Shuning uchun oila milliy o'zlikni anglashni tarbiyalashning ilk va doimiy omiliga aylantirilishi kerak. Chunki, har bir O'zbekistonlikning o'z ota-onasi, bobo-buvilari, katta bobo va katta buvi va h.k.larini yaxshi bilishi orqali davlat, xalq, millatimizning tarixiga daxldorlik eshigi ochiladi.

Oila tarbiyasi tarixidan shu narsa ma'lumki, “Mehnat qilish” tushunchasi tabiiy zarurat sifatida talqin qilingan, chunki oilalar ishlab chiqarish jamoalarini eslatar, bunda bolalar imkoniyatiga yarasha yumushni bajarar, birga mehnat qilar edilar.

Oilaviy mehnat oilaning mustahkamligi, bolalarni ulg'aytirish, ularda mehnatsevarlik, halollik, so'zi va ishi birlik kabi bebaho sifatlarni avloddan-avlodga tarbiya orqali o'tkazish vositasiga aylanib keldi.

---

<sup>37</sup> Самария /Тарихий эссе/. Таҳрир ҳайъати: Б.Аҳмедов ва бошқ. / - Т.: Камалак, 1991. –123 б.

**O'zbek oilasi - milliy dunyoqarash manbai sifatida.** Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni beqiyosdir. O'zbek oilasi o'g'il qizlarda milliy fe'l-atvor, husni xulq tarbiyasi manbai bo'lib keldi. Ota-onalar har kunlik, har soatlik, har daqiqalik tarbiyaviy muloqot jarayonida bolalarga xatti-harakatlar, yurish-turish, so'zlash, kulish, ovqat yeyish, yuvinish, muomala qilish, mezbon va mehmon munosabatlari me'yorlarini singdirib kelmoqdalar. Ayniqsa, o'g'ilni otalikka, qizni onalikka, uy bekaligiga tayyorlash milliy tarbiyadagi ikki yo'nalish - o'g'il va qiz bolalar tarbiyasi mavjudligini ko'rsatadi.



O'zbek oilasidagi bola tarbiyasida mehnat va milliy an'analar katta o'rin tutadi. Ayniqsa, kattalarni hurmat qilish o'zbek xalqiga mos bo'lgan muhim fazilatdir. O'zbek oilasidagi yana bir ijobiy fazilat - o'zidan kichikka g'amxo'rlikdir. Oila tarbiyasi jarayonida ota-

ona bolaga nechog'lik g'amxo'rlik qilgan bo'lsa, bolada ham ana shu fazilat namoyon bo'ladi. Ya'ni, katta farzand oiladagi kichiklarga doimo yordam beradi, uka-singillariga nisbatan mas'uliyat sezadi.

Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amxo'rlik mavjud bo'lsa, bu xislatlar bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining fahm-farosati, qiziqish va qobiliyati, ehtiyoj va mayli, intilishi va xohishi, ziyrakligi va zukkoligi bir-birlariga o'xshash bo'lsa, u holda, ota-onaning inoq, ahl turmush kechirishi, shaxslararo munosabatning izchil va mustahkam bo'lishiga puxta zamin hozirlaydi. Mustahkam oila muhitini barpo etish uchun eng avvalo, oila boshliqlari o'zaro bir-birlarini tushunib turmush kechirishlari, tarbiya maqsadi va vazifasidagi birlik, hamjihatlik, yaqinlik, uzviy bog'liqlik, yuzaga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uquvi nihoyatda zarur.



Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek oilasida ota-onaning xoh o'g'il, xoh qiz, xoh to'ng'ich, xoh kenja farzand bo'lsin, ularga birday munosabatda bo'lishi tarbiya samaradorligini oshiradi. Ana shuning uchun farzandlarni haddan tashqari erkalatmaslik, ajoyib insonlar namunasi orqali o'g'il-qizlarning fe'l-atvor xislatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada bolalar shaxsini shakllantirish, eng muhim ruhiy jihatlar bilan qurollantirish ko'pincha o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Oilaning kamol topgan a'zolari, birinchi navbatda ota-onalar o'z farzandlarining ruhiy xususiyatlarini yaxshi bilishi, bola tarbiyasiga to'g'ri yondashishi oilaviy totuvlik, hamjihatlik, o'zaro munosabatlarda mehr-oqibat va iliqlik, ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi. Oilaviy muhitda farzandlarga nisbatan qilingan qo'pol, noo'rin, noxush muomala ularning shaxsi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, tasavvur hamda taassurotlari olamida ma'lum iz qoldiradi, bola kayfiyatida tushkunlik, umidsizlik, tanholik ruhini vujudga keltiradi. Shaxsni milliylik ruhida tarbiyalashda bolada axloqiy uquv va malakalar, milliy urf-odatlar, ishbilarmonlik, ishchanlik xislatlari, aqliy qobiliyatni shakllantirishning ibratnamuna tarzida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur tarbiyaviy tadbirlarni amaliyotda qo'llash uchun hayotiy misollardan, badiiy adabiyot materiallaridan, mashhur kishilar haqidagi xotira va esdaliklardan, shuningdek ularning tarjimai holidan foydalanish yaxshi natija beradi. Ota-onalar, katta yoshdagi oila a'zolari o'g'il-qizlarda xalq marosimlariga nisbatan iliq munosabatni, samimiy his-tuyg'uni tarbiyalashlari kerak. Jumladan, milliy bayramlar, urf odatlar, to'y, milliy kurash va musobaqa, sayllar va ularni o'tkazish yo'llari, qoidalari, mavsumi, mavridi to'g'risida aniq tushuncha berish zarur. Mahalla, qarindosh, qo'ni-qo'shnilarnikida o'tkaziladigan tadbirlarga yoshlarni jalb etish ijobiy samara beradi. Shu bilan birga, ota-onalar, oilaning keksa, voyaga yetgan a'zolari kichik yoshdagi o'g'il-qizlarni mehmon kutish, dasturxon tuzash, hol-ahvol so'rash, salomlashish, mehmonga borish qonun-qoidalaridan xabardor qilishlari lozim. Milliy an'analardan, urf-odatlardan,

marosimlardan va rasm-rusumlardan kelib chiqqan holda oilada kattalarga, ota-onaga, qarindosh-urug'larga, o'qituvchilarga hurmat-ehtirom hissini shakllantirish, o'tmish avlod tomonidan yaratilgan, to'plangan milliy boyliklarga, obidalarga mehr-muhabbat ruhini singdirish oilaning muqaddas vazifasidir. Ayniqsa, oila davrasida ota-onalar va oilaning katta a'zolari kichik yoshdagi o'g'il-qizlarga atrof-muhit, tabiat muhofazasi haqida ma'lumotlar berishlari shartdir. Oilada milliy tarbiyani amalga oshirishdagi muhim xususiyatlardan biri – shaxsni mehnatda va mehnat orqali tarbiyalashdir. Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri amalga oshirish farzandlarda har xil ko'nikma va malakalarni tarkib toptiradi, ularda mehnatsevarlik, mehnat kishisiga hurmat, uning mehnatini qadrlash tuyg'ularini vujudga keltiradi. Mehnatning ijtimoiy turmushdagi roli, taraqqiyot, mo'l-ko'lchilik manbai ekanligini farzandlar ongiga singdirish yaxshi samara beradi. Mehnat tarbiyasi orqali bolalar mehnat kundalik ehtiyoj, zaruriyat ekanligini bilib boradilar, mehnat qilishni ijtimoiy va farzandlik burchi deb hisoblay boshlaydilar. Bolalarda mehr-muhabbat, milliylik tuyg'usining namoyon bo'lishida onalarning sehrli allasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ona allasi faqat go'daklarning orom olishi uchun aytilmaydi. Allalar vositasida bolalar ko'ngil dunyosiga ruh kiradi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan to'yintiriladi<sup>38</sup>.

Oila ijtimoiy tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolarini qarindosh-urug'chilik, nikoh, turmush sharoitining birligi, odob-axloq me'yorlarining umumiyliги, ma'naviyatning birligi kabi aloqalar asosida birlashadilar. Oilaning yana bir muhim ma'naviy, madaniy xususiyatlaridan biri – uning milliyligidir. Shu tufayli u o'zida, muayyan milliy madaniyat, milliy tarbiya madaniyatni ham u yoki bu darajada aks ettiradi. Oilani milliy, istiqloliy tarbiyaning faol omiliga aylanishi uchun uning milliy madaniy, mafkuraviy, ma'naviy muhiti o'rganilishi kerak. Jumladan oilalarda milliylikka

---

<sup>38</sup> Вохидова Н. Бошланғич синф ўқувчиларида халқ оғзаки ижоди асосида миллий ғурурни тарбиялаш. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2011й, 32 б.



munosabat qanday ekanligini tadqiqot qilish zarur. Ushbu nuqtai-nazardan o'zbek oilalarini shartli ravishda 4 guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir;

1. Bola tarbiyasiga qadimiychasiga yoki avtoritar yondashuv;
2. Liberal – ko'ngilchan yondashuv;
3. Milliy zamonaviy, demokratik yondashuv;
4. Marginal yondashuv (boshqa milliy madaniyat asosida tarbiyalash).

O'zbek oilalarida oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshli shaxsdir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas nuqtalarini ilg'ay olish, oila a'zolariga faqat to'g'ri, haq yo'lni ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat ota zimmasida turadi. Farzand tarbiyasi asosan onalar zimmasida, biroq otalar ham bu jarayonning faol ishtirokchilari bo'lishlari shart, sababi farzand tarbiyasida ular bir xil ma'suliyatli, javobgardir. Shuning uchun ota tomonidan ko'rsatiladigan namuna ijobiy bo'lishi hamda ota oila uchun vaqt ajratishi muhim sanaladi, ular o'g'il bolalarda qat'iyatlilik, vazminlik, ma'suliyat, javobgarlik kabi sifatlarni shakllanishiga, otaning qiz farzandga bo'lgan e'tibori, muhabbati uni olam go'zalliklarini sevishga, atrof olamga mehr muhabbat ko'zi bilan qarashga o'rgatadi.

**Ona** xalq pedagogikasida - eng yuqori ijtimoiy qadriyatdir. Onalar insoniyatning asosiy me'morlaridir. Onaning o'zbek oilasidagi hurmati, o'rni alohida, jipslashtiruvchi ahamiyatga ega. Chunki "Onaga bo'lgan muhabbat- Vatanga bo'lgan muhabbatning kurtagi", "Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada", "Onang o'gay bo'lsa, otang o'zingniki emas", "Bola-loy, ona-kulol". "Bola ham ona deydi, ona ham ona deydi", "Onangning yaxshiligini bemor bo'lsang bilarsan" va h.k. Bu esa o'zbek qizlarini onalikka tayyorlash: ularda mehribonlik, g'amxo'rlik, mayinlik, yaqin kishilarini qadrlashiga, himoya qilishga ehtiyojni shakllantirishga alohida e'tibor berishni taqozo qiladi. Ota-onaning izchil

tarbiyachilik mehnati ularni yaxshi farzandlarning ota-onalari bo'lish sharafiga muyassar qiladi. O'z tarbiyachilik burchlarini bajarmasliklari yoki bajara olmasliklari natijasida ular "yomon" deb nom chiqargan o'g'il-qizlarning ota-onalariga tayanadilar.

Ota-onaga mehrlilik o'zbek bolasining milliy odobining eng birinchi sifatidir. Shu bilan birga ushbu sifatning eng birinchi bosh tarbiyachisi ham oila, ota-onaning o'zidir. Ota-onaning ilmiy pedagogik madaniyati-ota va onaning umumiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Unda ota-ona mansub xalqning tarix davomida to'plagan oilaviy tarbiya tajribasi sintezlashadi va muayyan ota-onaning oilaviy tarbiyachilik faoliyatida namoyon bo'ladi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Oila. Oila jamoasining a'zolari, ota-onalarning vazifalarini sanab bering.*

2. *Oila jamoasining qanday o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari mavjud, tasniflang.*

3. *O'zbekona tarbiyaning turli qirralari tarixiga qisqacha sharh bering.*

4. *Nima uchun o'zbek oilasi milliy dunyoqarash manbai deb nomlangan, fikringizni FSMU texnologiyasi asosida sharhlang.*



## **MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASI MILLIY TARBIYA MANBAI SIFATIDA**

### **Reja:**

1. Xalq pedagogikasi manbaalari, ular mazmunida milliy tarbiya g'oyalarining ifodalanishi.
2. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari va vositalari.
3. Xalq og'zaki ijodi milliy tarbiya vositasi sifatida.

***Tayanch so'z va iboralar:** xalq pedagogikasi, komil shaxs, milliy g'urur, xalq og'zaki ijodi, tarbiyaviy jarayon, xalq og'zaki ijodi imkoniyatlari, axloqiy qadriyatlar, inson kamoloti.*

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «*Ijtimoiy pedagogika*» (darslik). T. 2022.
3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: Nodirabegum nashriyoti, 2022.*
4. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*

***Xalq pedagogikasi manbaalari, ular mazmunida milliy tarbiya g'oyalarining ifodalanishi.*** O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan to'la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi.

Zero, o'z elining murakkab tarixini, etnik xususiyatlari va pedagogik g'oyalarini aniq bilish ma'naviy barkamollikni ta'minlovchi bir omildir. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim – tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi.

Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasini xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas.

O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalari bilan

tanishtirish, ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanishga zamin tayyorlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga e'tiborni qaratish juda muhimdir.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g'oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim-tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi.

Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasini xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas.

O'zbek xalqining yosh avlodni ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlashdagi urfodati va an'analari, ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, ibratli tajribalari dostonlar, ertaklar, asotirlar, askiyalar, latifalar, mavsumiy marosim qo'shiqlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, laparlar, matallar, hikmatlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, erkalashlar, ovutmachoqlar, bekinmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldur-guplar; o'yin-kulgulardan iborat **xalq pedagogikasida** mujassamlashgandir.

***O'zbek xalq pedagogikasi** – xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq kishilar qilib etishtirishda, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llagan usul, vosita va tajribalar yig'indisidir.*

Hali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davridayoq qabila a'zolarining yoshlarda mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik hislatlarini shakllantirish va o'stirish sohasidagi aql-idroki o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida bizning davrga qadar etib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi.



Xalq pedagogikasi asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin tutgan. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan.

O'zbek xalqining aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar negizida shakllangan. Xarakterdagi milliy o'ziga xoslikning negizini esa shu xalqning hayotiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. SHu o'rinda o'zbek xalqi budda, zardushtiylik, islom, kommunistik kabi to'rtta katta diniy-mafkuraviy bosqichni o'z boshidan kechirganligini ham aytib o'tishimiz joiz. Har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davrida necha avlodlar almashgani va bu jarayonlarning millat fe'l-atvoriga o'chmas iz qoldirganini ham hisobga olishimiz kerak.

Darhaqiqat, o'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzining ko'proq an'ana, urf-odatlar orqali boshqarilishidir.

“Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y-tantanalarga o'ta o'chligida, yillar davomida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motamgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarda kuzatamiz”. Xalqimizga xos bo'lgan axloqiy me'yorlar bag'rikenglik, himmat, hojatbarorlik, mardlik, lafzda turish, halollik, saxovatpeshalik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, donolik, mehmondo'stlik, kamtarlik, saxiylik, epchilik, sabr-qanoatlilik, rostgo'ylik, mehr-oqibatlilik, ahillik, samimiylik, andishalilik, farosatlilik, tejamkorlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarda namoyon bo'ladi, ularning Xalq pedagogikasi manbalarida ana shu ajoyib insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi behisob misollar mavjud.

Qadimgi xalq og'zaki ijodiyotida inson tarbiyasiga oid fikrlar hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni



vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo`lni bosib o`tgan.

### **Xalqimizga xos bo`lgan axloqiy me`yorlar**

<b>Bag`rikenglik</b>	<i>Bag`rikenglik — insonlarning bir-biriga nisbatan hurmat, sabr-toqat va tushunish hissi bilan yondashishi demakdir. Bu tushuncha, asosan, jamiyatda tinchlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta`minlash va insonlar o`rtasida do`stlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.</i>
<b>Himmat</b>	<i>Odamgarchilik, muruvvat yuzasidan qilinadigan yaxshilik, yaxshi ish, yordam; insonga xos tuyg`u, xislatni anglatuvchi tushuncha. Himmat muruvvatlilik, olijanoblik, mardlik, tantilik, sahiylik, qo`li ochiqlik, saxovatlilik, ulug`vorlik, bag`rikenglik, buyuklik va hotamtoylik kabi tushunchalarni o`z ichiga qamrab oladi.</i>
<b>Hojatbarorlik</b>	<i>Bir inson tomonidan boshqa kishiga ko`mak berish, uning hojatini chiqarish ifodalovchi tushuncha.</i>
<b>Mardlik</b>	<i>1) insonning ma`naviy xislati, nomardlikning ziddi, or-nomus, vijdon va sadoqatni, shaxsning olijanobligini ifodalaydigan; 2) mard kishilarga xos ish, xatti-harakatni anglatuvchi tushuncha.</i>
<b>Lafzda turish</b>	<i>O`ta jiddiy mas`uliyat. Va`da berishdan oldin o`ylab ko`rish, keyin va`dani bajarishning harakatida bo`lish odamiylikdir.</i>
<b>Halollik</b>	<i>Insonning asosiy <u>fazilatlaridan biri bo`lib, rostgo`ylik, printsiplarga sodiqlik, qabul qilingan majburiyatlarga sodiqlik, ishning to`g`ri ekanligiga subyektiv ishonch, inson boshqaradigan motivlarga nisbatan boshqalarga va o`ziga nisbatan samimiylkni o`z ichiga olgan axloqiy sifat</u></i>



Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug`chilik davriga kelib, xo`jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o`z ichiga olgan davrgacha bo`lgan tariximiz otabobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo`lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So`g`diyona, Marg`iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarida turli qabila va elatlar yashagan. Ular saklar, massagetlar, so`g`dionalar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug`lardan iborat bo`lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar. Ushbu elatlar yashagan hududlarda o`ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiy davlatlar: Baqtriya va So`g`diyona, Marg`iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o`lkalarda xalq xo`jaligining turli sohalarida rivojlanish va taraqqiyot ro`y bergan. Eramizdan oldingi IX-VI asrlarda paydo bo`lgan Ahmoniylar, eramizdan avvalgi III asr o`rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar, eramizning V asrda yuzaga kelgan Eftalitlar, so`ngra Sosoniylar va nihoyat Turk hoqonligi davlatlarida ijtimoiy madaniyat yuksala bordi. Ajdolarimiz tomonidan qo`lga kiritilgan qadimiy madaniyati tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o`rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha etib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarining ijodiy merosi, san'at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir.

Bunday muhim manbalar sirasiga yunon olimlari Gerodot, Suqrot, Plutarx, Polienlarning tarixiy, geografik hamda axloqiy asarlari, allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg`ariy, faylasuf, sharqshunos va tarixchi olimlar: E.E.Bertels, S.P.Tolstov, V.V.Braginskiy, I.M.Mo`minov, B.G`afurov, I.V.Stebleva, A.O.Makovelskiy, Y.Jumaboev, M.Ishoqov, adabiyotshunoslar A.Qayumov, N.Mallayev, N.Rahmonov, Z.Mirtursunov, pedagog-

olimlar O`Aleuov, M.Orifiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiradi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita etib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo`lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Qoshg`ariyning "Devonu lug`atit-turk" kabi asarlari, shuningdek, Urxun-Enisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha etib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o`rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o`ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo`lsa, insonning shakllana borishi ham o`z navbatida kishilik jamiyatining qaror topa borishiga yordam bergan. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega bo`lgan inson kamolotining ta'minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o`zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga inson tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo`ldi. Bu jarayon minglab yillarni o`z ichiga olgan bo`lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Eng qadimgi kishilarga xos bo`lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o`z ifodasini topgan. Ruhga sig`inish (onimizm), ajdodlar ruhiga sig`inish (totemizm), sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar yoritilgan afsona va rivoyatlarda eng qadimiy ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo

bu rivoyat va afsonalar ham massaget, sak, xorazmiy, so`g`d hamda parfiyanlar yashagan davrlar ruhini ifoda etadi, xolos.

**Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o`rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:**



Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko`rgazmali ashyolar



Xalq og`zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar



Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o`z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo`lga qo`ya olish borasidagi nazariy bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy hayotni yo`lga qo`yish negizida amalga oshirilgan bo`lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy jihati, ijtimoiy ongni shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Dastlabki urug`chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug`ning aarcha a'zolari jamoa bo`lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a'zolarining yosh jihatlariga ko`ra quyidagi uch guruh asosida tashkil etganlar.

- a) bolalar va o`smirlar;
- v) ijtimoiy hayot va mehnatda to`la ishtirok etuvchilar;
- s) keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu holat og'ir sharoitda kechgan. o'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Hech qaerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi. Ushbu an'ana, ya'ni, bolalarni ma'lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham ko'zga tashlanadi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida esa bolalar ish ko'lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar.

Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta'rifi xalq pedagogikasi manbalari xaqida e'rqin tasavvur hosil qilishimizga e'rdam beradi: «Xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinchoqlari va o'yinlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir». Ta'rifda keltirilgan xalq pedagogikasi manbalari turli xalqlar tarbiya madaniyatiga taaluqlidir. Shu bilan bir qatorda har bir xalq bir, jumladan o'ebeklarning tarixiy ijtimoiy taraqqi'etida, ha'et tarzida, madaniyatida, faoliyat turlarida umuminsoniy harakterdagi xususiyatlar bilan enma-en milliy o'ziga xos, betakror tomonlari ham mavjuddir. Demak, xalq pedagogikasi manbalarida ham o'ziga xoslik, takrorlanmaslik mavjud.



Xalqimizga xos bo'lgan axloqiy me'yorlar bag'rikenglik, hojatbarorlik, mardlik, lafz halolligi, saxovatpeshalik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, donolik, mehmondo'stlik, kamtarlik, saxiylik, epchilik, sabr-qanoatlilik, rostgo'ylik, mehr-oqibatlilik, ahillik, samimiylik, andishalilik, farosatlilik, tejamkorlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarda namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi manbalarida ana shu ajoyib insoniy fazilatlarni tarannum etuvchi behisob misollar mavjud. Jumladan, "Ezgu ish" rivoyatida xalq manfaatiga yaraydigan ezgulik va himmat haqida so'z yuritiladi: "Bir alloma shogirdlari bilan har gal ko'rishganida: "Qanday ezgu ish qildinglar? Kimlarga yaxshiliklaring tegdi?" – deb so'rar ekan. Navbatdagi uchrashuvda shogirdlaridan biri: "Kechagi tunda eshigim oldiga notanish kishi kelib qoldi. Qarasam, bir faqir. Yordamga narsa tiladi. Uni ichkariga olib kirdim, izzat – hurmat bilan xonaning to'riga o'tqazib, egnimdagi choponimni unga kiydirdim. So'ng arzini eshitib, bor mol-mulkimni hadya etdim. Ustimdagi kiyimlarimdan bo'lak hech vaqo qolmadi. SHundan xursand bo'lib, huzuringizda tiz cho'kib o'tiribman", -debdi. Alloma shogird so'zlarini tinglabdi-yu, munosabatini sezdiribdi. Gal boshqa shogirdga kelibdi: "Qaysi kun shoh o'rdasi yonidan o'tib ketayotsam, bir odamni jazolamoqchi bo'lib turishgan ekan. Hukm bo'yicha uning bir qo'li chopilishi kerak ekan. Uni bu og'ir qiynoqdan qutqarmoq uchun o'z qo'limdan kechdim. Ko'rib turibsizki, endi yakdastman."

Ustozdan yana sado chiqmabdi. Shunda yonidagilari undan: "Bularning qaysi biri fidoyi va komilroqdir?" – deb so'rashibdi. "Bularning yaxshiliklari faqat ikki kishi uchungina qilingan yaxshilik. Odam qilgan yaxshiliklardan barcha el bahra topmog'i kerak, xalq manfaatiga yaraydigan ezgulik va himmatgina tahsinga loyiqdir", - debdi ustoz."

Xalq pedagogikasi asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin tutadi. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan.

O'zbek xalqining aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar negizida shakllangan. Xarakterdagi milliy o'ziga xoslikning negizini esa shu xalqning hayotiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. SHu o'rinda o'zbek xalqi budda, zardushtiylik, islom, kommunizm kabi to'rtta katta diniy-mafkuraviy bosqichni o'z boshidan kechirganligini ham aytib o'tishimiz joiz. Har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davrida necha avlodlar almashgani va bu jarayonlarning millat fe'l-atvoriga o'chmas iz qoldirganini ham hisobga olishimiz kerak. Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo'lgan xususiyatlarning saqlanishini ta'minlash sanaladi.

Xalqimizga xos bo'lgan zukkolik, hozirjavoblik, aqllilik va do'stga sodiqlik fazilatlarini "Navoiyning do'sti" rivoyatida o'z aksini topgan. "Ulug' shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirda ham do'sti bor ekan. SHoir uni juda yaxshi ko'rar, shogirdi bo'lsa ham qadrdon, sirdosh do'sti deb bilar ekan. Kunlardan bir kun Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi tufayli Sulton Xusaynning qattiq g'azabiga uchrabdi. Chunki Pahlavonning kichik gunohini Sulton g'azab otiga minib turganida etkazishibdi. Xusayn Boyqaro:

- Pahlavonning soqol-mo'ylovini qirib tashlanglar, so'ng kaltadum libos kiydirib, ko'cha-ko'yda sazoyi qilinglar, deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo'lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Muhammadning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chidolmay o'lib qolishini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqarish harakatiga tushibdi. Tezlikda Xusayn Boyqaro huzuriga etib borib:

- Sultoni Bokaram, ma'lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo'ylov qo'yib, do'st-birodar bo'lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o'rtadagi ahd buzilib, gapimiz tuzsiz, o'zimiz subutsiz bo'lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-mo'ylovlarimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgandek,



kalta libos kiygizilib, do'stim bilan birga ko'cha aylantirsinlar, - debdi.

Navoiyning shogirda hamda do'stiga bo'lgan sadoqatini, mehr – oqibatini ko'rgan Xusayn Boyqaro g'azab otidan tushib, "Pahlavonning gunohidan o'tdim, jazo qoldirilsin," – deb buyuribdi.

Xalq og'zaki ijodida o'zbek xalqiga xos bo'lgan olijanoblik, iltifotlilik, saxovatlilik fazilatlarini tarannum etuvchi namunalar juda ham ko'p. Shulardan biri "Olijanoblik" rivoyatida hikoya qilinishicha, Sulton Xusayn bir qancha olimu ulamolarga ziyofat berib, suhbatdan qulfi-dili ochilib o'tirar ekan. Xizmatkorlar nafis kosalarda suyuq taomlarni tashiy boshlabdilar. Shunda xizmatkorlardan biri ostonada nimagadir qoqindi-yu, qo'lidagimastavali idish to'g'ri Xusayn Boyqaroning quchog'iga tushib to'kilibdi. Sultonning zarrin liboslari mastavadan shalabbo bo'lib ketibdi. Anjumandagilarning hammasi beixtiyor "Oh!" deb yuboribdilar. "Nima bo'larkin endi?" –degan savol bilan Sultonga qarashibdi. Lekin Boyqaro kayfiyatidagi samimiyat aslo yo'qolmabdi. U jilmayganicha sochiq bilan liboslarini artib, yiqilgan xizmatkorga: "Bo'tam, tur o'rningdan, ko'zingga qarab yursang bo'lardi. Bora qol, kiyimlaringni almashtirib ol, - debdi mehribonlik bilan. Sultondan bunday olijanoblikni kutmagan kishilar hayrat bilan Xusaynga boqishibdi. Shunda mehmonlardan biri o'z hissiyotini yashirolmay: "Ey, saxovatli Xusayn! Shu lahzadagi olijanobligingiz hammamizni maftun etdi. Boshqa sulton bo'lganida gunohkorni o'limga buyurishi hech gap emas edi",- debdi.

-Tavba! – debdi Xusayn Boyqaro engil jilmayib. – Ul xizmatkorimiz falokat bosib yiqilib tushganidayoq hijolatdan o'lib bo'lganku! Nechuk endi biz o'lgan odamni yana o'limga buyurar ekanmiz.

Mehmonlar Xusaynning olijanobligi-yu, donishmandligiga tahsinlar o'qibdi. Zero, "Gunohni yashirgan kishilar marddir, zulmkor johillik bedavo darddir," – deb xulosa qilishibdi.

Etnopedagog G.N.Volkovning ta'kidlashicha, "Har bir xalqning kuchli va o'ziga xos jihatlarini ta'kidlovchi stereotip tavsiflar

hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas"<sup>39</sup>. Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o'zbekcha mehmondo'stlik kabi ijobiy fazilatlar shular jumlasidandir.

O'tmishning buyuk pedagoglari xalqning pedagogik qarashlari va pedagogik tajribalarni o'rganishga juda ko'p e'tibor berganlar. Klassik pedagoglarning ta'kidlashicha, xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi, uning tayanchi va asosi bo'lib xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi o'z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. Xalqlarning pedagogik madaniyati bilan juda qiziqqan rus yozuvchisi V.G.Belinskiy: «Har bir millatning o'ziga xosligi, asosan faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an'analaridir», - deydi. O'tmishda yig'ilgan ma'rifiy boyliklarni buyuk faylasuf Gegel "o'zidan kuch taratuvchi ona yer" bilan taqqoslagan.

**Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari va vositalari.** O'zbek xalq pedagogikasi barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o'zida mujassam etgan. Ijobiy fazilatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo'yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud (rasmga qarang).



<sup>39</sup> Волков Г.Н. Этнопедагогика. -Т.: Фан, 2000.



O'git-nasihatchilik, ibrat-o'rnatish ko'rsatish, rag'batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo'llab kelgan bo'lib, uning quyidagi ijobiy shakllari:

- tushuntirish;
- o'rgatish, mashq qildirish;
- kun tartibini rejalashtirish;
- yaxshi xislat va ishlarga undash;
- istak bildirish;
- maqtash;
- olqish aytish;
- duo qilish;
- alqash;
- mukofotlash, taqdirlash;
- ishonch bildirish;
- oqlash;
- vasiyat qilish;

Xalq pedagogikasida eng yaxshi tabarruk so'zlar — duo-olqishlar ham tarbiya jarayonida faol qo'llaniladi. Xalq pedagogikasida yaxshi so'z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal kamoloti borasida tutgan o'rni va roliga alohida ahamiyat beriladi.

Shuningdek, o'zbek xalq pedagogikasida o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi holatlar qoralanadi:

- ta'qiqlash, ma'n etish;
- buyurish;
- talab qilish;
- yolvorish va ko'ndirish;
- tanbeh berish;
- nafrat bildirish;
- duoyibad qilish;
- ayblash va uyaltirish;
- oq qilish;
- ont-qasam ichirish;

- aybiga iqrор qildirish;
- zarda qilish;
- yomonlash va vaysash;
- urishish;
- gapirmasdan qo'yish.

Hayotning mazmunini to'g'ri tushuntirish, farzandlarga odo-axloqni o'rgatish, ezgu ishlarga odatlantirishda xalq pedagogikasining yuqorida ta'kidlangan tarbiya metodlaridan foydalaniladi.

Tarbiya metodlari ichida eng ko'p qo'llanadigan turi bu namuna, ibrat ko'rsatish, ya'ni o'rnak bo'lishdir. Buyuk allomalar va mutafakkirlarning hayot yo'li bizga doim ibrat maktabi bo'lib qoladi. Chunonchi, oiladagi kattalar ham o'z farzandlari uchun doimo o'rnak ko'zgusi bo'lmoqliklari kerak. Chunki bola barcha yaxshi fazilatlarini ham, yomon illatlarni ham eng avvalo oiladan o'rganadi, zero xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytishmagan.

Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi rag'batlantirish metodiga maqtash, ma'qullash, alqash, mukofotlash kabi shakllarni kiritishimiz mumkin. Bolalarning yaxshi fazilat ila amalga oshirgan ibratli ishlari kattalar tomonidan ma'qullansa, maqtalsa, olqishlansa, rahmat aytilsa, alqansa va imkon doirasida taqdirlansa, ular yanada yaxshi xislatlarga ega bo'lishga, yaxshi ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Bunga o'zbek xalq og'zaki ijodidan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Asar qahramonlari xalqni zolimning zulmidan qutqarib xalqning olqishi va rahmatiga sazovor bo'lganlari, munosib taqdirlanganligi haqidagi ertak, rivoyat, afsona, asotir va dostonlar behisob. Maqtash, alqash paytida:

- "Tarbiya bergan ota-onangga rahmat";
- "Ta'lim bergan ustozingga rahmat";
- "Ustozdan ibrat olgan aqllaringga rahmat";
- "Barakalla, o'g'lim, qizim";
- "Aqlu-hushing, idrokingga ofarin";
- "Oqilaligingga tahsinlar bo'lsin" kabi jumlar ishlatiladi.



Asosan yoshi ulug'lar, ota-onalar farzandlarining ijobiy ishlaridan minnatdor bo'lishganda o'zlarining chuqur ichki istak va niyatlarini alqash orqali amalga oshirganlar. Keyinchalik bu istak-niyatlarini Ollohdan so'raydigan bo'lganlar va shu tariqa alqash-duolar yuzaga kelgan, alqashdan oldin "ilohim" so'zi ishlatila boshlangan. Quyida alqash-duolarga misollar keltiramiz:

- (ilohim) umringdan baraka top;
- qo'ling dard ko'rmasin (dard ko'rma);
- tani-joning sog' bo'lsin;
- tuproq olsang oltin bo'lsin;
- baxtiyor bo'l (baxtli bo'l);
- ilohim niyatingga yet;
- to'y bo'lsinu, g'am bo'lmasin;
- yaxshi kunlarga yetkazsin;
- ko'p bersin, ko'l bersin, keng fe'l, ketmas davlat bersin;
- biring ikki, ikking tuman bo'lsin;
- yegan noning halol bo'lsin;
- farishtalar omin desin va h.

Xalq pedagogikasining bunchalik ta'sir kuchi, ahamiyati nima-da? Yashovchanligi, «umri» ning shunchalar uzoq muddatlar bilan o'lchanishi, uni hech qanday kuch-qudrat bilan tenglashtirib bo'lmasligining boisi qaerda? Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, boyib borishining, fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan, uning hayotiyliigi, ta'sirchanligi, serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning o'ziga xos xilma xil metod, usul va vositalari mavjud. Bularga tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, iltijo-yolvorish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, duo qilish, rahmat aytish, olqish, alqash, ta'qiq,

qilish, ta'na(gina, o'pka) qilish, masxara- mazax, qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, so'kish, la'natlash, urish, kaltaklash, kabi metodlar kiradi. Yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihati, ibrat ko'rsatish, maqtash, ma'qullash, alqash, mukofotlash, qoralash-qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalanilgan. Shularning ba'zilari ustida to'xtalib o'tamiz.

**O'git va nasihat.** Eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Kishilarning qadrlanishi, burchni anglash, halol va rostgo'y bo'lish, yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan pand-nasihati shaklida tinglovchiga nisbatan maslahat, istak va buyruq shaklida ishlatiladi. Masalan: «Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin», «Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'!», «Yomon bilan yo'ldosh bo'lma, Nodon bilan sirdosh bo'lma!». Odob-axloq masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy haqiqat ekanligi ma'lum ertaklar mazmuni orqali ochib berilishi – tarbiya metodlaridan biridir.

**Namuna ko'rsatish.** O'zbek xalqi ijodida namuna ko'rsatish metodi juda ko'p shakllarda uchraydi. Ertak va dostonlarda bu metodning asosan 2 xil yo'nalishi ko'zga tashlanadi. Bir tomondan ijobiy xislatlarga ega bo'lgan kishilardan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy xislatlarga ega bo'lgan kishilardan nafratlanishga targ'ib qilinadi. Masalan, «Men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga» ertagida ona o'z o'g'liga ota-onani qadrlash yuzasidan o'rinli namuna ko'rsatadi. «Sen ham bo'lursan mendek» ertagida ba'zi ota-onalarning o'z farzandlari oldida ota-onasiga hurmatsizlik, mas'uliyatsizlik bilan muomalada bo'lishlari, buning yomon oqibatlarini haqida gap ketadi. Demak, oilada yosh bolalar, o'z tabiatlariga ko'ra, ko'pincha kattalarga ko'r-ko'rona taqlid qiladilar. Shu bois har tomonlama yaxshi ibrat ko'rsatishga harakat qilishi kerak.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy – nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir. «Naslu



nasabini bilmagan kishi inson sanalmaydi. Necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar. Ammo biz hurriyatni orzu etishdan, hurriyat uchun kurishishdan charchamadik. Maslagimizni naslu nasabamizni doimo yodda saqladik.

Ulug` bobokalonlarimiz ruhiga, bashariyat tarixi va madaniyati xazinasiga katta xissa qo`shgan ulug` ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo`lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongidan mustahkam joy olishi – bu ham yangi zamonning muhim xususiyatidir». O`zbek xalqi tarixan ta'lim tarbiya sohasida o`ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o`zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham nekbin pelagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning bizgacha etib kelgan ayrim sahifalarida o`z ifodasini topgan.

Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi Yunon – Makedon qo`shinlari, so`ngra ibn Muslim Qutayba rahbarligida arab istilochilari olib borgan janglar, talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o`sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yoqib yuborilgan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarini, xalq pelagogikasini ilmiy o`rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunnig muhim va dolzarb muammosidir. Istiqlolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Ovrupa pedagogikasini asos qilib oldik va o`rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasini o`rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hur fikrlilik bizdan boshlangan. «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda haq edi Olmon olimi Xerler. Haqiqatan ham shunday, o`zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz.

Yuqoridagi fikrlarning o`zi madaniyat va ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo`la oladi. Chunki, savodxonlik

maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimga manbalarda «Avesto», Sug`d, Baqtriya, Urxun – Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi.

***Xalq og‘zaki ijodi milliy tarbiya vositasi sifatida.*** Xalq og‘zaki ijodi ommaviy ijod mahsuli sifatida xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismini tashkil etadi. U xalq san‘atining boshqa turlari: musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san‘atdan so‘z san‘ati sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Har bir xalqning asrlar osha orttirgan boy turmush tajribasi, orzu-umidlarini aks ettirgan og‘zaki adabiyoti durdonalari mavjud. Xalqning hayotiy tajribalari asosida og‘zaki tarzda yaratilib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan shu xildagi badiiy asarlar “og‘zaki so‘z san‘ati”, “folklor” yoki «xalq og‘zaki poetik ijodi” atamalari bilan ifodalanadi. Hali go‘dakligidayoq uning ilk namunalari bilan tanish bo‘lishi o‘quvchilarning o‘qish va odobnoma darslarida xalq og‘zaki poetik ijodini puxta o‘zlashtirishlariga zamin yaratadi.

O‘zbek folklorshunosligiga “folklor”, “o‘zbek folklori” terminlarini birinchi marta Hodi Zarif kiritgan. Mashhur folklorshunos oliy o‘quv yurtlari uchun tuzgan birinchi majmuasini “O‘zbek folklori” deb ataydi (1939). Ungacha ishlatilgan “el adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot”, “o‘zbeklarda og‘zaki adabiyot” kabi atamalar obyektini aniq ifodalamasligi tufayli ilmiy iste‘moldan chiqib ketdi va hozirgi kunda ularning o‘rniga fanda “O‘zbek folklori”, “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” ifodalari mustahkam o‘rnashib qoldi. Xalq og‘zaki ijodi asrlari to‘fonidan o‘tib, hayotning tub mohiyati bilan tanishtirish, o‘zlikni anglash vositasi sifatida necha-necha avlodlarni tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbek xalqining yosh avlodni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalash borasidagi boy tajribasi, an‘analari avloddan- avlodga ma‘naviy meros sifatida o‘tib kelmoqda. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy jihatlarini ilmiy asoslab bergan Z.F.Mirtursunov folklorning har bir janri orqali bola tarbiyasida



ijobiy natijalarni ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi: "Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqi pedagogikasining ham yagona tarbiya vositasi bo'lib kelgan va bizning zamonamizda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Hatto ma'lum ma'noda xalq ijodining alohida janrlarini, to'g'ridan-to'g'ri bola tarbiyasi tarkibidagi ayrim tomonlarini tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham xizmat qiladi". O'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qismi – bolalar folklorining fidoyi tadqiqotchisi G'.Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori". nomli monografiyasida bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari, tur va janrlari: tez aytishlar, topishmoqlar, bolalar qo'shiqlari, ertaklari, o'yinlari folklorning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va roli atroflicha tahlil qilinadi.

Xalq og'zaki ijodi asarlari o'zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush tarzi, yashash sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari, milliy g'ururi bu xildagi asarlarning mavzusi va g'oyaviy mazmunida o'zining chuqur aksini topadi. Xalq og'zaki ijodining har bir namunasi asrlar davomida xalqning ko'plab iqtidorli yaratuvchi-ijrochilari tomonidan nihoyatda pardoqlangani, tildan-tilga ko'chib, sayqal topgani bois yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgandir. Shunga ko'ra, yosh avlodning estetik sezgilari rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tili boyliklarini his qilishlarida – nutq va xotira tarbiyasida, o'zligini anglashida, chunonchi, milliy g'urur tarbiyasida folklorning roli beqiyos kattadir.

**"Qo'shiq"**. Xalq og'zaki ijodining qo'shiq janri tugal fikr badiiy ifodalangan, el orasida keng tarqalgan va barcha kishilar tomonidan kuylanishi mumkin bo'lgan mustaqil to'rtlikdir. Inson hayotini qo'shiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qo'shiqlar faqat to'yda va bayram tantanalaridagina emas, balki insonning hayot yo'lida suyanchig'i va doimiy hamrohidir. Ularda xalqning bitmas-tuganmas kuch-qudrati kuylanadi, vatan taqdiri uchun jangovar kurashchi, sadoqatli do'st, mehnatsevar va tajribali inson obrazlari gavgavdalanadi.

“Qo‘shiq” termini XI asrda yozilgan, ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk» asarida ilk bor “koshug” shaklida berilgan va uning izohi “she‘r”, “qasida” deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, “qo‘shiq” so‘zini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” lug‘atida ham xuddi shu ma‘nolarda uchratamiz. Xususan, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolai aruz” asarlarida qo‘shiq so‘zi “surud”, “ayolg‘u”, “lahn”, “turkiy tarona”, “ashulam, “o‘lan”, “chipga” (chinka) nomi bilan ham tarqalganligi qayd qilinadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari orasida shundaylari ham uchraydiki, ularda so‘z olamni tasvirlashdan boshlanib, odam orqali yana tabiatning boshqa obyektlariga o‘tiladi, insonning chuqur hissiyotini bayon etishda olam va uning konkret hodisalariga suyaniladi. Jumladan, “Boychechak”, “Chittigul” kabi aksariyat o‘zbek bolalar qo‘shiqlarida tabiatning go‘zalligi insonning ichki hissiyoti, quvnoq kayfiyati bilan uyg‘un, ajoyib bir reallikda tasvir etilgandir. O‘zbek bolalar qo‘shiqlarida murg‘ak qalblarning tabiat va jamiyat oldidagi mas‘uliyati uning milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan hamohang tilga olinadi. Bunday qo‘shiqlarni o‘qigan yoki yod olgan o‘quvchi badiiy matndagi o‘ynoqi musiqiy ohang tufayli tug‘ilgan kuchli hissiyot vositasida undagi mazmunni chuqur idrok etadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari aynan shu jihatdan yosh bo‘g‘inlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashda muhim vosita bo‘la oladi.

O‘quvchilarda milliy ruhda tarbiyalashda xalq qo‘shiqlari yaxshilik, do‘stlik, qardoshlik va tinchlik elchisi, hur, ozod Vatan, obod el jarchisi hamda insonlarda o‘z eliga, qutlug‘ yeriga muhabbat, ona zaminga sadoqat, ajdodlarga hurmat, e‘tiqod tuyg‘ularini singdiruvchi muhim vositadir. Xalq qo‘shiqlarining o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishi haqida olib borgan tadqiqotida M.Ismoilova shunday yozadi: “Xalq qo‘shiqlari bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do‘stlarga sadoqat tuyg‘ulari va o‘z-o‘ziga talabchanligini shakllantiradi. Xalq



qo'shiqlari o'quvchilar uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir".

Milliylik ona suti, ota namunasi, avlod-ajdodlarning irsiy xususiyatlari, axloq-odob mezonlari orqali farzandlar ongiga singdiriladi. Ona allasi faqat go'daklarning orom olishi uchun aytilmaydi. Allalar vositasida bolalar ko'ngil dunyosi milliy ma'naviy qadriyatlar bilan to'yintiriladi. Vatanga mehr-muhabbati avlod-ajdodlarga chin vorislik bilan bog'liq nasliy tuyg'ular, baxt-saodat bilan yo'g'rilgan porloq istiqbol orzusi allalarda o'zining yuksak ifodasini topgandir. Farzandlar onalarning uzun tunlar aytgan allalari, rivoyat-ertaklari bilan birga buva-buvilarining o'g'itlari, pand-nasihatlari asosida hayotga nazar tashlaydi. Yosh xususiyatlariga ko'ra, kichik yoshdagi o'quvchilar hikoya, ertak, maqol, rivoyat, doston, she'r, qo'shiq va masallarni yaxshi qabul qiladi. Allalarning mantiqiy davomi bo'lgan badiiy asarlar mutolaasi tufayli ularning fikri o'sadi, dunyoqarashi kengayadi, hayotda nima yaxshi-yu nima yomonligi xususida dastlabki xulosalari shakllanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyati beixtiyor sodir bo'lish xarakteriga ega bo'ladi va bu bilim olish chegarasini kengaytirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining milliy ruhda tarbiyalashga xizmat qiladigan janrlaridan biri termalardir. Xalq og'zaki ijodining mustaqil janri bo'lgan termalarning yaratilishida baxshilarning roli nihoyatda kattadir. Og'zaki ijodning bu xildagi namunalari: pand-nasihad, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan termalar o'quvchilarni hayotga teran ko'z bilan qarash, rostgo'ylik, halollik, insof va diyonat, mardlik, mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, ishonch va sadoqat ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam beradi.

**Maqol.** O'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biri bo'lgan maqollar ham xalqning asrlar davomida boshdan kechirgan hayotiy tajribalarida sinovlardan o'tib sayqal

topgan bo'lib, ifodaning g'oyat qisqa va lo'ndaligi bilan ajralib turadi. Qat'iy hukm-xulosa tarzida aytiladigan folklorning bu xildagi namunalarida avlod-ajdodlarimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy hayot normasi o'z ifodasini topadi.

...O'zbek o'z bilganidan qolmas.

O'zbekning o'pgani-tuyaning tepgani... kabi maqollarni keltirib, uning milliy tarbiyadagi o'rni haqida olim D. Ro'zieva shunday yozadi: "Millatimiz fe'l-atvorini anglatuvchi bu maqollar ajdodlarimizning shu xalq farzandi bo'lganligidan faxrlanish tuyg'usi bilan yaratilganligi sezilib turibdi. Tabiiyki, bunday maqollar yoshlarni ham o'zbek bo'lganligidan faxrlanishga, o'z millati va tabiati bilan g'ururlanishga undaydi. Natijada ular qalbida o'z millatiga sodiq bo'lish tuyg'usi uyg'onadi". Xalq maqollarida o'git va nasihat metodi ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin:

- Yaxshi bo'lsang kelinchak, bo'la ko'rma erinchak.
- Eling senga cho'zsa qo'l, unga doim sodiq bo'l.
- Ko'kka boqma, ko'pga boq.
- Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan.

**Ertak.** Ertaklar xalq og'zaki ijodiyotining eng qadimiy, ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida mehnatkash xalq ommasining eng yaxshi sifatleri – insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, vafodorlik, shu yo'lda qahramonlik, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlarini targ'ib etadi. Ertaklarda axloq va odobning yuksak namunalari ulug'lanib, zulm va zo'rlik qoralanadi. Ertaklarning kelajakka umid ko'zi bilan qarashga, farovon hayot uchun kurashishga chaqirishi, kishilarda hayotga muhabbat, yer yuzida adolat va insofning tantana qilishiga ishonch uyg'otishi juda muhim tarbiyaviy mohiyatidan dalolat beradi. Bebaho asarlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, Oybek kabi yozuvchi va shoirlarning tarjimai holidan ma'lumki, ularning buyuklik shohsupasiga ko'tarilishlarida xalq ertaklari cheksiz ruhiy oziq bergan. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati o'ziga xos, "Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan farzandlari ruhiy oziq olganlar, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat, yomon xususiyatlarni bilib



olishgan, hurmat, muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qilgan va hozir ham ana shunday<sup>40</sup>".

"Ertak" termini Mahmud Qoshg'ariyning XI asrda yozilgan "Devonu lug'otit turk" asarida "etuk" shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Hozir folklorshunoslik termini sifatida "ertak" so'zi qabul etilgan bo'lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida "matal" deb yuritiladi. Buxoro atrofidagi hududlarda ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) so'zlashuvchi aholi orasida "ushik" deb ataladi. Xorazmda "varsaqi", Toshkent shahri va uning atrofida "cho'pchak" termini ham ishlatiladi.

Xalq orasida "ertak", "matal", "cho'pchak" terminlaridan boshqa yana "hikoya", "afsona", "o'tirik", "tural" kabi atamalar ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida afsona, ertak va masal ma'nolarida "cho'pchak" so'zi ishlatilgan. Cho'pchak kichik hikoyalarni to'plash, hikoya qilish, topish, izlash ma'nosida bo'lgani uchun ba'zan topishmoq o'rnida ham qo'llanilgan. "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar", "Egri va to'g'ri", "Ochko'z boy", "Guliqahqah", "Ziyrak uch yigit" kabi ertaklarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy ziddiyatlar talqini misolida o'quvchilar qalbida yorqin tuyg'ular uyg'otadi.

**Topishmoq.** Topishmoqlar o'zbek folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida boshqa adabiy janrlar bilan bir qatorda topishmoqlarning ham izohlangani nazarda tutilsa, uning yaratilish tarixi qadim zamonlarga borib taqalishi ayon bo'ladi. Folklorshunos Z.Husainova "O'zbek topishmoqlari" kitobida: "Topishmoq folklorning eng qadimiy, eng ommaviy janri. Topishmoqda insonni qurshab olgan tabiat, borliqdagi narsalar va hodisalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi ijtimoiy ongning o'z davriga nisbatan tafakkur doirasida tushuniladi va shu

---

<sup>40</sup> Ортиқов Н.



janrning o'ziga xos badiiy shaklida aks ettiriladi; nazarda tutilgan hodisa va narsalar haqida ba'zi ma'umot beriladi" deb ta'rif beradi.

Ma'lumki, tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarning yechimini topishi, sirli bo'lib ko'ringan narsalarning tub mohiyatini ochishi uchun aql-idrok, zukkolik va o'tkir did talab qilingan. Tabiatning sirli hodisalari inson taqdirini asossiz, taxminiy farazlar, turli e'tiqodlar vositasida passiv anglash folbinlik, astrologiya kabi og'zaki ijodning g'ayri ilmiy shakllarini ham maydonga keltirgan. Topishmoqlar bo'lsa, xalq og'zaki ijodida eshituvchilardan ongli ravishda yashirilgan, berkitilgan narsa-hodisalarning asosiy mazmunini topish, yechishning o'ziga xos poetik shaklidir. Shuning uchun topishmoqni eshituvchilar uni tabiat yoki turmush siri deb emas, yashirilgan aniq bir narsa deb biladilar, shunday tushunadilar.

Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim-tushunchasi, idroki va mulohazalarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish uchun zarur tarbiyaviy vositalardan bo'lgani tufayli unga soddadan murakkabga, osondan qiyinga tamoyili asosida yondashiladi. Topishmoq aytishning o'ziga xos muayyan tartib-qoidalari mavjud. Topishmoqning javobi topilishi bilan ketma-ket aytila beriladi. Agar eshituvchilar topishmoqning javobini topa olmasa, "shahar" talab qilingan. Topishmoq javobini topa olmagan, "shahar bergan" kishi ma'lum ishni bajarishga majbur bo'lgan. Topishmoq aytish orqali davrada ajoyib xushchaqchqlik, ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ladi. Folklorshunoslarning aniqlashicha, qadimda topishmoq aytish kechalari juda maroqli o'tgan, ayniqsa, yoshlarga ta'limiy-tarbiyaviy jihatdan katta foyda yetkazgan.

"Ajoyib isitoralar, yorqin qiyoslashlar, obrazli ifodalar bilan jilolangan o'zbek topishmoqlari, – deb yozadi taniqli folklorshunos M.Abdurahimov, – qadimiy quyoshli o'zbek yerining jozibasi va o'ziga xosligini tasvirlabgina qolmay, folklor asarlari silsilasida ulkan estetik qimmatini bilan xalq ma'naviy dunyosi taraqqiyotining xazinasi sifatida bizning kunlarimizda ham jamiyatimiz yaxlit madaniy hayotining muhim tarmog'i bo'lib qolmoqda". Ma'lumki,



topishmoqlar og'zaki ijodning qadimgi janrlaridan sanaladi. U Aristotel zamonida ham mavjud bo'lgan. Donishmand "Metafizika" asarida topishmoqlarni "ajoyib tuzilgan metaforalar" deb ta'riflaydi.

Topishmoqlar o'z tabiatiga ko'ra topishmoqni aytuvchiga ham, topuvchiga ham ayon bo'lgan obyektiv voqelik, predmet va hodisalarning belgilarini ifoda etuvchi tushunchalardan tuzilgandir. Ular obyektlarni harakat holatida olib aks ettiradi. Ushbu masalada folklorshunos olimlar Z. Husainova, M.A. Pionikovalarning topishmoqlar aniq predmetlarni, ularning paydo bo'lishi dialektikasida anglab aks ettiradi, degan fikrlariga qo'shilish mumkin. Lekin topishmoqlarda obyekt harakati har vaqt ham uning ta'rifida ochiq ko'rinishda bermaydi, ya'ni muayyan buyum va hodisalarning tabiatiga yoki uning muhim belgilarining harakteriga ko'ra, obyektning harakat belgisi ta'rifida ochiq berilishi ham, berilmasligi ham mumkin. Topishmoqlarning mohiyati, ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati olam sirlaridan kishilarni voqif qilish, bilishga undash bilan birga, insoniyatning tabiat va hayvonot dunyosi bilan qadimdan uzviy bog'liqligini ta'kidlash, ularni sevish, ardoqlash tuyg'usi ham yashiringani bilan bog'liq.

**Afsona.** Xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri afsona kichik hajmli, mazmunan sodda bayon va hikoyalar shaklida yaratilgan bo'lib, bu xildagi asarlarda qahramonlarning ijtimoiy hayotga faol munosabati kuchli ruhiy to'lg'anishlar bilan kechishiga ko'ra bolalikning uchqur xayollariga yaqin keladi. Afsona–forscha fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo'lgan nasriy hikoyadir. Afsonalarni mavzu jihatdan uch turga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi – xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqidagi afsonalar; ikkinchisi – tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi afsonalar; uchinchisi – jangnoma tipidagi afsonalar yoki qahramonlik afsonalaridir. Bu xildagi asarlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatan va el-yurt ravnaqi yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatishga ruhlantirish bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shiroq va To'maris haqidagi afsonalar shular jumlasidandir. Mazkur afsonalarda Shiroqning

Vatan daxlsizligi yo'lidagi fidoiyligi To'marisning dushmanga bo'lgan kuchli nafrati, o'z yurtiga muhabbati bilan hamohang taassurot qoldiradi. O'qituvchi afsonalar tahlilida "Aqliy hujum", "Freym texnologiyasi" yoki "Klaster" usulidan foydalanib, ularning tub mohiyatini tashkil etuvchi asosiy xususiyatlariga e'tibor berishi kerak.

**Rivoyat.** Hayotiy voqealar badiiy uydirmalar vositasida hikoya qilingan realistik harakterdagi og'zaki ijod turlaridan yana biri rivoyat bo'lib, mazkur janrga mansub asarlar g'oyaviy-tematik jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlarda tarixiy voqealar va ayrim tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hodisalar, ijtimoiy hayot va maishiy turmush, geografik joylar – sahro, ko'l, cho'l, dengiz, shahar, qishloq, qal'a, saroy va boshqalarning barpo bo'lishi hamda vayron qilinishiga oid voqealar talqini turadi. Mazkur hikoyalar u yoki bu voqelik haqida xabar berish, uni tasdiqlash yoki inkor qilish vazifasini bajaradi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg'or g'oyalar jamiyatda uchragan zulm va zo'rlik, haqsizlik va adovat, baxillik va jabr-sitam singari illatlarga qarshi qo'yiladi.

**Doston.** Xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik qarashlari o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri bo'lgan dostonlarda asar qahramonlarining adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, vatan ozodligi va yurt farovonligi yo'lida ko'rsatgan jasorati bilan chambarchas bog'liqdir. Doston qahramonlarining mardonavor kurash yo'li mazkur asarlarning mavzu doirasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi. Dostonlardagi ulug'vor poetik umumlashmalar va yuksak badiiy obrazlar ularni dunyo folklorining tengsiz namunalarini – rus blinlari, ukrain dumalari, karleo-fin runlari, qozoq botirlar jiri, buryat uligerlari, kirg'iz Manasi, qoraqalpoq Qirq qizi, hind Maxabxorat qissasi, G'arb va Sharqning ulkan eposlari qatoriga qo'ydi. Bu esa inson qalbida cheksiz g'urur va yuksak baynalminallik tuyg'ularini yanada jo'sh urdiradi. "Xalq og'zaki ijodi, ayniqsa dostonlarni o'qish, o'rganish yoshlarimizda mardlik,



jasorat, milliy g'urur, Vatanni sevish, xalqparvarlik kabi fazilatlarini kamol toptiradi<sup>41</sup>".

O'zbek xalq dostonlari xalqimiz ma'naviy madaniyatining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Dostonlarda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlar dunyoqarashning boshqa masalalariga qaraganda, keng ko'lamda ifoda etilishi ayon haqiqat. Bu o'rinda yana shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarning obyekti bo'lgan jamiyatning o'zi tabiatdan ayri yashay olmas ekan, uning hayotida rol o'ynagan tabiat, obyektiv borliq u yaratgan dostonlarda ham aks etadi. Tabiat hodisalariga xalq ommasining qiziqib qarashi, uning ustida mulohaza yuritishi, xulosalar chiqarishi ham shu tufaylidir.

Doston: «Qahramonlik dostonlari»: «Alpomish», «Yodgor»; «Jangnoma dostonlari»: «Yusuf va Axmad», «Alibey bilan Volibey», «Xoldarxon»; Ishqiy-romantik dostonlar»: «Murodxon», «Go'ro'g'li»; Tarixiy dostonlar»: «Edega», «Shayboniynoma», «Aychinor»; Kitobiy dostonlar»: «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Zevaxon», «Bahrom va Gulandon» mavjud. "Rustamxon", "Avazxon" dostonlaridan olingan parchalarda Rustamxon bilan Avazxonning sarguzashtlari hikoya qilish, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidan keltirilgan "Odamdan nima qoladi" hikoyasida insoniy fazilatlar, M.Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostonidan qisqartirib olingan parchada Sharq darvozasi sanalgan azim Toshkentning ulug'vorligi, tabiat bilan uyg'unligi yuksak pafos bilan kuylanadi:

Toshkentda uch fasl yoz:

Bahor shoshgan ichki yoz,

Yoz – katta va asl yoz,

Kuz – kechikkan kechki yoz.

Xalq dostonlarida ustoz o'z shogirdlar masalasi ham yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Erali va Sherali" dostonida quyidagicha nasihat qilinganligini ko'rishimiz mumkin:

Yaxshilikdan ajratmasin dilingni,

Ham yaxshilik ustun qilar qo'lingni,

---

<sup>41</sup>To'raeva O.

Miskinlarga sarf ayla, ber pulingni,  
Men sening qurboning bo'lay, Erali.

Milliy tarbiyani amalga oshirishda folklorning janrlarini chuqurroq tahlil qilish, xar bir janrda ilgari surilgan g'oya va qarashlar mazmunini o'rganish asosida ulardan o'quvchilarni milliy tarbiyasini amalga oshirishda vosita sifatida foydalanish u yoki bu janrning tarbiyalovchilik xarakterini ifodalaydi.

### ***Savol va topshiriqlar***

*1. Xalq pedagogikasi qanday pedagogika, u qachondan beri mavjud?*

*2. Xalq pedagogikasining manbaalarini sanang, ular mazmunida ifodalangan milliy tarbiya g'oyalarini bayon eting.*

*3. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari o'git va nasihat, namuna ko'rsatish qachon, qaysi vaziyatlarda qo'llaniladi, misol keltiring.*

*4. Xalq og'zaki ijodi nima uchun milliy tarbiya vositasi deb nomlangan, fikringizni bayon eting, uni asoslovchi misollar keltiring.*

*5. «Alpomish» va «Yodgor» dostonlarining bosh g'oyalarini o'rganing, farqli va o'xshash jihatlarini "Venn" diagrammasida solishtiring.*



## **MAVZU: TARBIYAVIY FAOLIYATDA PEDAGOGIK TEXNIKA**

### **Reja**

1. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning maqsad va vazifalari.
3. Tarbiyaviy faoliyat jarayonida pedagogik texnikadan foydalanish.

*Tayanch tushunchalar: tarbiya, faoliyat, tayyorgarlik, tushuncha, mazmun, mohiyat, pedagog, texnika.*

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Holiqov A. «Pedagogik mahorat» (darslik). T. 2022.
3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
4. *Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish. Monografiya. LESSON PRESS nashriyoti. –T.:, 2023.*

**Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasining mazmun-mohiyati.** “Umumiy o’rta ta’lim muassasalari – ijtimoiy hayotning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy jihatdan taraqqiy etishning asosi sifatida, shaxsning ma’naviy yetukligi va barkamolligini kafolatlaydigan, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega muqaddas maskan” sanalishi yoshlar tarbiyasi masalasi mamlakatimizda davlat ahamiyatiga molik masala sifatida qaralayotganligidan dalolat beradi. Bu vazifani amalga oshirishga qaratilgan davlat hujjatlarida mazkur faoliyatni maqsadli amalga oshirish tartibi ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi PQ-406-sonli Qonunda “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash" vazifalari aniq qilib belgilab berilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarorida, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat ruhini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda ma'naviy immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan.

Mazkur qaror, qonun va farmonlar mazmunidan o'rin olgan vazifalarni amalga oshirish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonidagi beruvchi mutaxassislarni aynan ana shu vazifalarni bajarishga, muammolarni bartaraf etish kompetensiyasiga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, tarbiyaviy faoliyatni maqsadli tashkil etish imkoniyatiga ega kadrlarga bo'lgan talab, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

*"Tayyorlik" tushunchasi izohli lug'atlarda biror narsa qilishga kelishish, biror narsaga hissa qo'shish istagi, deb tasniflanadi. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasining mazmun-mohiyati ko'p qirralidir. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik maxsus psixologik holat bo'lib, sub`ektda ma'lum bir harakatning tuzilishi va uni bajarish doimiy ravishda ongning diqqat markazida bo'lishini nazarda tutiladi. U pedagogik vazifani anglashga turli xil munosabatlarni, ehtimoliy xulq-atvor modellarini, faoliyatning maxsus usullarini aniqlashni, qiyinchiliklarga nisbatan murosasizlik va ma'lum bir natijaga erishish zarurligini o'z ichiga oladi.*

Tarbiyaviy faoliyatga "tayyorlik" tushunchasi o'qituvchi-tarbiyachining kasbiy faoliyati bilan belgilanadigan mezonlari bilan bog'liq bo'lib, quyidagi parametrlarini o'z ichiga oladi:

- tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga oid xususiyat va sifatlar;
- tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar;
- tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning hajmi va tarkibi;

- mutaxassislik bo'yicha metodik tayyorgarlikka egalik.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tizimli, tarbiyaviy faoliyat - bo'lajak o'qituvchilarning, tarbiyachilarning, mamlakat ziyolilarining g'oyaviy qarashlari, mafkuraviy immunitetlarida o'z aksini topadi, uning natijasida jamiyatning gullab yashnashi, ravnaq topishi, kishilarning ijtimoiy hayotining farovonligi hamda yoshlarning har tomonlama kamol topishiga zamin yaratadi.

Tarbiyaviy faoliyat tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat (?-rasmga qarang):

**TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK**



Bu esa bo'lajak ta'lim beruvchilarning zimmasiga kelajak avlodlarni yurt ravnaqi uchun ulkan hissa qo'shish, Vatanga sadoqatli bo'lish, ijtimoiy muhitda insonlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, manfaatlar to'qnashuvini chetlab o'ta olish, halol, pokiza, insonparvar, o'z vatani kelajagi uchun qayg'uradigan, ma'naviy-axloqiy kompetentli etib ta'lim-tarbiya berish vazifasini qo'yib bermoqda. Mana shu fazilatlarni o'zida mujassam eta olgan, o'z kasbini mutaxassisi bo'lgan, bir vaqtda verbal va noverbal ta'lim

olishni uddalaydigan va ta'lim berishni eplay oladigan bo'lajak mutaxassislariga yuksak cho'qqilarga erishgan, ma'nan yetuk, barkamol, ijtimoiy faol inson sifatida shakllanadilar.

Amerika Qo'shma Shtatlarining 1991-yildagi "Amerika – 2000: ta'limni rivojlantirish strategiyasi" dasturida yetuk shaxsga xos bo'lgan fazilatlar qatoriga xolislik, to'g'rilik, mas'uliyatlilik, puxtalikka e'tibor qaratiladi. Bu mamlakatda 2001-yilda qabul qilingan "The Student Citizen Act of 2001" qonunida yosh avlodlarda qanday sifatlar tarbiyalanishi lozimligi belgilab o'tilgan. Ushbu huquqiy hujjatda bo'lajak o'qituvchilar-yoshlarda quyidagi fazilatlarining tarbiyalanishi qonun tomonidan talab etilgan:

**1. To'g'ri qarorlar qabul qila olish.** Maqsadlar ichidan eng muhim va afzallarini tanlab olish, o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan o'ylab, sog'lom fikrlash orqali to'g'ri qaror qabul qila olish.

**2. Dovyuraklik.** O'z nuqtayi nazariga ega bo'lish, olomondagi noto'g'ri fikrlarga qarshi tura olish, o'z vijdoniga sodiq qola olish, qat'iyatlilik. Ezgu fazilatlar, xislatlar egasi bo'lish bilan birgalikda hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan, omadsizliklardan, o'zligini namoyish qilishdan qo'rqmaslik. Bo'lajak o'qituvchilarga o'z huquq va majburiyatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, sustkashlik, o'zi kuchiga ishonmaslik kabi kamchiliklarni bartaraf qilish.

**3. Halollik.** Halol bo'lish, ishonchli, to'g'riso'zlikka o'rgatish. Har qanday vaziyatlarda adolatli va g'urur bilan ish olib borishga o'rgatish.

**4. O'zaro hurmat.** Insonlarga, shuningdek ishxonada rahbariyatga, hodimlarga, o'ziga, mulkiga, Vatanga hurmatda bo'lishga o'rgatish.

**5. Mehribon bo'lish.** O'zgalarga xushmuomala, e'tiborli bo'lish, yordamga muhtojlarga yordam berish, o'zgalarni to'g'ri tushunish, do'stlik, empatiya, sahiylik, o'ziga ravo ko'rmaganlarini o'zgalarga ham ravo ko'rmaslik kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

**6. Qat'iyatli bo'lish.** Qiyinchiliklarni sabr va qat'iyatlilik bilan yengib o'tish, boshlagan ishini sabr bilan oxirigacha yetkazish.

**7. O'z-o'zini boshqara olish.** Maqsadga erishish uchun intilish, mehnat qilishdan qochmaslik, o'z irodasini



mustahkamlash, muntazam o'z ustida ishlash, o'z obro'si, sha'ni, or-nomusini himoya qila olish, pok tutish.

**8. Mas'uliyatli bo'lish.** O'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda ishonchlilik, sobitlik, o'z harakatlari uchun javob berish, jamiyat ijtimoiy hayotida faol bo'lish.

Tarbiyaviy faoliyatga tayyor bo'lajak o'qituvchi tarbiyaviy faoliyat jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashni tashkil qilishda o'quvchini tarbiyalash jarayonini tashkil qilishga ishonchini nazarda tutuvchi qat'iy qarashlarga egalik nazarda tutiladi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchining o'zi tarbiyalangan bo'lishi hamda pedagogik jamoada ham tarbiyaviy muhitni yarata olishi talab etiladi.

**Demak, tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik – bu tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni egallaganlik hamda mazkur faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdir<sup>42</sup>.**

*Tarbiyaviy faoliyatga tayyor bo'lish bosqichlari:*

kasbga moslashish;

bo'lajak o'qituvchini o'z-o'zini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash zarurligini anglashi;

kasbiy faoliyatida o'z - o'zini faollashtirishi;

pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning shakllantirilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, tarbiyaviy faoliyat – tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, mazmuni, funksiyalarini bilish, ijobiy natijalarni kafolatlashga qaratilgan pedagogik qobiliyatdir.

*Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorliklarining quyidagi uch muhim jihati bor.*

1. Psixologik tayyorlik (tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishni his qilish va unga ruhiy jihatdan tayyorlik);

2. Nazariy tayyorlik (tarbiya, milliy tarbiyaning mohiyati, uni mazmuni, tamoyillari, amalga oshirish shakl va metodlari haqida aniq tasavvurning mavjudligi);

---

<sup>42</sup>Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish. Monografiya. LESSON PRESS nashriyoti. –T.: , 2023.

3. Amaliy tayyorlik (tarbiyaviy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan malakalar to'plami). Mazkur jihatlarni o'zlashtirish pedagogik va tarbiyaviy faoliyat samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

**Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning maqsad va vazifalari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19- yanvardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishi masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasida:

mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi platformasi, strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish;

uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish;

o'zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirish, xorijda va yurtimizda uni o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish;

xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasini oshirish borasidagi ishlarni kuchaytirish;

yoshlarimizga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-konimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash<sup>43</sup> kabi vazifalarning belgilanishi bejiz emas.

Chunonchi, yoshlar barcha jamiyatlarda bo'lganidek, bizning mamlakatimizda ham aholini eng harakatchan, jismoniy baquvvat, g'ayratli, ilm-fanga mayli va ishtiyoqi baland qismidir. Shuning uchun ham farzandlarimizning kamolga yetishi nihoyatda dolzarb va ayni mahalda g'oyatda mashaqqatli hamda ko'pqirrali jarayondir. Ko'rinib turibdiki, yosh avlodning qay darajada tarbiyalanishi, ana shu tarbiya jarayonini amalga oshirishga ko'mak beradigan omillar, vositalar va yo'llarning to'g'ri

<sup>43</sup>Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Tasvir nashriyot uyi. Toshkent.2021y. - 36 6.



belgilanishiga bog'liqdir.

Insonparvarlik tarbiyasi, eng oliy insoniy qadriyatlar, qat'iylikni tarbiyalash, halollik, his-tuyg'ularning chuqurligi; munosabatlarda mas'uliyatli yondashuvlarni tarbiyalash, huquqiy madaniyatni yuksaltirish; mehnatga bo'lgan ehtiyojni, mehnatsevarlikni hayotning eng oliy qadriyati moddiy farovonlik, ijodkorlik manbai sifatida qarashni tarbiyalash; xulq madaniyatini, muloqot madaniyatini tarbiyalash; o'z qadrini bilishni tarbiyalash; real hayotiy vaziyatlarda o'zlashtirilgan axloqiy tushunchalarga muvofiq bilish, tushunish va harakat qilish istagini rivojlantirish; ekstremal vaziyatlarda kurashish va omon qolish qobiliyatini tarbiyalash; o'zining irodasini, kuchli va zaif jihatlarini tanqidiy tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish; milliy urf-odatlar, xalqlar, an'ana va qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; o'zi haqidagi fikrlarni tinglash, eshitish, ko'rish, anglash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda pedagogik fanlarni o'qitish imkoniyatlarini, jumladan pedagogika kursining salohiyati, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qiladigan o'quv fanlari mazmuni hamda talabalar bilan tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar shakli va usullari o'rganiladi.

Bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali bo'lishi va ko'zlangan natijalarga erishilishi jarayonida muayyan integral pedagogik shartlarga rioya etishni taqozo qiladi. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning quyidagi shartlariga amal qilish bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni mazmunli tashkil qilish natijadorligiga xizmat qiladi:

- har bir tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning asosiy maqsad va vazifalarini oldindan belgilash;
- erishiladigan natijalarni prognozlash;
- tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish natijalarini ilmiy jihatdan asoslash;
- tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning integrativ loyihasini ishlab chiqish;
- zamonaviy, innovatsion, ilg'or texnologiyalarni erishiladigan


natijani kafolatlashga safarbar etish;

- bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni maksimal ilmiy aniqlikda tashkil etish;

- bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonida bixevioristik metod va vositalardan foydalanish;

- bo'lajak o'qituvchilarning faolliklarini oshirish;

- erishilgan yuqori natijalarni baholash, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash.



Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda quyidagi masalalar yechish ijobiy natijalar beradi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarga tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir bilimlarni berish hamda tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyat mazmunini boyitishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning muvaffaqiyatga erishishi uchun qulay vaziyat yaratish, tadbirlar uchun tanlanadigan materiallarni



tanlay olish va saralash.

3. Tarbiyaviy faoliyat jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning qiziqishlari, intilishlarini izchil tarzda qo'llab-quvvatlash.

4. Tarbiyaviy faoliyatni bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy tajribalari, bilimlari zaxirasi bilan uyg'unlashtirilgan holda loyihalashtirishni tizimli yo'lga qo'yish talab etiladi.

***Tarbiyaviy faoliyat jarayonida pedagogik texnikadan foydalanish.*** Pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi.

Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi.

Ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi hislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar:

1) O'qituvchining shaxsiy hislatlari: *bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.*

2) Kasbiga xos bilimlari: *ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik*

*imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.*

3) Kasbga xos hislatlari: *milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.*

4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: *dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamosini boshqara olishi.*

5) Tashkilotchilik malakalari: *o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.*

6) Kommunikativ malakalari: *o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.*

7) Gnostik malakalari: *o'quvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.*

8) Ijodiy hislatlari: *o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi.*

Psixolog olimlarning fikricha, ushbu professiogramma yosh o'qituvchilarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi. Demak, o'qituvchi professiogrammasi ham pedagogik texnikani egallashning muhim xususiyatlaridan biri



bo'lib, o'qituvchilarning o'z kasbiy texnikasini mukammal egallab, rivojlantirib borishiga va o'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanishni his etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchilarning tinimsiz pedagogik mehnati tufayli yuzaga keladi. *O'qituvchining pedagogik texnikasi – pedagogik faoliyatining tashkiliy shakli bo'lib, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, behad uzoq ijodiy izlanishlar va azob uqubatli kechinmalar, tinimsiz pedagogik faoliyat, o'qituvchining fahm-farosati, bilimi va mahorati bilan amalga oshiriladigan qizg'in ijodiy mehnatining mahsulidir.*

O'qituvchining pedagogik texnikasi ham vatanparvarlikka, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashga, o'qituvchilarning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga asoslangan bo'lishi shart.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining hatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA - bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko'z va chehra muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan o'qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o'qituvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'qituvchilar o'qituvchining muomalasi va hatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'qituvchilarga ta'lim va tarbiyaviy

topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko'z, chehra o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o'quvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar o'qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma'naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekam-u ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasida ifodalangan nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilish aslo mumkin emas.

PANTOMIMIKA – bu o'qituvchining gavdasi, qo'l, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni, gavda, qo'l, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq



bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi.

O'qituvchi avvalo tarbiyachi sifatida o'zida yuqoridagi malakalarni shakllantirishi, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirib, pedagogik texnikani egallashning imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Shunda u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi. Shunday qilib, o'qituvchining tashqi ko'rinishi ham pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib – tarbiyalanuvchilarga ko'rib, eshitib turgan narsalarini erkin fikrlash orqali, o'z mulohazalarini mustaqil, cho'chimasdan o'qituvchiga yetkazish imkoniyatini beradi. *“Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin”* – deb yozgan edi taniqli pedagog A.S. Makarenko.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasining mazmunini bayon eting.*
2. *Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasining mohiyatini tafsiflang.*
3. *Pedagogik texnika tushunchasini yoritib bering.*
4. *Tarbiyaviy faoliyatdagi pedagogik texnikaning tutgan o'rni nimadan iborat?*
5. *Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik texnikadan foydalanishga doir misollar keltiring.*
6. *Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning maqsad va vazifalari nimadan iborat?*
7. *Pedagogik texnikaning shakllantirish qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?*
8. *Pedagogik texnika tamoyillarini sanab bering.*

## **MAVZU: TARBIYAVIY FAOLIYATDA PEDAGOGIK MAHORAT**

### **Reja**

1. Tarbiyachilik mahoratining mazmuni va jarayoni
2. Tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlari
3. Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik mahoratning o'рни va roli.

***Tayanch tushunchalar:** tarbiya, faoliyat, tayyorgarlik, tushuncha, mazmun, mohiyati, pedagog, texnika, yuksak malakali kadrlar; ong mahsuli; tarbiya jarayoni; tarbiyaning maqsadi; komil inson tarbiyasi; o'qituvchining tarbiyachilik mahorati; tarkibiy qismlar; shaxsning umummadaniyat unsurlari; texnologik tizim; ijtimoiy psixologik tizim; o'z-o'zini tarbiyalash; ixtiyoriylik; o'z-o'zini anglash; inson kamoloti; tarbiyalash metodlari.*

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. *Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2022.*
3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
4. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*

**Tarbiyachilik mahoratining mazmuni va jarayoni.** Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan



maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Ko'pchilik yosh o'qituvchilarda, ta'lim berish mahoratiga qaraganda tarbiyachilik mahoratini egallash jarayoni qiyin kechadi. Albatta buning obyektiv sabablari bor: tarbiya tushunchasi, insonning aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish, axloqan pok, estetik didli, mehnatsevar qilib tarbiyalash omili bo'lib, ta'lim berish ko'nikmalarini egallashga qaraganda keng ma'nodagi tushuncha bo'lganligi uchun doimo ziddiyatlarga va tasodifiy hodisalarga boy. Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidir" – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O'zining kasbiy mahoratini endigina boshlagan yosh o'qituvchilarda tarbiyachilik mahoratining ko'nikma va malakalarini egallash qiyin shakllanadi. Bunga asosan, yosh o'qituvchilarda kasbiy sifatlar tizimini egallash harakati bilan bog'liq subyektiv sabablar mavjud bo'ladi. Bu nimani nazarda tutadi? Boshlovchi o'qituvchining ziddiyatli vaziyatlarda o'quvchilar orasida o'zini tuta bilishi, xilma-xil tarbiyaviy usullardan foydalanib, ko'zlangan maqsadiga erishishi tarbiyachilik mahorati bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatni endigina boshlagan tarbiyachi-o'qituvchi jazolash usullarini ko'proq egallashga harakat qiladi. Ular oldida, go'yo tarbiyaviy maqsadlarga erishishning omili sifatida «qanday jazolamoq kerak?» muammosi barcha tarbiyaviy masalalarni hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi tarbiyachilik faoliyatining mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. O'qituvchi tarbiya mazmunini shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilaydi. Shu bilan birga, tarbiyaviy faoliyat



avvalo o'qituvchining pedagogik mahorati, yuksak tashkilotchilik faoliyatiga ham bog'liqdir:

1. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – o'quvchilar dunyosiga kirib borishida, ularning mehriga sazovor bo'lishida, ta'lim muassasasidagi pedagogik faoliyatni to'g'ri va ma'lum bir maqsadga yo'naltira olishida namoyon bo'ladi.

2. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – bu maktab o'quvchisini har taraflama rivojlantiruvchi pedagogik vaziyatlarni to'g'ri tashkil qila olish malakasidir.

3. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – bu «o'qituvchi-o'quvchi» munosabatini bir zumda ijobiy tomonga hal qilish emas, balki o'quvchilar jamoasi va alohida shaxsga tarbiyaviy ta'sir etish, jamoada tarbiyaviy muhitni bir maromda tashkil qilishdir.

4. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati – bu faqat kasbiy bilimlarni mukammal egallash emas, balki tarbiya qonuniyatlari hamda o'quvchilar jamoasi hayotini tashkil qilish qonuniyatlariidan kelib chiqadigan usul va metodlarning amaliyotga ijodiy tatbiq etishidir.

5. Bilim va unga asoslangan ko'nikma va malakalar – o'qituvchi tarbiyachilik mahorati mohiyatiniig asosi hisoblanadi. O'qituvchidan tarbiyachi sifatida intellektual qobiliyatlar tizimiga ega bo'lish talab etiladi. U tarbiyachi sifatida o'zida ushbu qobiliyatlarni yillar davomida shakllantirib borishi zarur.

O'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchi va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchi ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;

- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;

- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;

- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;

- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;

- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatish qobiliyati;
- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarni ko'ra olish va takomillashtirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

***Tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlari.*** Pedagogikada o'qituvchining tarbiyachilik mahorati doimiy o'zgarib turadigan, jamiyat talablaridan kelib chiqib, to'ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega. Uning bir-biri bilan bog'liq quyidagi tarkibiy qismlari o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatida muhim yo'nalishlar bo'lib doimo, mazmunan boyitilib boriladi:

**Tarbiyada maqsadning aniqligi.** O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiyaviy maqsad aniq belgilab olingan va o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklangan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalariga ko'ra o'qituvchiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilayotgan maqsad – erkin, ijodkor, mustaqil fikr



egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa – bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlarini, ya'ni, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

Texnologik tizim yoki tarbiya texnologiyasi bu pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan natijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko'rsatadigan jihatlarni tanlash tizimidir. Bu tarbiyachi-o'qituvchining o'quvchilar amaliy faoliyatini to'g'ri tashkil qila olishi va boshqarishining ko'nikma va malakalariga ega bo'lishidir. Texnologik jarayon natijalaridan asosiy maqsad, tarbiyachi ijodiy izlanishlar tufayli, o'quvchilar tashabbuskorligini ta'minlaydi. Tarbiyachi-o'qituvchining o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish uyushmalari bilan hamkorlikda ishlashi bilan murakkab masalalarni hal qilish uchun vaqt ajratadi. Texnologik tizimda tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbirlarni muvaffaqiyatli uyushtirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Uyushqoqlik bilan o'tkazilgan tadbirlar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini, bilish tafakkurini, kasb tanlashga nisbatan qiziqishini, erkin fikrlashlarini, o'z fikr mulohazalarini cho'chimasdan to'g'ri tasavvur bilan bayon etish tushunchalarini shakllantiradi.

Tarbiyachi-o'qituvchining mahorati har bir o'quvchiga alohida yondashuvni topish, o'quvchi iste'dodida namoyon bo'ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga karatiladi. Tarbiyachi-o'qituvchi tomonidan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga qo'yiladigan asosiy talablar: tarbiyaviy tadbirlar hech qachon tasodifiy bo'lmasligi va har bir tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rilishi lozim.

**Ijtimoiy psixologik tizim.** O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati – bu tarbiyalanuvchilarni ma'lum bir maqsadga muvofiq tarbiyalash uchun mo'ljalga olish san'atidir. O'quvchilar har kuni quvonchli daqiqalarni, katta va kichik ko'ngilsizliklarni birgalikda boshdan kechiradilar. Ular tarbiyachi o'qituvchining o'zlariga nisbatan yaxshi va yomon, yoki insoniy munosabatlarini tez ajrata

oladilar va bunga darhol o'z "javoblarini" qaytaradilar. Ijtimoiy va psixologik bilim va malakaga ega bo'lish tarbiyachi-o'qituvchida uddaburonlikni va sezgirlikni shakllantiradi. U o'quvchilar jamoasini uyushtira oladi, o'quvchilar qalbiga yo'l topadi. Chunki o'quvchilar jamoasi umumiy maqsad asosida tashkil topgan, yuqori darajada uyushtirilgan birlashma bo'lib, shaxs shakllanishining yetakchi omili sifatida ijtimoiy munosabatlar ichida muhimi hisoblanadi.

Bolalar orasidagi munosabatlarga mohirona rahbarlik qilish uchun tarbiyachi jamoaning ichki va jamoalararo ziddiyatlarni ham bilishi kerak. Bu ziddiyatlarning barham topishi tarbiyachi shaxsi, uning tarbiyalanuvchilar bilan yaqin munosabatlariga bog'liq. Haqiqiy mohir tarbiyachi-o'qituvchi bu ziddiyatlarni bartaraf etishda o'quvchilar jamoasi, o'quvchilar o'zaro munosabatlarining kuchidan foydalanadi. Har bir o'quvchi o'zining ijtimoiy va psixik olamiga ega. Uni bilish, o'rganish o'qituvchidan psixologik nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi. O'quvchining jamoa bilan yaxshi munosabatda bo'lishi uchun o'qituvchi quyidagi omillarga e'tibor berishi shart:

- har bir o'quvchiga alohida pedagogik topshiriqlar qo'yish;
- jamoada o'zaro xayrixohlik, o'zaro yordam muhitini shakllantirish;
- oilaning tarbiyaviy ta'siridan o'z o'rnida fodalanish;
- o'quvchilarning o'zaro aloqalarini kuchaytiruvchi, ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi faoliyatlarini tashkil qilish;
- o'quvchilarga o'zaro teng, adolatli munosabatda bo'lish.

**Estetik tizim.** Agar tarbiyaviy vosita, usul va metodlar orqasida yetakchi g'oya turmasa, texnologik tizim va ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimi maqsadli tarbiyaviy natijalar bermaydi. O'qituvchining har bir harakati, o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi faoliyati hayotiy me'yor va qadriyatlar asosida olib borilishi kerak, shundagina, o'quvchining tarbiya jarayonidagi faolligi ta'minlanadi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchining hayotiy tajribalari, shaxsiy namunalari ham estetik tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaligini



unutmaslik kerak. Shuning uchun o'qituvchining jamoaga nisbatan diqqat motivlarini shakllantirishda avvalo tarbiyachining estetik jihatdan tarbiyalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tizim tarbiyalanganlikning yuqori darajasini belgilovchi vosita bo'lib, uning talablarini bir maromda o'quvchi ongiga singdirib borish uchun har bir o'quvchi, sinf, maktab jamoasi harakat qiladi. Estetik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun o'qituvchidan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta'sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi:

- tarbiyada o'quvchilar jamoasi muhitining birligi;
- o'quvchilar mustaqilligi va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi;
- fuqarolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonch birligi;
- o'quvchi shaxsiga ehtiyotkorona munosabat;
- jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- bolalarning axloqiy va jismoniy sog'ligi haqida qayg'urish;
- axloq me'yorlariga amal qilish.

**O'z-o'zini anglash.** Mamlakatimizda mustaqillikdan keyin joriy etilgan "Ta'limning yangi modeli, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr qimmatini angelaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz". ("Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" "Muloqot" jurnali, 1998 yil, 5-son). O'qituvchining vazifasi va burchi tarbiya natijasida o'quvchida milliy qadriyatlarga e'tiqod, milliy mafkura, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat. Tarbiya mazmunining eng muhim xususiyatlaridan biri – bu insonning hayotiy jihatdan o'z-o'zini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati o'zi yashab turgan muhitning subyektivi sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o'z-o'zini anglash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarni, o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga o'rgatsagina tarbiya jarayoni samarali natijalar beradi. O'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash metodlariga ko'nikma hosil qildirish o'qituvchining mahoratiga, tarbiyaviy

faoliyatni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. O'quvchilar odatda yaqin kishilarining, ba'zan o'qituvchilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Shuning uchun o'qituvchi o'z pedagogik mahoratiga tayanib, o'quvchi qalbida o'ziga nisbatan ishonch, mehr tuyg'ularini uyg'ota olishi lozim. O'quvchilar o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, kiyinishi, muomalasini, kishilar bilan o'zaro munosabatini kuzatib boradilar. Bu ham o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashda ta'sirchan vosita hisoblanadi va ijtimoiy mavqeini oshirishning muhim usulidir. O'quvchilar o'qituvchining bevosita nazoratida ta'lim va tarbiya jarayonida, dam olishda, jamoat ishlarida, o'z-o'zini tarbiyalash usullariga ko'nikma hosil qiladilar, bu usullar o'quvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga undaydi. O'qituvchi tarbiya jarayonida quyidagi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanishi mumkin:

- o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qilish;
- o'z-o'zini baholash (tengdoshlariga taqlid qilish asosida);
- izohlash (o'quvchining ma'naviy-axloqiy sifatlari izohlanadi);
- munozara (o'quvchilarga siyosiy, madaniy, estetik, huquqiy mavzularda og'zaki ta'sir o'tkazish);

**Ixtiyoriylik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Zero, erkinlik ta'minlangan jamiyatda fikr rivojlanadi, fikr rivojlanishi esa jamiyatning kuchli bo'lishi garovidir. Erkinlik tufayli o'quvchi irodasi shakllanadi, u bir necha imkoniyatlardan birini ixtiyoriy tanlab oladi, ta'lim tizimida o'quvchilarga ushbu imkoniyatlar yaratilgan, ularning erkinlik huquqlari ta'minlangan.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi subyektiv va obyektiv omillar ko'zga tashlanadi. O'qituvchi subyektiv omillar asosida o'quvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, o'quvchi shaxsini maqsadga



muvofiq shakllantirish borasida o'qituvchi muvaffaqiyatga erishadi. O'qituvchi tarbiya jarayonining ko'p qirraliligini, uni tashkil etish va boshqarishda nafaqat tarbiyachi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy o'ziga xos jihatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmazligi kerak.

**Tarbiyaning uzluksizligi.** Tarbiyaning yana bir xususiyati uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiyada muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi bolalarni o'quvchilik yillarida to'g'ri tarbiya berish lozimligini talab etadi. Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu — o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish lozim.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchining tarbiyaviy faoliyati yetakchi o'rin egallasa ham, o'quvchilarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki, o'quvchilar ta'lim muassasalarida ma'lum muddatgina o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri va nazorati ostida bo'lib, qolgan bo'sh vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, do'stlari davrasida, har xil tashqi muhitda o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'tillar davrida o'quvchilar ta'lim muassasasi o'qituvchisi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasasida bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan

bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining ta'siri hamda nazoratida bo'lishlari kerak.

**Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.** Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun reja tuzish va uni bajarish tarbiya samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'lidir. O'qituvchining tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi – ijodiy jarayon. O'qituvchi tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda asosan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun g'oyalariga tayanadi. Uning mazmunini o'quvchilarni o'qishga, ilmga ijobiy munosabatni tarbiyalash egallashi kerak.

Tarbiyaviy ish rejasida mehnat tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat tarbiyasi rejasini tuzar ekan, o'quvchilar mehnatining mashaqqati, charchoq va hordiq haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini hisobga olishlari kerak. Ota-onalar bilan ishlash bo'limida oila, maktab tarbiyasini tavsiflaydigan qisqa ma'lumotlar beriladi. Mohir o'qituvchi tarbiyaviy ish rejasiga aniq bir maqsadni qo'yadi. Tarbiyaviy ish amaliyotida xulq me'yorlaridan chetga chiqqan o'quvchilar ham uchraydi. Ular tarbiyasi «qiyin» o'quvchilar. Ular bilan tarbiyaviy faoliyat olib borish – bu alohida e'tiborni, sabr-toqat va mahoratni, qalb sezgirligini talab qiladigan murakkab ishdir. Tarbiyachi bunday o'quvchilarni pedagogik jihatdan o'rganish dasturini tuzishda quyidagi jihatlarga e'tibor berishi lozim: shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi; oilada umumiy rivojlanish darajasi; axloqan tarbiyalanganlik darajasi. Dastur asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha alohida tarbiyaviy ishlar rejasini tayyorlanadi:

1. O'quvchi olamining hayotiy yo'nalishlarini diqqat bilan o'rganish.
2. Xarakteri va xulqidagi og'ishganlik sabablarini o'rganish.
3. Ijobiy yo'nalishga, o'zgarishga ta'sir etuvchi hayotiy ko'rinishlarni tanlash.
4. Muloqotni o'smirning «psixologik hudud»idan izlash.
5. O'quvchilar xulqida namoyon bo'ladigan har xil o'zgarishlar ustidan doimiy nazorat o'rnatish.



Ma'lumki, tarbiyalanganlik natijalarini hisobga olish o'quvchilar xulqida, ularning o'qish va mehnatga munosabatlaridagi o'zgarishlarni ifodalaydigan pedagogik o'lchamdir. Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash masalasi murakkab masaladir. Hech qachon tarbiya natijalarini o'tkazilgan tadbirlar, ishtirok etgan o'quvchilar soni bilan belgilab bo'lmaydi. Tarbiyaviy ish samaradorligi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi bilan baholanadi.

Tarbiyachi-o'qituvchi o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini chuqur his etgan holda, vaziyatni hisobga olib mavzu tanlashi, uni tayyorlash va o'tkazishda o'quvchilarni keng ko'lamda jalb etishi, yuksak samaradorlikni ta'minlanishiga e'tibor berish bilan birga, har bir o'quvchiniig xohishini hisobga olishi, keskin rad etmasdan, yana o'ylab ko'rish, qiziqarliroq, soddaliroq yo'llarini topishing mumkin deb umidvor qilish o'rinlidir. Tarbiyachi ijodkor bo'lishi, o'quvchilarni ham ijodiy faoliyat yuritishga jalb etishi, har bir tarbiyalanuvchida o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga ishonch hosil qilishi lozim.

Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining

pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr mulohazasiga ishonchi va qat‘iy irodasi tushuniladi”.

Mahorat faoliyatda namoyon bo‘ladi. Pedagogika fanida “Pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta‘riflari mavjud:

pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo‘lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo‘ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);

“o‘qituvchining ilmiy bilimlari, ko‘nikmalari, metodik san‘ati va shaxsiy fazilatlarini sintezi” (A.I.Sherbakov);

“pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatli sifatlar majmui” (Pedagogik lug‘at);

“kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta‘minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o‘qituvchi faoliyatining gumanistik yo‘naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi” (I.A.Zyazyun);

“pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat‘iy irodasi tushuniladi” (I.P. Rachenko).

pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizxo‘jaeva);

“pedagogik mahorat – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta‘minlovchi faoliyatdir” (A.Xoliqov);



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “Pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta’rifni berish mumkin:

**Pedagogik mahorat** – bu o’quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo’naltirish, o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo’lgan faoliyatga moyillik uyg’otishdir.

Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo’lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o’zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to’g’riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo’llarini topish imkoniyati mavjud.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o’qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug’ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: *“O’qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug’ullanmog’i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o’xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o’qituvchidan hech qanday natija kutib bo’lmaydi”*.

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur’atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog’i keskin oshayotgan bir davrda o’qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro’y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o’n besh yillik samarali va kishi zo’rg’a ishonadigan voqea hisoblangan bo’lsa, hozir har yili, hatto har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma’lum bo’lgan yangi yo’nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo’lgan intilish beqiyos darajada o’sib borayotir. SHuning uchun hozir kunda o’qituvchi faqat o’z fani bo’yicha emas, balki o’z faniga yaqin bo’lgan sohalaridagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.

Bizga ma'lumki, ilg'or jamiyat fuqarosining, xususan o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlarga boyligi bilan baholanadi. *"Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmsizlikdandir"* degan edi yunon faylasufi Sokrat. Shunday ekan, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida.

Darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning **tarbiyalanganlik darajasidir**. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchilardan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi.

Pedagogik faoliyatning ikki muhim yo'nalishi mavjud ekani barchaga ayon: 1) ta'lim (didaktika); 2) tarbiya. Pedagogik diagnostikada ham ana shu ikki yo'nalish inobatga olinadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish darajasi – ma'lumotga egalik holati xususida avvalgi mavzuda so'z yuritildi. Ushbu mavzuda esa bevosita o'quvchining axloqiy tarbiyalanganlik (yoki tarbiyalangan) darajasi va uni tashxislash to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Aksariyat o'rinlarda subyektiv xarakterga ega "o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi" (yoki o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi) iborasi o'rniga umumiy tarzda "shaxsning tarbiyalanganlik darajasi" (yoki shaxsning tarbiyalanganligi) tushunchasi ishlatiladi. Qolaversa, shaxs (o'quvchi)ning tarbiyalanganligi tahlil qilinar ekan, ayni o'rinda "tarbiya", "tarbiyalash", "tarbiyalanganlik" tushunchalari ham



qo'llaniladi<sup>44</sup>. Shu bois ushbu tushunchalarga izoh berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shaxs – jamiyatning psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega azosi.

O'quvchi – umumiy o'rta yoki o'rta-maxsus ta'lim muassasasida tahsil olayotgan shaxs.

Tarbiya – 1) shaxsga bilim berish orqali unda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikma-malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilish, orqali uni voyaga yetkazish; 2) shaxsda axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikma- malakalarini, hayotiy tajribani hosil qilishga qaratilgan amaliy harakat, pedagogik faoliyat.

Tarbiya jarayoni – 1) muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni; 2) o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etilib, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Tarbiyalash – 1) o'quvchini tarbiyalab voyaga yetkazish, ulg'aytirish; 2) shaxsni tarbiyalash yo'lida amaliy pedagogik harakatlarni, faoliyatni tashkil qilish.

Tarbiyalanganlik - o'quvchida axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikmalari hamda hayotiy tajribaning shakllanganligi yoki rivojlanganligi.

Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi – o'quvchining axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining muayyan ko'rsatkichi.

Shaxs tarbiyalanganlik darajasining ko'rsatkichi – o'quvchining muayyan darajada axloqiy fazilatlar, mehnat ko'nikma-malakalari hamda hayotiy tajribaga egaligining o'lchovi.

Pedagogik jarayonda, shuningdek, tarbiyaning faoliyat sifatidagi darajasi ham belgilanadi. Mohiyatiga ko'ra, tarbiyaning muayyan darajasi – o'qituvchi, ota- onalar, kattalar yoki mutaxassislar tomonidan tashkil etilgan pedagogik faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichi sanaladi.

<sup>44</sup> Педагогика. Изохли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 262-б.



Shaxsning muayyan yosh davrlari tarbiyaning ma'lum darajasini ifodalaydi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyalanuvchisi muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lsa ham hali ularda mehnat ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Ammo u shu yoshda kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo'lish, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, o'ziga yoqmagan holatlarni ayta olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Tarbiya darajasining dinamik holati, ya'ni, o'quvchining axloqiy fazilatlari, mehnat ko'nikma-malakalari hamda hayotiy tajriba "hajmi"ning ko'payib borayotganligi uning shaxsida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligini, borliqqa, atrofdagilarga va o'ziga nisbatan qadriyat sifatida yondashayotganligini anglatadi.

Ta'limda ma'lum ma'lumot darajasiga ega bo'lishning aniq vaqt chegarasi, muddati (boshlang'ich sinf – boshlang'ich ma'lumot olish uchun, umumiy o'rta ta'lim – o'rta ma'lumotga ega bo'lish uchun, o'rta maxsus ta'lim – o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lish uchun, oliy ta'lim – oliy (kasbiy) ma'lumotga ega bo'lish uchun) belgilanadi. Tarbiyada ta'limdan farqli ravishda shaxsda ma'lum sifatni hosil qilish uchun muddat, vaqt chegarasi belgilanmaydi. Ayrim sifatlar shaxsning 80-90 yoshida ham hosil bo'lishi mumkin. Ba'zan shaxsda keksalikda ham avval ega bo'lgan ijobiy sifat o'rnida salbiy odatlar, yoki aksincha, salbiy illatlar o'rniga ma'naviy-axloqiy xislat namoyon bo'ladi.

Buning sababi tarbiyalovchi vaziyatlar, ichki (shaxsning hayotiy intilishlari, maqsadlari, tamoyillari, borliqqa, atrofdagilar va o'ziga bo'lgan munosabati) hamda tashqi (jamiyatda shakllangan qarashlar, ularning rasman yoki norasman tan olinishi, shaxs mansub bo'lgan mikromuhitdagi psixologik holat, shaxslararo munosabatlar va boshqa) omillarning shaxs tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri bilan izohlanadi<sup>45</sup>.

Shaxsni tarbiyalash (yoki shaxsning tarbiyalanish) jarayoni umr bo'yi davom etadi. Ammo, shaxsni tarbiyalashda "qiyin o'tish

---

<sup>45</sup>Определение уровня воспитанности подростков / Т. Н.Матафонова и др. // Инновационные педагогические технологии. Мат. IV Междунар. науч. конф. (г. Казань, май 2016 г.). – Казань: Бук, 2016. – С. 8-11.



davri” hisoblanadigan o‘smirlik davri alohida o‘rin tutadi. Aynan shu yosh davrida o‘quvchi shaxsida hayotiy maqsadlar, intilishlar, ijtimoiy qarashlar shakllanadi.

O‘smirlikning “qiyin yosh davri” bo‘lishi o‘quvchi organizmida kechadigan keskin fiziologik o‘zgarishlar va uning shaxsga psixologik ta’siri bilan bog‘liq. Shu sababli oilada, ta’lim muassasalarida o‘smir bilan ishlashga yanada jiddiy yondashishga e’tibor qaratiladi. Bunda o‘quvchi shaxsi, uning xatti-harakatlari va faoliyatiga nisbatan oqilona pedagogik talablarni qo‘yish, ularning izchil bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Har qanday pedagogik talab keskin taqiqlar va cheklovlardan xolis bo‘lishi lozim. Qolaversa, imkon qadar uning qo‘yilayotgan talabning o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi borasida fikrini bilish muhim. O‘quvchining fikri, o‘qituvchi, ota-onalar va mutaxassislarining yondashuvlari o‘zaro qiyosiy o‘rganilgan holda tarbiyaviy faoliyat rejalashtirilishi zarur. Tarbiya jarayonida imkon qadar har bir o‘quvchi uchun individual yondashuv bo‘lishi kerak. Zero, o‘quvchilar turlicha psixologik xarakter, fiziologik imkoniyat (ayniqsa, mehnat ko‘nikma, malakalarini shakllantirishda inobatga olinadi), hayotiy maqsadlar, muayyan darajada ma’naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaga ega.

Pedagogik diagnostika yordamida o‘quvchi shaxsning tarbiyalanganlik darajasiga oid ma’lumotlarga ega bo‘lish “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqish, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaning dinamik o‘shishini kuzatib borishga yordam beradi. Boshlang‘ich nazorat yordamida qo‘lga kiritilgan o‘quvchining rivojlanganlik darajasiga oid ma’lumotlar pedagogik diagnostikada orqaliq va yakuniy nazorat muddatlarini belgilash, tarbiyalovchilik faoliyatini rejalashtirish hamda tarbiya jarayonini izchil kuzatib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Ta’lim jarayonida bo‘lgani kabi tarbiyada ham yakuniy nazorat natijalari boshlang‘ich nazoratning natijalari bilan o‘zaro taqqoslanadi. Ular o‘rtasidagi farq tarbiyaviy faoliyat samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.



O'quvchining tarbiyasini tashkil etayotgan o'qituvchi, eng avvalo, tarbiya va ta'lim maqsadlarini ajratib olishi zarur. Tarbiya jarayonida o'quvchini intellektual rivojlantirish asosiy maqsadga aylanmasligi kerak. Zero, agar to'g'ri rejalashtirilsa va oqilona tashkil etilsa, o'quvchini intellektual rivojlantirish ta'lim jarayonida ta'milanadi. Eng muhimi, tarbiya jarayonida o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini, fiziologik-jismoniy imkoniyatlarini inobatga olishdir.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Tarbiyaviy faoliyatda pedagogik mahoratning o'rni va rolini yoritib bering.*
- 2. Milliy tarbiyani amalga oshirishda pedagogik mahoratning namoyon bo'lishi.*



## **MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY TARBIYA**

### **Reja**

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani amalga oshirish.

***Tayanch so'z va iboralar:** tarbiyaviy jarayon, ta'lim va tarbiyaning birligi, dastur talablari, malaka talablari, demokratik davlatlar, axloqiy talablar, irsiy-biologik jihatlari, sinchkovlik, ijtimoiy tarbiya.*

### ***Adabiyotlar ro'yxati:***

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «Ijtimoiy pedagogika» (darslik). T.: 2022.
3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
4. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*

***Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.*** Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning yangilanishi ta'limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning

uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir.



2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ning "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon samaradorligini oshirish va yangi sifat darajasiga ko'tarish masalasiga ustuvor o'rin ajratilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

- O'zbekistonning milliy tarkibi va diniy sharoitlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, milliy madaniyat va ma'naviyat asosida bolalarni to'liq va har tomonlama rivojlantirish;

- bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash, o'quv jarayonini bolaning shaxsiy fazilatlari, sog'lig'i holati va tabiiy moyilligini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- bolalarning aqliy rivojlanishi, xotira, e'tibor, fikrlash, tasavvur, qiziquvchanlik, sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish; ona tilini o'zlashtirish va muloqot madaniyati ko'nikmalarini singdirish;

- mehnat ta'limi, ekologik madaniyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga axloqiy yo'naltirish, hayotiy tajribani o'zlashtirish asoslarining boshlanishi; ota-onalarga, oilaga, O'zbekistonga muhabbat va hurmat;

- bolalarni o'zbek xalqi madaniyati, san'ati, urf-odatlarini, marosimlari go'zalligiga jalb qilish, ma'naviyatni rivojlantirish,



boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlari va urf-odatlariga hurmatni singdirish;

- xalq pedagogikasi, milliy madaniyat, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari, jahon pedagogik tajribasi yutuqlari asosida oilaviy va davlat maktabgacha ta'limni integratsiyalash;

- bolalarni maktabga psixologik tayyorlash, o'z ona tilini amaliy o'zlashtirish, o'yinda va bolalar faoliyatining boshqa turlarida kognitiv faollikni, ijodiy va badiiy qobiliyatlarni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ustuvor tamoyillar quyidagilar etib belgilangan: har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi; har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi; maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi; maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi; bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv; maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi; ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi; ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi; maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda salomatlik holatiga muvofiqligi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan bolalarda dastlabki bilim, ko'nikmalarni shakllanishi pedagog tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shu bois, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini hozirgi zamon talablariga monand ravishda kasbiy faoliyatga tayyorlashni taqazo qilmoqda. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

1. Tarbiyachi yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kasbiy bilimlarni puxta egallab, zarur metodik adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay

oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan shaxs bo'lishi lozim.

2. Tarbiyachi kuzatuvchanlik qobiliyatini yaxshi egallagan, ularning xulq-atvori, xatti-harakatlarini tahlil etib, bolaga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo'lishi kerak.

3. Tarbiyachilarning bilishga qiziqishlarini oshirish, ularning bog'lanishli nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachining nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham va tushunarli bo'lishi kerak.

4. Tarbiyachi bolalarning har tomonlama uyg'un rivojlanishlari uchun ularni faoliyatning xilma-xil turlariga faol jalb eta olishi, ularda qiziquvchanlik, izlanuvchanlikni oshirib borishi, bolalarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini muntazam tashxis etib, korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi kerak.

5. Har bir mashg'ulot uchun zarur materiallarni oldindan tayyorlab qo'yish, tarbiyalanuvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirib borilishiga erishishi, o'rganilayotgan materiallarni tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishini ta'minlashi lozim.

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi, ularning faoliyati (o'quv, o'yin, mehnat) mazmunli bo'lishi uchun kerakli materiallar bilan ta'minlashi zarur.

7. Bolalarning jismoniy va psixologik holatini to'g'ri baholay olishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida e'tiborga olishi kerak.

8. Kun davomida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini muntazam tahlil qila olishi va uni yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topishi zarur.

9. Tarbiyachi muntazam ravishda ota-onalar bilan individual va jamoaviy suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarni tarbiyalashga doir zamonaviy metodikalar bilan tanishtirib borishi, oilalarda qo'llanib 50 kelayotgan ijobiy shakl, metod va vositalardan o'zining tarbiyaviy faoliyatida foydalanashi lozim.

10. Tarbiyachi bolalarga xayrixoh munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun maqbul psixologik muhitni yuzaga keltirishi,



bolaning qalbi va yuragiga joy topa olishi, qunt va sabrli bo'lishi, bag'rikeng va yuksak ishonchga ega bo'lishi lozim.

***MTMda ta'lim-tarbiya vazifalarni amalga oshirish va rahbarlik qilish.*** Fiziologiya, gigiena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy- tadqiqotlar natijasida MTMda kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi prinsiplari yuzaga keldi:

Har bir yosh guruhda bolalarni jamoachilik ruhida tarbiyalash va har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish. Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigienik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta'minlash. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini (o'yin, mehnat, ta'lim) tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan prinsiplar asosida almashtirib borish MTMning har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat kilish sayrlar o'tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish MTMsidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.



MTMsining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari xal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar tizimini egallaydilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, va malakalar MTM dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiatlarini e'tiborga olib ma lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi. Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o'zining haftalik mashg'ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg'ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlash. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi. Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinchi mashg'ulotga engilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi. Mashg'ulotlarni quyidagicha tartibda almashtirib borish mumkin: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va hokazo. Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini engilroq o'zlashtirib olishga imkon yaratadi. O'yin bolalarning muhim



faoliyati hisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarini, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun kattalar bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobiy tomonini aks ettirish xohishini uyg'otishlari kerak. Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq, madaniyati irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: chunki hohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim bo'ladi.

Kun davomida tizimli ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e'tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, ahloqiy munosabatlariga qaratiladi.

Bolalarning ovqatlanishga, mashg'ulotga tayyorlanishlari, tabiat burchagida navbatchilik vazifasini bajarishlari, ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi. Bolalarning mehnat faoliyatini ularning jismoniy va aqliy faolligini o'stiradigan qilib tashkil etilishi kerak. Buning uchun ularni hamma kerakli materiallar va mehnat qurollari bilan ta'minlash lozim. O'z-o'ziga xizmat bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi.



Har kuni ertalabki mashg'ulotdan keyin, kunduzgi uyqu, kechki nonushtadan keyin sayr uyushtiriladi. Sayrda ijodiy o'yinning barcha turlaridan foydalaniladi: bolalarga tanish hamda yangi qoidali o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi bolalarning xilma-xil mustaqil faoliyatlari uchun shart-sharoit yaratadi: kerakli material, asbob-anjomlar, o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi, maydonchada, guruh xonasida o'yin uchun joy tayyorlaydi. O'yin va mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy gigiyenik jihatdan talabga javob berishi (yorug', ozoda, yaxshi shamollatilgan, nam latta bilan pollari artilgan, havo temperaturasi normal bo'lishi) kerak.

Sayrda tabiatni, kattalar faoliyatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish imkoni yaratiladi, sayr boshlanishida bolalarning mustaqil xatti-harakat qilishlari: yugurish, o'tirish, gaplashish va tomosha qilish uchun sharoit mavjud bo'ladi. Keyin harakatli o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, kuzatish, turli-tuman ijodiy o'yinlar tashkil etiladi.

MTMda bolalar turmushini tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Har bir yosh guruhida tashkil etilgan kun tartibi bolalarning uyquga, ovqatlanishga, faol mehnat qilishga bo'lgan talabini to'la qondirishi, bolalaida ijobiy hissiy kayfiyatni saqlash, bolalar va kattalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish uchun kerakli shart-sharoit yaratilishi kerak.

Amalga oshiriladigan tadbirlarda tarbiyachi bolalarda madaniy-gigiyenik malakalarni: ijtimoiy xulqni, xatti-harakatlar madaniyatini tarbiyalab boradi. Bolaning sog'lom bo'lib, to'g'ri rivojlanishi uchun tinch va chuqur, kerakli uyqu muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi guruh xonasida bolalarni uyquga yotqizishdan avval va keyin xonani shamollatishi, tinchlikni ta'minlashga e'tibor qaratishi zarur.

**2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani amalga oshirish.** Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani amalga oshirish bolani o'zi unib o'sgan vatani, millat hayoti, san'ati bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Tarbiyachi vatanparvarlik va milliy ta'lim uzviy bog'liqligi hamda milliy



tarbiyaning tarkibiy qismi ekanligini hisobga olgan holda pedagogik jarayonni rejalashtirishi, shu bilan birga bolalarning yosh va o'ziga xosliklarini e'tiborga olgan holda milliy tarbiya mazmuni, metodi va vositalarini tanlash kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani amalga oshirish o'ziga xos algoritimga ega bo'lib, u quyidagilarni taqozo etadi:

1. Ona tilini va ona yurti madaniyatini o'rganish.
2. Boshqa millat tili va madaniyatini o'rganish.
3. Boshqa millat madaniyatini tolerant yondashuvga tayangan holda o'rganish.
4. Oilaviy an'analar asosida milliy tarbiyani o'rganish.
2. Hududni o'rganish asosida (qishloq, qishloq, shahar).
3. Mamlakatni o'rganish asosida.
4. Dunyoni o'rganish (butun koinot).

Bu jarayonda tarbiyachilar bolalarga milliy tarbiya berishda kundalik hayotda milliy madaniyatiga qiziqish uyg'otishi, milliy tarbiya berish jarayonining barcha sohalarida muntazamlilikni, uzviylikni ta'minlashi kerak. Tarbiyachi rahbarligida tashkil etiladigan milliylikni targ'ib etuvchi tadbirlar, ertaliklar, ona yurt ko'chalariga sayr, tabiatga ekskursiyalar, milliy o'yinlar, xalq ertaklarini o'qish orqali bolalarda millati, xalqining hayoti va madaniyati haqida ko'proq ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga boshqa millat bolalariga do'stona munosabatni rivojlantirish uchun ham turli tadbirlarni tashkil etish, bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodi asarlarini o'qish usullaridan foydalanish, ular bo'yicha illyustratsiyalar va suhbatlarni uyushtirish, milliy bayramlarni o'tkazish, kuzatish ishlarini olib borish, nafaqat milliy tarbiyani, balki bolalarda baynalminallikni tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Turli yoshdagi bolalar tarbiyasida akseoloik, qadriyatli, mazmunli yondashuvlardan foydalanish, pedagog mahorati, uning jarayonga ijodiy yondashuvi, bolalar muassasalarining moddiy imkoniyatlari milliy tarbiya jarayonidagi muvaffaqiyatni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz milliy-ma'naviy tarbiyani amalga oshirish**<sup>46</sup>. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasiga ko'ra maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari 3 — 6 (7) yoshidagi bolalarni qamrab oladi.

Mazkur davrdagi (3 — 7 yoshli) bolalarga xos xususiyatlar quyidagilarda ko'rinadi, jumladan:

o'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi;

o'z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko'nikmalarining yuzaga kelishi;

shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo'lishi;

ijtimoiy motivlar va milliy an'analarga qiziqishning paydo bo'lishi, o'zini namoyon qilishga intilish;

muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug'ilishi;

o'ziga o'zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma'naviy-axloqiy munosabatning paydo bo'lishi;

bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o'yinlar, mashg'ulotlar;

nutq va uning asosida ma'naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga: asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish; muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish; o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish; faoliyat va syujetli-rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish; kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o'rgatish; kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish; o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatib boriladi.

<sup>46</sup> <https://lex.uz/docs/4676839>. 2019 - yil 31 - dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"



“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida maktabgacha ta’lim-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o’z tuyg’ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg’otish, milliy an’analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g’amxo’rlik qilish kabi ehtiyojlar tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bunda ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalardan, o’quv treninglari, seminarlar, forumlardan hamda O’zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan tayyorlab, efirga beriladigan «Oilaviy», «Bolajon» telekanallari, bolalar nashriyotlari imkoniyatlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini o’zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me’morchilik obidalari, O’zbekiston tabiati, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko’rgazmali namunalarni ishlab chiqish, bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo’yicha «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida tayyorlangan multimedia mahsulotlari ham ana shular jumlasidandir.

Barcha turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida «O’zbekiston — mening Vatanim!» mavzusidagi tadbirlar vositasida ularda milliy ruh tuyg’usini shakllantirish, davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o’tkazilishi o’g’il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g’urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga hizmat qiladi.

Tarbiyalanuvchilarda atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi «Ona tabiatni asraylik!» ruknida yaratilgan tarbiyaviy roliklar, ularning ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o’yinlar, konstruktorlik

o‘yinlari va o‘yinchoqlarning «Bolalar dunyosi» variativ o‘yinlar majmualari bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi.

Milliy tarbiyani amalga oshirish jarayonidagi bolalar e‘tibori epizodlar, tafsilotlar, harakatlarga qaratish, bosma stol o‘yinlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Xalq og‘zaki ijodi, xalq o‘yinchoqlari, milliy qo‘g‘irchoqlar (rasmga qarang) milliy tarbiyaning samarali vositasi bo‘lib, ular maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantiradi, tadbirlarning tizimli tashkil etilishi bolalarning milliy tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



### Milliy qo‘g‘irchoqlar

Xalq o‘yinchoqlari maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ta‘lim-tarbiyada vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Xalq azaldan bola tarbiyasida turli-tuman o‘yinchoqlardan keng foydalanib kelgan. Ota-onalar va mahalliy hunarmandlar loy, latta-putta, yog‘och, jun va boshqa arzon materiallardan bolalar uchun turli xil, chiroyli bezaklar berilgan, bolani o‘ziga tezda rom etuvcha o‘yinchoqlar yasaganlar. Bir necha avlodlarning ijodiy faoliyati evaziga o‘ziga xos, bejirim, takrorlanmas o‘zbek milliy o‘yinchoqlari vujudga kelgan. Bunday o‘yinchoqlar qatoriga o‘zbek milliy libosidagi qo‘g‘irchoqlar, hayvonlari, zobitlar, uy-ro‘zg‘or va maishiy xizmat buyumlari, xalq turmushida qo‘lliladigan texnikaviy qurilmalar (suz tegirmonlari, milliy hunarmandchili dastgohlari, uylar va boshqa inshootlarning modellari) va hokazolarni kiritish mumkin.



O'yinchoqlar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini xalqning turmushi, uning qadriyatlari va xatto orzu-istaklarini o'ta ustalik bilan tanishtirishga xizmat qiladi, ulardan mashg'ulotlarda, bayramlar va ommaviy tadbirlarda qo'g'irchoq o'yinlaridan keng foydalanish asosida tarbiyalanuvchilarni xalqning urf-odatlarini ahloqiy me'yorlari bilan tanishtirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qo'shiqlar, o'yinlarni yaxshi qabul qiladilar. Bolalar qo'shiqlarining ko'pchiligi o'yin bilan yoki o'yin vaziyatida aytilgan. Bahor faslida kuylangan "Binafsha", "Chittigul", "Yomg'ir yog'aloq", "Laylak keldi" singari qo'shiqlar shular jumlasidandir. Masalan, bahor chog'i yomg'ir shivirlab yog'arkan, shu fursatda quvongan bolalar o'yinga berilib, mutoyiba ila "Yomg'ir yog'aloq" qo'shig'ini kuylash orqali ona zaminidagi o'zgarishlarni anglaydilar, binafsha va boychechaklarning unib chiqishi ham bolalarning quvnab o'ynashlari va "Binafsha" qo'shig'ini kuylashlari barobarida xalq qo'shiqlari bilan yaqindan tanishish asosida milliy qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishadilar.

O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan to'la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi. Zero, o'z elining murakkab tarixini, etnik xususiyatlari va pedagogik g'oyalarini aniq bilish ma'naviy barkamollikni ta'minlovchi bir omildir.

Maktabgacha ta'lim muassasalari hududida bolalarni mardlik, shijoat, qat'iyat, zukkolik, jasorat, go'zallik, oliyjanoblik, mehr-shafqat, kitobxonlik namunalarini o'zida aks ettirgan milliy siymolar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari ko'rinishlari va lavhalari ifodalangan tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi haykalchalar majmualarini o'rnatish.

**MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY TARBIYA**

**Reja**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim tarbiyasi va rivojlanishining o'ziga xosligi.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga milliy tarbiya berish shart-sharoitlari.
3. Ona tili - milliy ruhni shakllantirish omili.
4. Xalq og'zaki ijodi boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirishning muhim vositasi sifatida.

*Tayanch so'z va iboralar: boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchisi, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, maqol, matal, rivoyat, til, afsona, komil shaxs, milliy g'urur, xalq og'zaki ijodi, tarbiyaviy jarayon, xalq og'zaki ijodi imkoniyatlari, axloqiy qadriyatlar, inson kamoloti.*

**Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «Ijtimoiy pedagogika» (darslik). T. 2022y
3. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
5. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*
6. Vohidova N.X., M.Abdulxaeva. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'urur ruhida tarbiyalash. Metodik qo'llanma. –T.: Istiqlol, 2010*

**Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim tarbiyasi va rivojlanishining o'ziga xosligi.** 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda O'zbekistonda amalga oshiriladigan ta'lim ta'lim turlari belgilanib, uning umumiy o'rta ta'lim bosqichi (I-XI sinflar) ikkiga bo'linishi, birinchi bosqich boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar) ekanligi, umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinishi belgilab qo'yilgan. Mazkur Qonunda boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishi



kerakligi keltirilgan<sup>47</sup>.

***Boshlang'ich ta'lim** inson o'rganadigan, o'zlashtiradigan bilimlarining poydevori yaratiladigan davr hisoblanib, o'quvchini o'qish, yozish, hisoblash, o'z fikrlarini izchil va malakali ifodalash, mantiqiy fikrlash va to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatadi.*

O'qish va yozishni o'rganish bilan bir vaqtda bolaning axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiyasi ham amalga oshiriladi, bu yoshda tarbiya asosiy jarayon bo'lib, o'rganish va ta'limga bo'ysunadi. Boshlang'ich maktab bitiruvchilari o'zlashtiradigan ta'limning asosiy mezonini - tizimli bilim va tafakkur hisoblanadi. Ta'lim natijasida o'quvchi mantiqiy fikrlash asosida mustaqil fikr yuritishga o'rganadi, dunyoqarashi shakllanadi.



Boshlang'ich ta'lim yoshida o'quvchilarning asab tizimi yaxshilanadi, miya yarim sharlari funktsiyalari intensiv rivojlanib, analitik va sintetik funktsiyalari kuchayadi. Bola miyasining og'irligi deyarli kattalar miyasining

og'irligiga etadi; psixikasi jadal rivojlanadi. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi: tormozlanish jarayoni yanada aniqroq bo'ladi, lekin qo'zg'alish jarayoni hali ham ustunlik qiladi. Sezgilarning ishi yanada nozik bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bilan solishtirganda, rangga sezgirlik, masalan, 45% ga oshadi, bo'g'im-mushak tizimlari 50% ga, ko'rish sezgisi 80% ga yaxshilanadi (A.N. Leontyev)<sup>48</sup>.

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.

<sup>48</sup> Леонтьев А. Н. Понятие о среде в педологических работах Л. С. Выготского (критическое исследование). // Вопр. психол. 1998. № 1. С. 108–127.



Boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi — bu muhim va murakkab jarayon bo'lib, uning bir necha asosiy aspektlar mavjud:

**1. Aqliy rivojlanish.** Boshlang'ich sinfdagi bolalarning mental rivojlanishi, mantiqiy fikrlash qobiliyati, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

**2. Jismoniy rivojlanish.** Bu davrda bolalarning motor qobiliyatlari (kichik va katta motorika) rivojlanadi. Sport va jismoniy faoliyatlar ularning sog'lig'i va jismoniy holatini yaxshilashga yordam beradi.

**3. Hissiy rivojlanish.** Bolalar o'z his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**4. Nutqning rivojlanishi.** Boshlang'ich sinfda tilni o'rganish jarayonida bolalar so'z boyligini kengaytirish, nutqni takomillashtirish va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega.

**5. Ijodiy rivojlanish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy mashg'ulotlar, san'at, musiqa va hunarmandchilik orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Ushbu barcha aspektlar bolaning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo'ladi. Ustozlar va ota-onalarning roli bu jarayonda juda muhimdir, chunki ular bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish faoliyati asosan o'quv jarayonida sodir bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idroki beqarorlik va tartibsizlik bilan ajralib turadi, biroq ularning atrofidagi hayotni jonli qiziqish bilan qabul qilishlari ularni ko'p ma'lumotlarni o'rganishlariga, o'zlashtirishlariga imkon yaratadi. Kichik maktab o'quvchilarining e'tibori beixtiyor, etarlicha barqaror emas va hajmi cheklangan bo'lib, shuning uchun bu davrda o'quvchilarning diqqatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri hissiy-tasavvurdan mavhum-mantiqiylikka qarab rivojlanadi. "Mashg'ulot o'quvchilarni shakllar, sezgilar, tovushlar, ranglar, tasavvurlar bo'yicha fikrlashga majbur qilishi kerak, demak,



o'quvchilarda mavhum g'oyalar va so'zlarga emas, balki bevosita o'quvchi tomonidan idrok etiladigan aniq tasvirlar asosida qurilgan vizual ta'limga ega bo'lish zarurati tug'iladi"<sup>49</sup>.

*"Boshlang'ich maktabining vazifasi - bolaning tafakkurini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, aql-zakovatni sabab-oqibat munosabatlarini tushunish darajasiga yetkazishdir" <sup>1</sup>.*

Bu yoshda bola intellekti jadal rivojlanadi va bunda o'qituvchi muhim rol o'ynaydi. Bu yoshdagi bolaning tafakkuri nutq bilan yaqin aloqada rivojlanadi. Bugungi uchinchi sinf o'quvchilarining faol so'z boyligi taxminan 3500–4000 so'zni tashkil qiladi. Maktab bolaning so'z boyligini sezilarli darajada boyitishga yordam qiladi, bu davrda o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifoda etishga o'rganadilar.

O'quvchi shaxsining shakllanishida kattalar (o'qituvchilar) va tengdoshlari (sinfdozlari) bilan amalga oshadigan munosabatlar, yangi faoliyat turli bo'lgan ta'lim (o'yin, mehnat) va muloqot, guruhlarning (maktab miqyosida, sinf) faol ta'sirida amalga oshadi. Bu davrda o'quvchilarning ijtimoiylashuvi jadallashadi, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari (jamoada ishlash, o'z harakatlariga javobgarlik, do'stlik, o'zaro yordam va boshqalar) takomillashadi. Boshlang'ich maktab yoshi bolaning axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay vaqt hisoblanib, bu jarayonda o'quvchilarning ijtimoiylashuvida ulardagi ishonuvchanlik, taqlid qilishga moyillik hamda o'qituvchining obro'-e'tibori yordam beradi, bir so'z bilan aytganda o'quvchilarga milliy tarbiya berishda boshlang'ich ta'limning o'rni salmoqlidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishda to'g'ri tashkil etiladigan mehnat alohida ahamiyatga ega. Bu mehnat bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilish, kattalarga hurmat, kichiklarni izzat qilishni o'rgatadi. Bu jarayonda samarali natija olish uchun mehnat faoliyatini o'yin bilan birlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

---

<sup>49</sup>Абу Райхон Беруний. Возраждения. // Избранные произведения: В 6т. Ташкент: Фан, 1963.- С.-49.

## **2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga milliy tarbiya berish shart-sharoitlari.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga milliy tarbiya berish murakkab jarayon bo'lib, bu davrda bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'quvchiga yordam berish va uning qo'llab-quvvatlashga roziligi; o'quvchi shaxsining kuchli tomonlariga, potensial imkoniyatiga tayanish; o'quvchining qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengib o'tishiga asoslanish; hamkorlik; hamfikrlik; konfidentsiallik (anonimlik) jarayonga va natijaga reflektiv-analitik yondashuv kabi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiya berish jarayonida pedagogning oila bilan hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish; o'qituvchi tomonidan shaxs axloqiga ta'sir etuvchi o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyash vaziyatlarini yuzaga keltirish; "Javohirlar sandig'i", "Hadislardan namunalar", "Rivoyat", "Vatan timsollari", "Buyuk kelajak sari", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Dono bobo davrasida" kabi ko'rsatuv va eshittirishlar, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, Vatanimizda yashab ijod etgan mutafakkirlarning hayoti va ijodiy faoliyatidan hikoyalar, rivoyatlar so'zlab berish, bugungi kun qahramonlari bilan tashkil qilinadigan uchrashuvlar, suhbatlar ularni milliylik ruhida tarbiyalashga imkoniyatlarini yaratadi.

*Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda bir-biri bilan bog'liq quyidagi beshta masalani amalga oshirish maqsadga muvofiq.*

1. Dars yoki tarbiyaviy tadbirning aniq maqsadga (o'quvchilarda milliy ruhda tarbiyalashga) qaratilganligi.

2. O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashga oid mavzular, tushunchalar, muammo va g'oyalarni hisobga olish.

3. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish orqali milliy tarbiyasiga doir materialni to'liq yetkazishga erishish.

4. Milliy ruhda tarbiyalashda o'quvchilar diqqatini o'ziga tortadigan qiziqarli faktik ma'lumotlarni to'plash.

5. O'quvchilar tomonidan milliy ruhda tarbiyalashga oid bilim, tushuncha va g'oyalarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash, yakuniy xulosalar chiqarish.



*Milliy ruhda tarbiyalashga oid darslarini tashkil etishda o'quv materiallari quyidagi guruhlarga ajratgan holda foydalanish samarali natija olish imkoniyatini yaratadi.*

– o'quvchilar ongida ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi tarixiy materiallar;

– o'quvchilar hissiyotiga faol ta'sir etadigan xalq og'zaki ijodi namunalari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasini amalga oshirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga rioya etish tavsiya etiladi.


**Birinchidan**, jamiyatning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga qo'yayotgan talablari, o'quvchilarining milliy ruhda tarbiyalashni tarbiya shakli sifatida qabul qilinishi, odamlarning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini boshqarishga xizmat qiladigan axloqiy qadriyatlarga asoslanishi. Bu axloqiy qadriyatlar shaxsning turli vaziyatlarda "og'ishmaydigan" qobiliyatlaridir. Bunday sharoitda "shaxs rivojlanishida rol o'ynovchi manbani" yuzaga keltirish, ya'ni o'qituvchi oila bilan mustahkam hamkorlikda faoliyat olib borish sharoitini yuzaga keltirishi zarurdir.

**Ikkinchidan**, boshlang'ich sinf o'quvchisining qiziquvchanligi atrof-muhitni o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, bola o'yin orqali tajriba o'tkazadi, jarayonlarning sabab va natijalarini kuzatadi, turli xil holatlarni tasavvur qiladi. Bu esa undagi tafakkurning rivojlanishiga turtki beradi, yomon holat bo'lsa, undan chiqib ketish yo'llarini izlashga undaydi. Bu yoshdagi o'quvchilarda taqlid alohida o'rin tutadi, buni hisobga olgan holda o'quvchini qo'llab-quvvatlash hamda ularning yosh xususiyatlari va individualligini inobatga olish kerak bo'ladi.

Mavjud pedagogik shart-sharoitlarga kompleks yondashuv ota-onalari bilan hamkorlikda faoliyatni amalga oshirishni ham nazarda tutib, bunda pedagog va oilaning asosiy vazifasi bolaning o'qib-o'rganishiga, qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratishdan iborat bo'lishi lozim. Bunday faoliyat asosida bir-biriga bo'lgan o'zaro ishonch, hurmat, ikki tomonlama qo'llab-quvatlanish, chidam va chidamlilik tamoyillari asosida amalga oshirishni talab

etadi. Bu holat o'qituvchi va ota-onalarga o'quvchilarni milliylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kuchlarni birlashtiradi. Maktab va oilaning o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashdagi hamkorligi oilani har tomonlama tizimli o'rganishni nazarda tutuvchi, shuningdek, oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi va har xil sharoitlarini o'rganishga asoslangan pedagogning maqsadli faoliyati natijasidir. Agar boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan oila va o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashning pedagogik metodlari to'g'ri tanlansa, ya'ni o'qituvchi-ota-ona-o'quvchidan iborat uchlik shakllantirilsa, natija muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu uchlikda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishning ikki jihatini qayd qilish mumkin:

- alohida olingan oilalar tarbiyasini korreksiyalash;
- noto'liq oilalar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyat.




### Milliylik ruhida tarbiyasida o'qituvchi bilan ota-onalar hamkorligi

Zero, "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanmasida o'rinli ta'kidlanganidek, "Farzand tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilikning faoliyati bir maqsadga qaratilgan, bir-biriga mutanosib, biri qolganlarini to'ldirmog'i, o'zaro hamkorlikda bo'lmog'i lozim. Shundagina bu faoliyat bir butun holda kutilgan



natijalarni beradi<sup>50</sup>".

**Ona tili - milliy ruhni shakllantirish omili.** Ona tili - xalqning ko'hna tarixi, diniy e'tiqodi, dunyoqarashi va his-tuyg'ularini avloddan-avlodga yetkazib turadigan ko'zgudir. Til har bir xalqning, millatning buyuk qadriyati hisoblanadi. Shuning uchun tarixda har bir davrning milliy rahnamolari o'z tillarining nufuzini oshirishga alohida ahamiyat berishgan. Zero, o'z tilini yo'qotgan xalq, millat o'zligidan mahrum bo'lib, ma'naviy zavolga yuz tutadi.



Ona tilimiz bo'lgan o'zbek tili sohibining o'zi kabi qadimiy. Uning paydo bo'lishi millat deb atalmish birlikning shu ko'hna zaminda vujudga kelishi bilan bog'liq. Mutaxassislar fikricha, o'zbek tiliga oid qadim

manbalar turk hoqonligi davrlaridan ham uzoqqa borib taqaladi. Ammo so'ngsiz jangu jadallar, davrining muhorabayu musohabalaridan omon o'tib kelgani O'rxun Enasoy yodgorliklaridir. Tarixning keyingi yillarida yaratilgan "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq", "Qisasi Rabg'uziy" kabi o'nlab durdona asarlarning ona tilimizning nihoyasiz nodirliklari ekani ham qalblarni g'ururga to'ldiradi. Ayniqsa, Alisher Navoiy dahosida haddi a'losiga ko'tarilgan, mirzo Bobur siymosida "turkning bosh bo'g'ini" bilan dillashgan o'zbek tili tarixining buyuk bo'lganidan dalolat beradi.

Milliy ruhni shakllantiradigan, muntazam mustahkamlaydigan, uni ardoq bilan avaylab-asralishiga imkon beradigan eng odil omil ona tilidir. Til xalq, millat ruhining betakror va hech bir zamon xira

<sup>50</sup>Алқаров И., Маматкулова Р., Норқулов Ҳ, Шахс ва оила тарбиясининг педагогикаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. –220 б, 61-62б.

tortmas ko'zgidir. Har bir tilda shu til egasi bo'lgan millatning saviyasi, ruhiyati aks etadi. Shuning uchun ham bolaning tili ona tili sifatida chiqib, ona tili sifatida kamol topgandagina uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi<sup>51</sup>.

Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas... Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar. «Quruq so'z — quloqqa yoqmas», demishlar. Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurg'on bo'lmasa, asalari orasida g'ung'urlab yurgan qovog'ari kabi quruq g'ung'urlamoq, faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Ko'p o'yla, oz so'yla», demishlar. Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o'ylab so'ylangan so'zdur<sup>52</sup>.

Mamlakatimizda «Davlat tili **haqida**»gi Qonun 1989- yil 21-oktyabrda qabul qilindi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tili — davlat tiliga e'tibor kuchaydi va ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1995-yilning 21-dekabrida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Davlat tili haqida»gi Qonuni e'lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo'lib, uning birinchi moddasida asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyamizning to'rtinchi moddasida<sup>53</sup> ko'rsatilgandek «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili -o'zbek tilidir» deb yozib qo'yilgan. O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, ona

<sup>51</sup>Н.Маҳмудов. Тил. «Ёзувчи» нашриёти. Тошкент — 1998.

<sup>52</sup> Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.– 237 б.

<sup>53</sup> <https://lex.uz/docs/6445145>



tilimizning sofligi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning iste'mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh, o'quvchi va talaba ona tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga doimo harakat qilishi foydalidir. So'z- fikrning qurolidir, kishi qanchalik ko'p so'z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi.

Milliy ma'naviyatimizning tiniq tajassumi, ayniqsa, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan, o'zga tillardan aynan ifodasini topib bo'lmaydigan maqol va matallar, hikmatli so'zu ibora atalmish qayroqi so'zlarda benihoya betakror injaliklar bilan ifodalanadi. Masalan, "Alifni kaltak deydi", "Igna tashlasang, yerga tushmaydi", "Attorning qutisida ham yo'q gaplar" singari matallar, "Oz-oz o'rganib, dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur", "Adabiyot yashasa, millat yashar" kabi hikmatli so'zlar hamda "igna bilan quduq qazimoq", "zig'ir yog'day ko'ngilga urmoq", "qaychi quda bo'lmoq", "bir yoqadan bosh chiqarmoq" singari iboralarda o'zbekona ruh, milliylik barq urib turadi. Ular namoyon etadigan ma'nolarni shu xalq turmush tarzidan ayro holda tasavvur qilib ham, tushuntirib ham bo'lmaydi.

Bugun dunyoda olti mingga yaqin til va sheva bo'lsa, ulardan bor-yo'g'i yuzga yaqini davlat tili maqomiga ega. 1400 ta tilning yo'qolib ketish xavfi borligini e'tiborga olsak, davlat tili maqomini olgan shu yuzga yaqin til orasida Ona tilimizning borligidan qancha g'ururlansak shuncha oz. Bu yil o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 34 yil to'ladi. Shu o'rinda yurtboshimiz "O'zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirish<sup>54</sup>" zarurligini ta'kidlaganliklari Yangilanayotgan O'zbekistonning bugungi bosqichi — milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning nufuzini yanada oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu boradagi ishlarni kuchaytirish maqsadida ta'lim tarbiya muassasalarida keng ko'lamdagi ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

---

<sup>54</sup>Мирзиёев Ш.М. Инсонпаварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. Тошкент: "Тасвир" Нашриёт уйи, 2021. - 36 б.

**Xalq og'zaki ijodi boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirishning muhim vositasi sifatida.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiya, vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi dolzarb masalalardandir. Boshlang'ich ta'lim DTS va o'quv dasturlarida o'quvchilarda milliy tarbiya berishning ilk talablari o'z aksini topgan.



Boshlang'ich ta'lim davlat standarti mazmuniga bizning Vatanimiz O'zbekiston ekanligi, davlat ramzlari, milliy qadr-qimmat tuyg'usi, mamlakat hayotidagi muhim voqealarga doir milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari kiritilgan.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiya va vatanparvarlik sifatlarini shakllanishida o'qish, tarbiya, atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik fanlarining imkoniyatlari keng. Ta'lim tarbiya jarayonida lg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, har bir dars, tarbiyaviy tadbirlar, to'garak mashg'ulotlarini yuksak saviyada tashkil etish, Vatan va Vatanni ulug'lovchi she'r, qo'shiq, maqol, hikoya va boshqa janrlardagi badiiy asarlarni tahlil qilish asosida o'quvchilar milliylikning tub mohiyatini anglaydilar, o'z ishiga vijdonan yondashish, tabiat va jamiyat, inson va u yashaydigan muhit haqida ilmiy bilim bilan qurollanadilar.

O'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalari bilan hali go'daklik chog'laridayoq tanishadilar, keyinchalik oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida ovutmachiq, erkalatma, sanama, latifa, ertak, topishmoq, maqollar, boshlang'ich ta'limda esa xalq og'zaki ijodining nisbatan murakkab janrlari namunalari – rivoyat, qissa, dostonlar bilan ham tanisha boradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasida "Xalq og'zaki ijodi"ning qo'shiq janridan ularning yosh xususiyatlariga mos "Boychechak", "Tuyalar", "Oftob chiqdi olamga", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Xo'p hayda", "Chori chambar" kabilarni ko'rsatish mumkin, bu



qo‘shiqlar ichidan milliy iftixor va milliylik tuyg‘ularini o‘stirishda “Boychechak”, “Tuyalar”, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” muhim ahamiyat kasb etadi. Laylakning O‘zbekistonga kelishi, undan o‘ziga oshyon topishi, o‘zbek xalqining beozorligi, g‘amxo‘rligi tufayli ekanini bolalar qo‘shiq tahlili davomida anglay boshlaydilar. “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” oddiy qo‘shiq, lekin bu yerda laylak obrazi milliy g‘ururni shakllantirishda badiiy detal vazifasini o‘taydi. Qo‘shiq matnini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarga “Laylaklar O‘zbekistonda” nomli klaster tayyorlashni buyurish mumkin.

Bunday klasterni tayyorlaganda laylaklar O‘zbekistonga iqlimi issiq bo‘lgani, bahor faslida tabiatning uyg‘onganligi, betakror go‘zal bo‘lganligi, o‘zbek xalqining beozor va g‘amxo‘rligi uchun kelishlarini aniqlashga e‘tibor qaratiladi. Xalqimizning tabiatga, shu jumladan, jonivorlarga munosabati o‘quvchilar ko‘nglida faxr tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin. Demak, ona tabiatga muhabbat va fidoiylik ham o‘zbek xalqining milliy g‘ururi bilan chambarchas bog‘liq.



### **“Laylakning O‘zbekistonga tashrifi” nomli klaster**

O‘zbekona tarbiya dastlab salomdan boshlanadi. P.Mo‘minning “Salom bergan bolalar” (N.Norxo‘jaev musiqasi) qo‘shig‘i shu

fikrning yorqin dalilidir.

*Salom bergan bolaning o'zi odobli,  
Kulib turgan yuzlari go'yo oftobli.*

*Naqorat:*

*Salom berish, bu – a'lo alomat,  
Salom berganlar, bo'ling salomat.*

Ushbu qo'shiq orqali farzandlarimiz ongiga “salom” so'zining muqaddasligi, salomlashish bilan bog'liq milliy urf-odatlarimizning afzalliklari singdirib boriladi. Shoir Qambar ota bilan bastakor N.Norxo'jaevning “Do'ppi kiygan bola” qo'shig'i milliy kiyimlar, urf-odatlariga hurmat uyg'otish orqali yosh avlodda milliy g'ururni tarbiyalashga qaratilgan. Bu qo'shiqni kuylagan o'quvchi milliy liboslar shunchaki libos bo'lmasdan, balki ruhiy oziq vazifasini bajarishini ham qalbdan his etadilar:

*Do'ppisin kashtasida  
Aks etadi tilim oy,  
Tepasida nur sochib  
Turar go'yo to'lin oy.  
Do'ppi kiygan bolaning  
Yo'llari yorqin bo'lar,  
Mehr to'la yuragi  
Xalqiga yaqin bo'lar.*

Do'ppi kashtasida aks etgan to'lin oy uni kiygan bolaning mehr to'la yuragiga cheksiz ruhiy quvvat, g'urur va iftixor tuyg'ularini baxsh etadi.

Xalq donishmandligi hisoblangan **maqollarda** turmush hodisalari bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, ilm-hunar, vafodorlik kabi yuksak axloq normalari ma'qullanib, nodonlik, egrilik, qo'rqqoqlik, yomonlik, umidsizlik, yolg'onchilik, yalqovlik, ochko'zlik kabi yaramas illatlar qoralanadi. Bu esa xalq maqollarining g'oyaviy-



tematik jihatdan boy va rang-barangligini hamda chin insoniy fazilatlarni targ'ib qilishga qaratilganligini ko'rsatadi.

Maqollarning mazmuni va tuzilishi tahlil etilar ekan, mazmun jihatidan keng, tuzilish jihatidan qisqa, umuman hikmatli gap ko'rinishida ekanligi suhbat metodi orqali bayon etiladi. Bu bilan o'quvchilar ilmiy bilimlar bilan qurollantirilibgina qolmasdan, balki ular tomonidan o'zlashtirilgan maqol haqidagi mazkur bilimlar asosida ilmiy dunyoqarash va ma'naviy sifatlar tarkib toptiriladi. Xalq maqollarida ona Vatanga cheksiz mehr-muhabbat, uni har qanday ichki va tashqi dushmandan ko'z qorachig'iday asrash, bu borada mustahkam e'tiqod va cheksiz sadoqat ko'rsatish g'oyasining ifodalanishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashga zamin yaratadi. Masalan, "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas", "Yurt qo'risang – o'zarsan, qo'rimsang – to'zarsan".

Axloq-odob bahsidagi maqollarni tahlil etish orqali xalqning inson ma'naviyatiga dahldor hukmi va maslahatiga urg'u beriladi. Hunar va kasbni ifoda etuvchi maqollarda esa (dehqonchilik, bog'dorchilik, pillachilik, chorvachilik, to'quvchilik kasbi va uning ahamiyati) hunarmandchilikda nimalarga e'tibor berish kerakligi ("Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur") ifoda etilgan. Bunday maqollar kasb-hunarga qiziqishni kuchaytiradi. Maqollarning anglatgan ma'nolarini ochishda yil fasllari, har xil mavsumlar va hunarlarning nomlarini ham hisobga olish foydalidir.

Masalan, "*Er haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda*" maqoli kuz faslida, hosil yig'ib olingan paytlarda ko'proq ishlatilgan.

Bu esa o'quvchilarning maqol mazmunini oson tushunishlarini ta'minlabgina qolmay, balki shu davrda maqol ma'nosiga amal qilish, maqol talablariga amalda javob berish imkonini ham tug'diradi.

Tajribali o'qituvchilar ayrim maqollarni mavsumga bog'lab o'rganish bilan birga, o'quvchilar hayotiga ham bog'laydilar. Masalan, "*Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur*" maqoli

o'quv qurollarini ehtiyotlab saqlash, daftarni ozoda saqlash, kitob betlarini yirtmaslik kabi odatlarni targ'ib qilishda ishlatiladi. Suhbat davomida o'qituvchi maqollarda xalqning uzoq yillik tajribasi aks etganligini aytadi.

O'qituvchi tomonidan bayon qilinadigan maqollar o'quvchilarning izchil va ongli o'zlashtirishi, fikr qilish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qish va tarbiya darslarida maqollarni o'rganish va ularda ilgari surilgan g'oyalarga amal qilish o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq donoligining mahsuli bo'lgan maqol va matallarda kishilar faoliyati bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy masalalarga alohida e'tibor beriladi. Har bir kishi o'z faoliyatining, xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan o'ylashi lozim, noma'qul harakat faqat ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin ("Nima eksang, shuni olasan") degan xulosa beriladi.

Xalq maqollari, matallari kishilar amaliy faoliyatining natijasi bo'lishi bilan birga, kundalik hayotda amal qilish lozim bo'lgan tarbiyaviy qo'llanma vazifasini bajaradi.

Maqol va matallarning aksariyat qismi maslahat berishga bag'ishlanganligi bejiz emas. "Sichqon sig'mas uyiga, g'alvir bog'lar dumiga". Xalq donoligi kishilarni farosatli bo'lishga, o'zlari ish ko'rayotgan hodisalarni tahlil qilishga, ulardagi "yomon"dan "yaxshi"ni, "qora"dan "oq"ni ajrata olishga chaqiradi ("Har bir yaxshi narsada "lekin "bor, har bir yomonda - "ammo").

Darsliklarda keltirilgan "Vatani borning baxti bor", "Ona yurtning - oltin beshiging", "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas", kitob va kitobxonlik haqidagi asarlar oxirida "Bilimdan ortiq boylik yo'q", "Bilgan o'qir, bilmagan to'qir", "Aqlning qayrog'i - bilim", "O'qish kitobi"ning "Mehnat - baxt keltirar" bo'limida "Mehnat, mehnatning tagi rohat", "Halol mehnat - yaxshi odat, berur senga saodat" kabi maqollarni tahlil asosida o'rganish asosida o'quvchilar o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishlariga yordam beradi.



**Xalq ertaklarida** ham o'quvchilarni milliylik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati cheksiz, ertakdagi qahramon dushmanni quvib yurtdan chiqib borar ekan, ona tuproqdan bir siqim olib: "O'lsam kafanim bo'lasan, o'lmasam choponim bo'lasan", – deb cho'ntagiga solib qo'yadi. Qalbida Vatan tuyg'usi jo'sh urgan bahodir siymosining ana shu

shaklda aks etishi jangovarlik tipidagi ertaklarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Ulardan farqli o'laroq, "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar", "Egri va to'g'ri", "Ochko'z boy", "Guliqahqah", "Ziyrak uch yigit" kabi ertaklarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy ziddiyatlar talqini misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari qalbida yorqin tuyg'ular uyg'otadi. Shuningdek, "Zumrad va Qimmat" ertagida kizlar tarbiyasi, "Yoril-tosh" ertagida opa-singillar ahilligi, "Egri va to'g'ri" da inson to'g'ri bo'lib yashaganida maqsadga erisha olishi, "Uch og'ayni botirlar" da tasvirlangan yigitlarga xos mardlik, jasurlik gender etnopsixologik xususiyatlar shakllanishiga olib keladi.



Ma'lumki, **rivoyatlar** ikki turli bo'lib: tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar, ikkinchisi toponimik rivoyatlar. Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Boborahim Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud singari tarixiy shaxslar haqida

yaratilgan tarixiy rivoyatlarda ma'lum bir shaxs faoliyati va xalq qahramonlari taqdiri yuzasidan hikoya qilinadi, axloq-odob va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tashviq etiladi, muayyan tarixiy ma'lumotlar haqida axborot beriladi. "O'qish kitobi" darsligida

berilgan “Najmiddin Kubro”, “Sulton Mahmud va Beruniy”, “Hidi, tilimi va mazasidan”, Xondamirning “Tanbeh”, N.Karimovning “Rivoyat” nomli asarlarida mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan Najmiddin Kubro, aql va topqirlikda tengsiz Beruniy, Vatan ravnaqi, yurt farovonligini har narsadan ustun qo‘yuvchi, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy, yurt sog‘inchi tufayli shoh bo‘lsa-da, armon bilan yashagan Zahiriddin Muhammad Bobur, o‘z e‘tiqodi yo‘lida jonini fido qilgan Usmon Nosirlar o‘z maslagi yo‘lidagi g‘urur-shijoati bilan yoshlar uchun chinakam tarbiya namunasi bo‘lishlariga shak-shubha yo‘q. Shuningdek, “O‘qish kitobi”dagi “Non isi”, “Ona allasi”, “Yurak”, “Til qudrati”, “Sohibqiron Temur bobo”, “Tabiat bilan suhbat” rivoyatlari ham buyuk ajdodlarimizning insonparvarlik bilan bog‘liq biror fazilati haqida hikoya qilinishiga ko‘ra milliy tarbiyani amalga oshirishda muhim vazifani o‘taydi.

Ma‘lumki, ajdodlarimiz hayotida alohida o‘rin tutgan tarixiy voqea va hodisalarni aks ettiruvchi **afsonalar** ham xalq og‘zaki ijodining muhim qismini tashkil etadi. Afsonalarning ijtimoiy-tarixiy jihatdan realligi qadimda yashagan xalqlarning yashash tarzi, dunyoqarashi, ko‘ngil kechinmalari, bilim va tushunchalari, urf-odatlarini, bir so‘z bilan aytganda, tarixining ifodalanishi bilan qimmatlidir. Afsona kichik hajmli, mazmunan sodda bayon va hikoya bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunasi sifatida o‘zida muayyan tarbiyaviy mazmuni ifoda etadi. Masalan, To‘maris haqidagi afsona massagetlar shohi vafotidan keyin uning boshliq bo‘lishi va Eron shohi Kirning undan qo‘lini so‘rab xat jo‘natishi haqidagi xabar bilan boshlanadi. Tabiiyki, To‘maris Kirning hiylasini anglab yetadi va haqli ravishda uni rad etadi. Shunda Kir massagetlarni o‘ziga bo‘ysundirish uchun ularga qarshi yurish boshlaydi. Tengsiz jangda adolat uchun kurashgan To‘maris mardonavor xatti-harakatlari bilan g‘alabaga erishadi. Kir o‘ldiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari afsonaning mazmuni bilan birinchi marotaba tanishadilar va bu hol ularda qiziqish uyg‘otishi tabiiy. To‘maris haqidagi afsonani o‘quvchilar chuqur o‘zlashtirishlari uchun ijodiy insho, davra suhbatini, mustaqil ish, ma‘ruza matnlaridan foydalanish mumkin.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy insho yozganda o'zlari o'qib, o'rgangan "To'maris" va "Shiroq" afsonalariga tayanadilar. Bunda ular Vatan mustaqilligi yo'lidagi qahramonliklarning bugungi kundagi ahamiyatiga ham to'xtalishlari zarur. Albatta, xalq og'zaki ijodining qadimgi namunalari bilan tanishish o'quvchiga o'z xalqi tarixini o'rganish va u bilan g'ururlanish his-tuyg'ularini uyg'otishi zarur. Bunday asosiy talablardan biri o'qituvchining mazkur masalani chuqur anglab yetishi va o'quvchilarga tushuntirib bera olishidadir. Turkiy xalqlarning qadimiy qo'shiqlari, afsona va maqollari tarixiy voqealarni aks ettirishi bilan birga ayni paytda xalqning badiiy ijodi namunalari hamdir. Shuning uchun mazkur asarlar tahlilida faqat ularning g'oyaviy jihatlarigagina emas, badiiy xususiyatlariga ham to'xtalish zarur. Qahramonlik afsonalari bo'lgan "To'maris" va "Shiroq" bizga Gerodotning "Tarix", Poliennning "Harbiy hiylalar" kabi tarixiy manbalar orqali yetib kelgan. Shuning uchun o'qish darslarida buyuk ajdodlarimiz ko'rsatgan qahramonliklarning milliy tarbiya bilan bog'liq ijtimoiy mohiyatini ochishga alohida e'tibor berish kerak.

**XULOSA.** Boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni milliylik ruhida tarbiyalash muammosi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiya berishning yuksak darajada e'tirof etilishiga sabab shuki, milliylik ruhida tarbiyalangan inson kelajakda nafaqat o'z qadr-qimmatini, balki boshqalarning ham qadr-qimmatini ham idrok etadi, or-nomusini pok saqlaydi va baland tutadi, yolg'on va'dalarga uchmaydi, har xil oqimlarga qo'shilib ketmaydi, o'z baxt-saodati, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishni insoniy burchi deb biladi, nohaqlik va adolatsizlik bilan kelishmaydi, tajovuzkorlikka bo'yin egmaydi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, milliy tarbiyalanganlik ma'naviy kamolot asoslaridandir. Milliy tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish boshlang'ich ta'lim bo'g'inida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagogdan milliy tarbiya tushunchasining mazmun-mohiyatini teran o'zlashtirishni, uni amalga oshirishning samarali yo'llari, shakl va usullarini chuqur

tushunishni talab etadi.

Bunda mazkur jarayonning amalga oshishi va natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish milliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan yuksak e'tiqod, vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, mardlik, jasurlik, milliy tafakkur, metin iroda kabi fazilatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodi asarlari, milliy qadriyat va an'analar, urf-odat va udumlardan foydalanish, bu jarayonda o'quvchilarini kuzatish, tahlil qilish, qo'llab-quvvatlash, ishonch bildirish, rag'batlantirish kabi metodlardan ona tili, o'qish savodxonligi, tabiiy fan (Science), texnologiya, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya hamda tarbiya darslarigina emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, bayram tadbirlari, tarbiya soatlaridan unumli va o'rinli foydalanish ijobiy natijalar beradi.

### ***Savol va topshiriqlar***

- 1. Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim tarbiyasi va rivojlanishining qanday o'ziga xosligini o'rgandingiz, bayon eting.*
- 2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga milliy tarbiya berish imkoniyatlarini tavsiflang.*
- 3. Nima uchun ona tili - milliy ruhni shakllantirish omili deyiladi, fikringizni bayon eting, misol keltiring.*
- 4. Xalq og'zaki ijodining qaysi janrlari boshlang'ich ta'limda o'rganiladi, ularning tarbiyaviy ahamiyati nimada ko'rinadi?*
- 5. Xalq og'zaki ijodining biror janri misolida boshlang'ich ta'limda milliy tarbiyani amalga oshirish mazmuni, shakli va metodlarini o'zida mujassam etgan esse tayyorlang.*



## **MAVZU: UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA MILLIY TARBIYA**

### **Reja:**

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.

2. Ma'naviy - axloqiy qadriyatlar asosida o'quvchilarni milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

***Tayanch so'z va iboralar:** umumiy o'rta ta'lim, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, qadriyat, komil shaxs, milliy g'urur, xalq og'zaki ijodi, tarbiyaviy jarayon, axloqiy qadriyatlar, inson kamoloti.*

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*

7. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. *«Ijtimoiy pedagogika» (darslik). T. 2022.*

8. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: Nodirabegum nashriyoti, 2021.*

9. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*

10. Vohidova N.X., M.Abdulxaeva. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'urur ruhida tarbiyalash. Metodik qo'llanma. –T.: Istiqlol, 2010.*

**Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.** O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning 2-bob 7-moddasida "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim» ta'limning turi sifatida ko'rsatilgan, 9-moddada umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerakligi, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari: boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar); tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar) hamda o'rta ta'lim (X — XI sinflar)ni o'z ichiga olishi, umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinishi belgilab berilgan.

Tayanch o'рта ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini berishi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishi, tayanch o'рта ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirishi, o'рта ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishi, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlashi zarurligi belgilab qo'yilgan<sup>55</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'рта ta'lim to'g'risida"gi Nizomi<sup>56</sup> mamlakatda umumiy o'рта ta'limni tashkil etish va umumiy o'рта ta'lim muassasalarining faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilab bergan. Unga ko'ra, Umumiy o'рта ta'limning muddati 11 yil bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanishi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan.

*Umumiy o'рта ta'limning maqsadi - davlat ta'lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdir<sup>1</sup>.*

Umumiy o'рта ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

**Mazkur Nizomda umumiy o'рта ta'limning vazifalari ham belgilanib:**

---

<sup>55</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'PQ-637 son qonuni. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.

<sup>56</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3137130>



O'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

o'quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

ta'limning uzluksizligini va izchilligini, umumta'lim muassasalari o'quv dasturlarining o'rta maxsus, boshlang'ich professional ta'lim muassasalari o'quv dasturlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish;

o'quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish;

professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek o'quvchilarni yuqori malaka talab etmaydigan kasblarga tayyorlash<sup>57</sup> dan iboratligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi" 1059-son Qarori<sup>58</sup> hamda 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son<sup>59</sup> farmonlarida shaxs kamoloti va tarbiya masalalarining maqsad va vazifalari belgilanib, uni amalga oshirishda oila va uzluksiz ta'lim munosabatlarini muvofiqlashtirish belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan Qaror, qonun va farmonlar mazmuni va unda sanab o'tilgan muammolar mohiyatidan anglashimiz mumkinki, yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiya masalasiga

<sup>57</sup>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 22 mart, 11-son, 167-modda

<sup>58</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 1059-son qarori

<sup>59</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 noyabrda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son farmoni.

mamlakatimizda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, yosh avlodga ta'lim tarbiya beruvchi mutaxassisdan aynan ana shu vazifalarni bajarishga, muammolarni bartaraf etish kompetensiyasiga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Shu o'rinda umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mexanizmi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da belgilab berilganligi, unga ko'ra, milliy tarbiya tizimli ravishda quyidagi tartibda amalga oshirilishi belgilab berilganligiga e'tibor qaratmiz. Milliy tarbiya avvalo:

- oilada;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida;
- o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;
- oliy ta'lim muassasalarida;
- jamoatchilik guruhlarida amalga oshirilishi kerak.

Mazkur mexanizmni amalga oshirishda milliy qadriyatlar ustuvorligi, umuminsoniy qadriyatlarning yetakchilik xarakteri, insonparvarlik hamda demokratliya tamoyillariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Umumta'lim maktablarida milliy tarbiyani amalga oshirish tizimli, izchil, muntazamlilik tamoyillari asosida amalga oshiriladi va bir qator bosqichlarga bo'linadi.

**Umumta'lim maktablarida milliy tarbiyani amalga oshirishni quyidagi 3 bosqichda amalga oshiriladi:**

1-bosqich (I-IV sinflar) – vatanni anglash, milliy g'urur asoslari, milliy odob, vijdoniylik, milliy mafkuraviy dunyoqarash asoslari.

2-bosqich (V-IX sinflar) – vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy odob, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik.

3-bosqich (IX- XI sinflar) – O'zbekiston vatanparvarligi, milliy g'urur, milliy odob, vijdoniylik, milliy mafkuraviy onglilik.

Mazkur milliy ma'naviy tarbiya bosqichlari o'rtasida deyarli katta farq yo'q. Ularni birlashtirib turuvchi yetakchi g'oya – o'quvchilarda vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashga qaratilganligi bilan belgilanadi.

**2. Ma'naviy - axloqiy qadriyatlar asosida o'quvchilarni milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.**



Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan, ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat hodisalari majmuidir<sup>60</sup>.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e'zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo'shib boyitilishi, rivojlantirilishi baxtli kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.

Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, pro-fessional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin.

Insonning qadr - qimmat, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi - milliy qadriyatlar bilan bevosiat bog'liq. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy rataqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, atrixiy xotirasida, yashash ishlash va fikrlash atrzida, urf-odatlarida, rasm-rusumlarida, bayramu-sayillarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm-rusumlar,

---

<sup>60</sup>Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolot. Toshkent. "Mehnat" nashriyoti 2000y, 114b.




bayramu-sayillar tashkil etdi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro

hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnicilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir.

Shaxs milliy tarbiyasida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rin egallaydi. Unga ilmiy texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va xokazolar kiradi.

Yoshlarni milliylik ruhida tarbiyalashda asrlar sinovidan omon o'tgan, necha-necha davr kishilarini ezgu xislat va fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga yaqindan yordam bergan buyuk allomalarimiz hayoti, ularning dunyo tamadduniga munosib ulush bo'lib qo'shilgan ma'naviy merosi, asarlaridan foydalanish mumkin.



Jumladan: Imom Buxoriyning «Al-jome' as-sahih» kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning «Sunani Termiziy» asari ham



musulmon olamida yuksak qadrlanib, yosh avlodda insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalar mujassam.

Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga

joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratganligi, Ahmad Farg'oniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomli asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani, Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhurligi, uning ismi sharifi yer kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz - Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalgan.



Abu Rayhon Beruniy buyuk vatandoshimiz ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasiga haqqoniy bahoni, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb atash kerakligini aytadi. Bu aslida yuksak va haqli bahodir. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy

tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga




qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganidan dalolat beradi.

Mashhur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida «Meditina», «Sog'lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgan.


O'rta asrlarda shuhrat qozongan Mahmud Zamahshariy dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilib, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy yetuklik timsolidir.



Sohibqiron Amir Temur tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi. «Temur tuzuklari»idagi hikmatli fikrlari, masalan, «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir».



Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi - tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi. Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb nomlangan astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng



tarqalgan.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy

tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir<sup>61</sup>.

Yuqorida sanab o'tilgan mutafakkir, qomusiy olimlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish, mulohaza qilish imkonini beruvchi **"Men kimlarning vorisiman?"**, **"Ajdodlarimni bilamanmi?"**, **"Ona yurtim - O'zbekistonim"**, **"Balli, qizlar!"**, **"Iqbol"**, **"Milliy urf-odatlarimiz"** nomli kechalari, suhbatlar va bahslarni tashkil qilish o'quvchilarni an'analarga, qadriyatlarga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashi bilan birga ularda milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini shakllantiradi. Shuningdek, **"Men kimlarning vorisiman?"**, **"Ajdodlarimni bilamanmi?"**, **"Ona yurtim - O'zbekistonim"** mavzularida hamkorlikda o'tkaziladigan kechalarda bolalarni barkamol, yetuk kishilar qilib tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz targ'ibotiga doir chiqishlar yaxshi natijalar beradi. Zero, darslarni milliy qadriyatlarimiz chuqur singdirilgan holda talab darajasida olib borish bugungi kun talabidir.

Demak, qadriyatlar umumta'lim maktabi o'quvchilarida mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi milliy fazilatlarni singdirishda muhim omil bo'lib hizmat qilishi shubhasizdir.

Shuningdek, ma'naviy - axloqiy qadriyatlar asosida

<sup>61</sup>Каримов И. "Юксак маънавият-енгилмас куч". Тошкент. Маънавият.2008й



o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlaridan ham foydalanish lozim. Bu o`rinda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2023 yildagi 267-sonli qarori “2023 — 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish” nomli Konsepsiyasi mazmuniga e`tibor qaratamiz. Unda:

mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma`naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurligi uqtirilib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning quyidagi asosiy vazifalari belgilab berilgan:

yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg`ulari, ma`naviy sifatleri va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish;

yoshlarni milliy g`oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

buyuk tariximiz, ulug` ajdodlarimizning boy ma`naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san`at rivojiga qo`shgan hissalarini yoshlar o`rtasida keng targ`ib etish;

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo`lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko`rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro`y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko`nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog`i orqali tarqatilayotgan g`arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg`unchi g`oyalarga qarshi sog`lom dunyoqarashni shakllantirish;

hududlarda turkum harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda «Jasorat maktabi» nomli harbiy-vatanparvarlik o`quv yig`inlarini o`tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo`lgan ishonch



va hurmatni yanada oshirish, harbiy xizmatni o'tash O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash;

umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qitilishining sifatini oshirish, o'quv-moddiy bazani mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratish hamda shu orqali o'quvchi yoshlarda harbiy xizmat, uni o'tashning huquqiy asoslariga oid bilimlar va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ommasiga keng yetkazish;

yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an'ana va qadriyatlariga sadoqatli bo'lish xususiyatlarini shakllantirish;

Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish kabi vazifalarning belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu murakkab jarayon bo'lib, unda quyidagi usullardan foydalaniladi:

ishontirish;

mashq qildirish va mustaqil ishlash;

kuzatish;

rag'batlantirish;

o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna.

Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari qatoridan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tadbirlar, «Mardlik va jasorat», «Tinchlik», «Mustaqillik» darslari; uchrashuv va suhbatlar; yozgi dam olish oromgohlarida «Vatanparvar» karvonlarini va o'quvchi yoshlar bilan «Men albatta

harbiy bo'laman!» mashg'ulotlari; umumta'lim maktablarining 10-11 sinf o'quvchilari va mahallalardagi uyushmagan yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan hududlar kesimidagi harbiy-sport musobaqalari; yoshlarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha tadbirlar hamda milliy meros va qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish maqsadida milliy o'yinlar (arqon tortish, milliy kurash, tosh ko'tarish, yelkada kurash va boshqalar) bo'yicha musobaqalar tashkil etish samarali bo'lishi belgilab berilgan<sup>62</sup>.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish asosida yoshlarimizni milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularda yuksak insoniy fazilatni shakllantirish hisoblanadi. Vatanparvarlik millat kishisining eng yorqin jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham Hadisi Sharifda "Vatanni sevmoq – iymondandur" deb da'vat qilinadi. Vaholanki, o'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqning bugungi avlodlari, o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilishini ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi. Umumta'lim o'quv muassasalarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi – yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta'lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Hulosa. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasining modernizatsiyalashuvini yildan yilga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, bu esa Vatanparvarlik yurtimiz tinchlik-osoysishtaligini ta'minlashning garovidir. Hukamolardan biri: "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur", – demish. "Alhosil, tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb bejizga aytilmagan. U jamiyatni rivojlantiruvchi, shaxsni faol fuqaro maqomida o'z Vataniga fidoyi bo'lib xizmat qilishga safarbar etuvchi ichki kuch sifatida xizmat qiladi va ijtimoiy hodisa sifatida har qanday millat va davlatning yashashi va

<sup>62</sup> <https://lex.uz/docs/6518238>



rivojlanishini mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi.

***Savol va topshiriqlar***

*1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni haqidagi fikrlaringizni bayon eting.*

*2. Milliy qadriyatlar qanday falsafiy tushuncha hisoblanadi hamda nimani ifodalaydi?*

*3. Milliy qadriyatlarning negizini tashkil etuvchi omillarni sanab bering.*

*4. Ma'naviy - axloqiy qadriyatlar asosida o'quvchilarni milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning qanday imkoniyatlarini o'rgandingiz?*

*5. Nima uchun milliy qadriyatlar milliy ruhda tarbiyalash vositasi sifatida qaraladi? Fikringizni FSMU texnologiyasi asosida bayon eting.*

*6. "Milliy qadriyatlar umumta'lim maktabida milliy tarbiyani amalga oshirish vositasi" mavzusida esse tayyorlang.*

## **MAVZU: MILLIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAKORLIGI**

### **Reja:**

1. Milliy tarbiya jarayonida maktab, oila va mahalla hamkorligining maqsad va vazifalari.
2. Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyaviy hamkorligi imkoniyatlari.

*Tayanch soʻzlar:* maktab, mahalla, oila, hamkorlik, millat, milliy, insonparvarlik, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, pedagogik munosabat, axloqiy tarbiya, maqsad, vazifa, urf-odat, qadriyatlar, anʼanalar, erkin fikr, jismoniy rivojlanish, shaxs xususiyatlari, komil inson fazilatlarini.


### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «Ijtimoiy pedagogika» (darslik). T. 2022.
3. B.S. Abdullayeva, A.U. Umarov, B.N. Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
4. Vohidova N.X. «Milliy gʻurur tarbiyasi» (Monografiya). –T.: Istiqlol, 2010.
5. Quronov M. *Bizni birlashtirgan gʻoya / M. Quronov. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 348 b.*

**Milliy tarbiya jarayonida maktab, oila va mahalla hamkorligining maqsad va vazifalari.** Oʻzbekiston Respublikasining “Uzluksiz maʼnaviy tarbiya Konsepsiyasi”da<sup>63</sup> yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish maqsad qilib qoʻyilgan boʻlib, uni amalga oshirishda maʼnaviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga

---

<sup>63</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni/ “Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari toʻplami”, – 6 (766) – son, 2017yil.



tatbiq etish; bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish; tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va

malakasini muntazam oshirib borish; ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish; ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar<sup>64</sup>: "Ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi; davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi; ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

<sup>64</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'PQ-637 son qonuni. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi; ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik" deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatlar talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, masalaning mohiyati avvalo o'quvchi yoshlarning milliy tarbiyasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda manfaatdor vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat vakillari bilan hamkorlikda tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish bilan bog'liq. Ushbu sohada keng miqyosli faoliyat olib boruvchi barcha bo'g'inlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, **Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilgan bir paytda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasidan ko'zlangan natijaga "Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" erishilishi ta'kidlanib, bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklashini, bu jarayonda mamlakatimizdagi ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari birdek ma'sul ekanligini ta'kidlaganligi ham hamkorlikni o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi<sup>65</sup>.

**Milliy tarbiyani hamkorlikda amalga oshiriladigan asosiy vazifalar:**

- ta'lim-tarbiya jarayoniga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash va belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga kiritish;

- oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan uslubiy va amaliy ko'mak berish;

- o'quvchi va yoshlar, ularning ota-onalari o'rtasida tegishli mutaxassislar (psixolog, ijtimoiy xizmat mutaxassislari va b.)ni jalb qilgan holda tegishli mavzularda so'rovnomalar o'tkazish va natijasi asosida tavsiyalar ishlab chiqish, psixologik maslahatlar va treninglar tashkil etish;

- yosh avlodni vatanparvar, millatparvar va bag'rikenglik

<sup>65</sup> <https://www.standart.uz/cyrl/news/view?id=963>



ruhida tarbiyalash, kelajakka ishonch va intilish, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik kabi fazilatlarni singdirish, ularda hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini hamda faol grajdanlik pozitsiyasi va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;

- ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, konstitutsion majburiyati va mas'uliyatini oshirish, farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

- darslarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan o'quvchilarni aniqlash va maktabga qaytarish choralarini ko'rish;

- ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish, o'quvchi va yoshlarni bilim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish va ularni yanada takomillashtirish hamda kasb-hunar egallashida har tomonlama ko'mak berish;

- o'quvchi-yoshlarning zararli odatlar yo'liga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

- qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lim muassasalariga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- o'quvchi yoshlarda kelgusi oilaviy hayot, mahalla va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- "Ota-onalar universiteti" faoliyatini kuchaytirish;

- ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning doimiy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash.

Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, milliy tarbiyani amalga oshirishda mustahkam tamoyillarga tayangan holda amalga oshirish talab etiladi.

### **1. Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyaviy hamkorligi imkoniyatlari.**

Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekiston yoshlari forumida yoshlarga qarata: "Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim

togʻday koʻtariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni Oʻzbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman,” deb taʼkidlaganligi, ana shu yoshlarga beriladigan ilm-maʼrifat, taʼlim va tarbiya inson kamolotining, millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Albatta, taʼlim-tarbiya – ong mahsuli, ayni vaqtda, ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, yaʼni xalq maʼnaviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir.

Maktab, umuman taʼlim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida boʻlishi asosiy qonunimiz - Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (50-modda): “Har kim taʼlim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz taʼlim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat taʼlim tashkilotlari rivojlanishini taʼminlaydi. Davlat maktabgacha taʼlim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy oʻrta taʼlim va boshlangʻich professional taʼlim olishni kafolatlaydi. Umumiy oʻrta taʼlim majburiydir. Maktabgacha taʼlim va tarbiya, umumiy oʻrta taʼlim davlat nazoratidadir. Taʼlim tashkilotlarida alohida taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan bolalar uchun inklyuziv taʼlim va tarbiya taʼminlanadi<sup>66</sup>” deb belgilab qoʻyilgan. Shu bilan birga, ushbu soha keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qoʻllab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori aynan bilim dargohlarida, aniqrogʻi maktab darsxonalarida yaratiladi. Boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday boʻlishi farzandlarimizning bugun qanday taʼlim va tarbiya olishiga bogʻliq.

Aytilgan fikrlar shuni koʻrsatadiki, buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir farzand timsolida avvalo, bola shaxsini koʻrishi zarur. Demak, farzandlarimizni erkin, mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga asta-sekin, ammo muttasil ega boʻlib boradigan, ongli yashaydigan, voqea va hodisalarga daxldorlik tuygʻusiga ega boʻlgan, har tomonlama komil insonlar etib voyaga

---

<sup>66</sup> Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон



yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasidir.

Ma’lumki, mamlakatimizda ta’lim va tarbiya – o‘zaro uzviy bog‘liq sharqona tushunchalar sifatida qaraladi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmasligi davlatimizning ta’lim sohasidagi siyosatida ham ustuvor tamoyil hisoblanadi.

**Milliy tarbiyani amalga oshirish uchun oila bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:** ota-onalarning farzandni komil inson qilib tarbiyalashda bilim darajasi hamda farzandining barcha xatti-harakatlari uchun keng jamoatchilik oldidagi javobgarligini oshirish; oilada farzandga shaxs sifatida qarash, sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish, farzandlarga chuqur dunyoviy bilim berish, ularning ma’rifatli va ma’naviyatli hamda erkin fikr yuritishi uchun sharoit yaratish; farzandning ota-onaga, yaqinlari va do‘st-birodarlariga hurmat va muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash; farzandlarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan holda to‘garaklarga (musiqa va san’at, sport maktablari, “Barkamol avlod” bolalar markazlari, til o‘rgatish markazlari, mahallalar qoshidagi to‘garaklar) jalb etish, ularning qo‘shimcha ta’lim olishi, o‘z ustida ishlashi va kasbga yo‘naltirish uchun sharoit yaratish; oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta’minlash; farzandlarga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko‘nikmalarni singdirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularni turli ma’naviyatimizga zid zararli illatlar ta’siridan muhofaza qilish bo‘yicha tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish; farzandni oilaviy hayotga tayyorlashda ular ongiga boy ma’naviy merosimiz, axloq-odob qoidalari, urf-odat va an’analarni bugungi kunning talab va ehtiyojlari asosida singdirib borish; jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni bilim va kasb-hunar egallashlari uchun shart-sharoit yaratish; oilada bir-birlarini doimiy ravishda o‘zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik, tibbiy qo‘llab-quvvatlash ko‘nikma va odatlarini shakllantirish, oilaviy dam olishni to‘g‘ri tashkil etish; oilada turli muammoli vaziyatlarni oqilona hal etishda yoshlarni

muloqot madaniyatiga o'rgatish; oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda turli mavzuda suhbatlar o'tkazish; ommaviy axborot vositalari, telefon va internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan ma'naviyatimizga zid bo'lgan ma'lumotlardan farzandlarni saqlashda ota-onalar nazoratini kuchaytirish.

Prezident Sh.M.Mirziyoev o'zbek mahallalarining azaldan milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelganligini e'tirof etib, "Farzandlarimizning ma'naviy barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida ushbu tuzilmaning rolini yanada oshirish, "Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy" tamoyili asosida boshlangan ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish bugungi kun talabidir" degan fikr bildirgan. Haqiqatdan ham, o'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, yordamga muhtoj kimsalar xolidan xabar olish, yetim-yesirlarga yordam berish, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan birgalikda o'tkazish, yaxshi - yomon kunda insonlarning birga bo'lishi kabi xalqimizning asl urf-odatlar va an'analari avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining millatimizga xos bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, dilida va hayotida chuqur joy egallab kelgani bejiz emas. Xalqimizda: "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", degan gap bejiz aytilmagan" degan naql ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilinadi.

Farzand tarbiyasida: "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo mahalla tizimiga, mahalla faollari va fidoyilarining ulkan salohiyatiga tayanamiz. Biz mahalla institutini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz<sup>67</sup>.

So'nggi yillarida mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirildi. Davlatimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Konstitutsiyamiz tarkibiga kiritilib, uning jamiyat

<sup>67</sup> <https://qalampir.uz/news/prezident-ma%D2%B3alla-tizimi-khodimlari-va-faollarini-tabrikladi-35432>



boshqaruvidagi o'zni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. Mahallalar bugun o'zini-o'zi boshqarish idorasi, huquqiy demokratik darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda. Mahalla boshqaruviga bunday katta e'tibor bugun mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning xalqchilligidan dalolat beradi. Ayni paytda u yurtimizda amalga oshirilayotgan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyilning ifodasi bo'lib, ma'naviy hayotimizni yanada mustahkamlash, yosh avlodning ongu tafakkurini zamonaviy bilimlar va ilg'or tarbiya tizimi asosida shakllantirish borasida mahalla tizimiga, mahalla faollari va fidoyilarining ulkan salohiyatiga tayanamiz. Biz mahalla institutini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz<sup>68</sup>.

**Yuqorida bayon qilinganlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashda mahalla bilan hamkorlikda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi:**

- ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalarni muhokama qilishda ta'lim muassasalari bilan birgalikda qatnashib, oqilona yechimlar topishda faollik ko'rsatish;

- farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko'rish;

- mahalla hududidagi ta'lim muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

- mahallada milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

- ta'lim muassasalari tavsiyasiga ko'ra, turli yo'nalishdagi iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

---

<sup>68</sup> <https://qalampir.uz/news/prezident-ma%D2%B3alla-tizimi-khodimlari-va-faollarini-tabrikladi-35432>

- ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bolalar va o'smirlar o'rtasida sport musobaqalari, sport to'garaklari tashkil etish, sport sohasida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlarni moddiy-ma'naviy jihatdan rag'batlantirish va b.

**Shaxsni milliy ruhda tarbiyalashda ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilishi muhim ahamiyatga ega:**

- ta'lim muassasalarida ahillik, ijodiy muhit, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, bu maqsadga erishish uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyat yaratish;

- ta'lim muassasalarida "Ichki tartib qoidalar" va "Odob-axloq qoidalari" talablariga to'liq rioya etilishiga erishish;

- ta'lim muassasalari negizida faoliyat ko'rsatayotgan "Otonalar universitetlari" orqali pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlarni zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish;

- tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik, diniy ekstremizm va milliy taraqqiyotimizga zararli boshqa g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida turli xil chalg'ituvchi vositalar (qo'l telefonlari, videotasmalar, internet tarmog'idagi ma'lumotlar, kompyuterdagi o'yinlar)ning zararli oqibatlari haqida doimiy va keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- hozirgi murakkab sharoitda yosh avlod ongi va shuuriga ta'sir etish uchun bo'layotgan ma'naviy tahdidlarga nisbatan muntazam tarbiya va tegishli mashg'ulotlar yordamida mafkuraviy immunitet hosil qilish;

- o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, ayniqsa sport va qiziqishlariga mos bo'lgan to'garaklarda shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchi-yoshlarda kitobxonlik, mutolaa madaniyati, badiiy adabiyotga muhabatni zamon talablarini e'tiborga olgan holda shakllantirish;

- o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olib, ularni turli sohalar bo'yicha kasb-hunarga yo'naltirish, ularning



biror bir aniq kasb-hunarni egallashi uchun poydevor yaratish, bunda otalarning rolini kuchaytirish maqsadida "Otalar majlisi"ni o'tkazib borish hamda uzluksiz va tizimli yondashishni tashkil etish ( maktabgacha ta'lim - umumiy o'rta ta'lim - o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi - oliy ta'lim);

- bola tarbiyasi namunali yo'lga qo'yilgan oilalar tajribasini o'rganish va ota-onalar majlislarida ommalashtirish;

- ta'lim muassasalariga (maktab, kasb-hunar kolleji va litseylar) surunkali kelmaydigan o'quvchi-yoshlarni Jamoat kengashi yordamida ta'limga jalb etish;

- o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarni aniqlash, ro'yxatga olish, ular bilan tegishli tashkilotlar ko'magida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, Jamoat kengashida muhokama qilish;

- o'quvchilarni milliy qadriyatlarga tayangan holda oilaviy hayotga tayyorlash;

- ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy, ma'nay-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarining mahallalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilishiga erishish;

- "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti, "Orasta qizlar", "Zulfiyaxonim qizlari" klubi, "O'g'il bolalar kengashi" va "Sahovatli bolalar" harakati faoliyatini yanada jonlantirish;

- iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini hamkorlikda amalga oshirish;

- bolalarning o'z o'quv muassasasi xududini toza, ozoda saqlash va obdonlashtirish (ta'lim muassasalari atrofidagi qarovsiz yotgan yerlarda mevali bog'lar yaratish) ishlariga jalb etish, xasharlar tashkil etish;

- hamkorlikda olib borilgan ijobiy ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish.

"Ota-onalar universiteti" mashg'ulotlarini rejalashtirishda dolzarb muammolar bo'yicha mavzular tanlab olinadi va uning ilmiy-nazariy tomonlari yoritiladi. Universitet mashg'ulotlari

munozara, muloqot, uchrashuv, ko'rik tanlov shaklda o'tkazilsa, maqsadga muvofiqdir. Taniqli olimlar, namunali oilalar, iqtidorli, ijodkor ota-onalar va bolalar, san'atkorlar, yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar o'tkazish ham universitet ishining samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi tarbiyaviy, tashkiliy, metodik ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'z shart-sharoiti, mavjud imkoniyatlariga qarab ish tutadi.

### ***Savol va topshiriqlar***

*1. Milliy tarbiya jarayonida maktab, oila va mahalla hamkorligidan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?*

*2. Milliy tarbiya jarayonida maktab, oila va mahalla hamkorligining asosiy vazifalarini bayon eting.*

*3. Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyaviy hamkorligining qanday imkoniyatlari mavjud?*

*4. Milliy tarbiyani amalga oshirish uchun oila bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar mazmunini tasniflang.*

*5. Farzand tarbiyasida: "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyil mazmunini yoriting.*

*6. "Ota-onalar universiteti" mashg'ulotlarini rejalashtirishda mavzular tanlab olish qanday omillarga bog'liq?*



## **TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA MODDIY- TEXNIK TA'MINOT**

### **Reja:**

1. Maktab moddiy-texnik ta'minoti tarbiyaning zaruriy vositasi sifatida.
2. Maktab foesi, tarbiya darslari xonasining jihozlanishi, uning milliy tarbiyadagi ahamiyati.
3. Maktab sport maydoni sog'lom turmush madaniyatini shakllantiruvchi omil ekanligi.
4. Kutubxona va uning millat tarbiyasidagi ahamiyati.

*Tayanch so'zlar:* kutubxona, sport, sport zali, kitobxon, millat, milliy, insonparvarlik, axloqiy tarbiya, oila, maktab, mahalla, maqsad, vazifa, urf-odat, qadriyatlar, an'analar, erkin fikr, jismoniy rivojlanish, shaxs xususiyatlari, komil inson fazilatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., Voxidova N.X., Raxmankulova N.X.. *Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.*
2. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. «Ijtimoiy pedagogika» (darslik). T. 2022.
3. B.S. Abdullayeva, A.U. Umarov, B.N. Saidova. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: Nodirabegum nashriyoti, 2021.*
4. Sh.S. Shodmonova, G.N. Ibragimova, F.O. Mirzayeva. *Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022.*
5. Quronov M. *Bizni birlashtirgan g'oya / M. Quronov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 348 b.*

**Maktab moddiy-texnik ta'minoti milliy tarbiyaning zaruriy vositasi sifatida.** Tarbiya jarayonini tashkil etishda maktabning moddiy-texnik bazasi ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning muhim omili sanaladi. Bugungi kunda maktablarda o'quv maqsadlari uchun xizmat qiladigan moddiy-texnik vositalarning didaktik imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, an'anaviy o'qitish vositalari bilan bir qatorda yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish yuqori samaradorlikka erishish imkonini berishi aniqlangan.



*Maktabning moddiy-texnika bazasi - ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan yoki ishlatilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish vositalari majmui hisoblanadi.*

Zamonaviy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda quyidagilardan: ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini yaratish; ta'lim-tarbiya jarayonida ilmiy asoslangan texnologiyani ishlab chiqish bunda zamonaviy moddiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish; o'qituvchilar va ta'lim boshqaruvchilari faoliyatini takomillashtirishda moddiy-texnik vositalardan keng foydalanish nazarda tutiladi. Maktabning moddiy-texnika bazasi ta'lim muassasasining rivojlanishi hamda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishning zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun maktab zamonaviy o'quv va sport jihozlari, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari bilan ta'minlashini yaxshilash; maktabni zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlash talab etiladi.

**Maktabdagi milliy tarbiyani amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayonini moddiy-texnik ta'minlash bir qator elementlarni o'z ichiga oladi:**

**O'quv adabiyotlari bilan ta'minlash.** O'quv jarayonini o'quv adabiyotlari, o'quv rejasidagi barcha fanlari bo'yicha dasturlar, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun o'quv-uslubiy majmua, didaktik va illyustrativ materiallar bilan to'liq ta'minlanishi.

**Maktab foelari, sinf xonalari, tarbiya darslari xonalari, ma'naviyat xonalarini jihozlash.** O'quv xonalari zaruriy jihozlar, didaktik va texnik vositalar, o'quv materiallari bilan jihozlanadi.

**IT infratuzilmasining mavjudligi.** Maktab zamonaviy axborot bazasi bilan ta'minlangan bo'lishi: barcha o'quv xonalari axborot texnologiyalari bo'yicha interfaol doskalar, shaxsiy kompyuterlar, multimedia proyektorlari, printerlar, MFPlar, o'quv jarayonida noutbuklardan faol foydalanilish;

**Sport zali jihozlari.** Sport zali jismoniy tarbiya o'quv dasturining barcha bo'limlari bo'yicha sport jihozlari va inventarlari bilan jihozlangan.



**Kutubxona.** Kutubxonada o'quvchilar va o'qituvchilarga an'anaviy va zamonaviy turdagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi obuna zonasining mavjudligi, adabiyotlar bilan ta'minlanganligi. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan jihozlarning ayrimlariga batafsil to'xtalamiz.

**Maktab foesi, tarbiya darslari xonasining jihozlanishi, uning milliy tarbiyadagi ahamiyati.** Maktab foyelari O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2020 yil 30 iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari hovlisi, foye va bino yo'laklarini bezatish hamda obodonlashtirishning namunaviy talablari bo'yicha tavsiyalar to'g'risida"gi 179-sonli buyrug'ida belgilangan tavsiyalar asosida jihozlanadi. Unga ko'ra:

umumta'lim maktablarining hududiga kirish qismida, ya'ni maktab darvozasining ikki tomoniga muassasa peshtaxtasi o'rnatiladi;

mazkur peshtaxta darvozaning chap tomonida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida davlat tilida, o'ng tomonida esa ingliz tilida (*ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda tegishli tillarda*) yozilgan holatda bo'lishi tavsiya etiladi. Kirish darvozasining peshtoqiga katta harflar bilan maktabning raqami (*masalan: 114-sonli umumta'lim maktabi*) yozib qo'yiladi.

Ta'lim muassasasi foyesiga kirish qismining o'ng tomon devoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning portreti hamda Prezidentning yoshlar ta'lim va tarbiyasiga oid hamda maktab to'g'risidagi fikrlarini iqtibos ko'rinishida joylashtirish tavsiya etiladi. Maktab foesiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlaridan birini iqtibos ko'rinishida joylashtirilish mumkin:

1. *"Yoshlarimizning tarbiyasi qanchalik mukammal bo'lsa, xalq shuncha yaxshi yashaydi";*

2. *"Ilm va izlanish bo'lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohaning kelajagi bo'lmaydi";*

3. *"O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak,*

*ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz";*

4. *"Zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan yoshlarimiz bizning baxtimizdir";*

5. *"Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir";*

6. *"Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi";*

7. *"Bizning asosiy maqsadimiz - yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishdan iborat";*

8. *"Bizning qat'iy ishonchimizga ko'ra jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini rag'batlantirish - bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir";*

9. *"Eng muhim vazifa – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdir!";*

10. *"Xalqimiz ertasining qanday bo'lishi farzandlarimiz bugun qanday ta'lim – tarbiya olishlariga bog'liq";*

11. *"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz";*

12. *...“maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir”.*

Maktab foyesiga kirish qismining chap tomon devoriga, O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari (*bayroq, gerb, madhiya*) aks ettirilgan har biri alohida yoki yaxlit ko'rinishda tayyorlangan stend joylashtirililadi. Mazkur stendlarni zamonaviy texnologiyalar rivojini inobatga olgan holda kreativ yondashib, maktabning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, tashqi ko'rinishi



Binoning foye qismi devorlariga Dars jadvali, Umumta'lim maktabi o'qituvchi va o'quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari


va yoritishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash tavsiya etiladi. Xususan, imkoniyat darajasida yog'och, orakal, plastik va shisha kabi materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabning

foye qismini yorqin rangdagi katta tuvaklarga ekilgan tabiiy gullar bilan bezatish tavsiya etiladi.

Shuningdek, maktabning foye qismiga binoning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarga qulay balandlikda quyidagi stendlarni did bilan joylashtirish tavsiya etiladi:

- 1 dona – dars jadvali;
- 1 dona – to'garaklar jadvali;
- 1 dona – kasblar burchagi;
- 1 dona – taraqqiyot strategiyasiga doir infografika;
- 1 dona – “Umumta'lim maktabi o'qituvchi va o'quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari;
- 1 dona – a'lochi va faol o'quvchilarining suratlari joylashtirilgan “Bizning faxrimiz” stendi.

Turli jadvallar va e'lonlarni katta, tushunarli va bir-biriga mos shriftlarda yozish va chop etish tavsiya etiladi. Sanitariya-gigiyena qoidalari, dizayn talablari hamda o'quvchilarni ta'lim olishdan chalg'itmaslik yuzasidan sanab o'tilgan stendlardan tashqari maktab foyesiga boshqa turli xil stend va bannerlarni o'zboshimchalik bilan o'rnatish mumkin emas. Maktab foyesining arxitektura jihatdan o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, devorlarga aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda foydalaniladigan turli xil formulalar, davriy jadvallar va figuralarning rasmlarini did bilan chizdirish mumkin. Shuningdek, maktab zinalaridan ta'lim olishda



eshiklaridan, ularning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, yo'lakning pol qismiga maxsus tasvir tushirib transportir sifatida foydalanish ham mumkin. Maktab yo'laklarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, devorlarga buyuk allomalarimiz va davlat arboblarning yoshlarni ta'lim va tarbiyasiga doir dunyoviy xarakterdagi hikmatli so'zlarini yozib qo'yish mumkin.

Maktab yo'laklarining texnologik jihatlaridan kelib chiqib, ularda yo'l harakati qoidalarining asosiy va muhim bo'lgan tartib va qoidalarini mustahkam va chidamli bo'yoq yoki boshqa (harakatlanishga xalaqit qilmaydigan) materiallardan foydalangan holda tasvirlash mumkin.

Tarbiya darslari xonalari uchun jihozlar.

Fransuz yozuvchisi Anri Barbus maktab - bu ustaxona, bu yerda yosh avlodning fikrlari shakllanadi degan fikrlarini inobatga olsak, maktabning tarbiya darslari xonasi o'quvchilarga inson tarbiyasi uning butun umri mobaynida davom etishi hamda murakkab jarayon ekanligi haqida ma'lumot beradigan holda jihozlanishi kerak. Tarbiya fani o'qituvchisi nafaqat ijodkorlik bilan shug'ullanishi balki u dizayner, quruvchi, rassom, ozodalik posboni bo'lishi talab etiladi, sababi bu uning ikkinchi uyi, har qanday uy egasi kabi ustoz ham o'z uyini asrab-avaylab, unga qalbining bir parchasi sifatida qaraydi.

Tarbiya darslari xonasi jihozlari zamonaviy talablarga javob berishi: unda noutbuk, multimedia proyektori, stereo tizim mavjud

qo'shimcha manba sifatida foydalanish maqsadida ko'paytiruv jadvalini aks ettirish tavsiya etiladi. Maktabning aniq fanlar sinf xonalari



bo'lishi. Devorga bezatilgan stendlar ham tarbiya fanida o'zlashtiriladigan bilimlar mazmunini aks ettirishi, shuningdek, stendda o'quvchilarning ijodiy ishlari, bolalar chizgan rasmlari va devor gazetalari ham namoyish etilishi mumkin. Eshik yaqinidagi devor yonida kitoblar javonlarini qo'yish: lug'atlar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, tarbiyaga oid asarlar o'rin olishi mumkin. Ulardan birida o'quv jarayonida doimiy foydalaniladigan didaktik tarqatma materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va testlar mavjud bo'lib, ularning soni yangi narsa chop etilganda doimiy ravishda ortib boradi.

Tarbiya darslari xonasi, har qanday sinf kabi, bir nechta funksiyalarni bajaradi. Bu xona iqtidorli va qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun darslar va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonasi, tarbiya darslari bo'yicha turli sinfdan tashqari tadbirlar o'tkaziladigan o'yin maydonchasi hamdir. Tarbiya darslari xonasi o'quvchilar uchun maktabdagi eng muhim joy: bu erda muloqot qilinadi, darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi, ko'rgazmalar va tanlovlarga tayyorgarlik ko'riladi va mashq qilinadi. Ota-onalar yig'ilishi, maktab miqyosida fan olimpiadalari o'tkaziladi.

Tarbiya darslari xonasi o'quv yili davomida qizg'in hayot kechiradi. Tarbiya darslari xonasi, birinchi navbatda, darslar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, maslahatlar o'tkaziladigan ish xonasidir, shuning uchun uni nafaqat texnik jihatdan yaxshi jihozlash, balki qulay va chiroyli bo'lishi ham muhimdir.

***Maktab sport maydoni sog'lom turmush madaniyatini shakllantiruvchi omil ekanligi.*** Mustaqillikning ilk yillaridan respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga muhim vazifalardan biri sifatida qaraldi.

Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari ushbu soha rivojida muhim asos vazifasini o'tamoqda. Jismoniy tarbiya va sport mamlakat yoshlarini har tomonlama komil insonlar etib tarbiyalashda, ona-vatan sarhadlarini qo'riqlashda, barkamol vatanparvar avlodni voyaga yetkazishda bosh omil vazifasini o'taydi. Chindan ham, inson kamoloti, umuman, jamiyat ravnaqida

jismoniy tarbiyaning ta'siri katta.

Yunon faylasufi Suqrot: «Gimnastika yordami ila badanimning muvozanatini to'g'rilab olaman»-degan fikrni ilgari surib, insonning birinchi tabiiy kuchlarini yaxlitligicha o'stirish vazifasini o'rta qo'yadi va shundagina insonni ma'naviy jihatdan kamol toptirishga erishish mumkinligini aytadi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, jismoniy tarbiya – u sof sport musobaqalaridan iborat bo'lgan soha emas. Bu tarbiya orqali bolalarda ko'plab axloqiy-irodaviy xislatlar kamol toptiriladi.

Mashqlarni bajarish davomida bolalarda iroda, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik tarbiyalanadi, ularning sog'ligi mustahkamlanadi, ish qobiliyatlari, aqliy faolligi oshiriladi, jasurlik, halollik, qat'iylik, mustaqillik kabi milliy tarbiya ruhi shakllanadi, yetuklik sari qadam tashlanadi. Jismoniy mashqlar o'quvchilarda harakat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni hal etadi, harakat apparatining rivojlanishiga yordam beradi, qon aylanish va modda almashishini yaxshilaydi, nafas olishga ijobiy ta'sir etadi.

Maktabdagi jismoniy tarbiyaga oid amaliy ishlarda qo'llaniladigan harakatlar tezkorlikni, epchillikni, qayishqoqlikni, kuchni, chidamlilikni rivojlantiradi va kishining yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saqlash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi tabiiy harakatlarni to'g'ri bajarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. O'quvchilarni harakatlanish ko'nikmalari va malakalariga o'rgatish, asosan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sodir bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya dasturi o'quvchilarning aniq bilimlarini, malaka va ko'nikmalarni asta-sekin o'zlashtirishlarini ko'zda tutadi. Jismoniy tarbiya darslari esa mazkur bilimlarni mustahkamlash va to'ldirishda asosiy vositalardan hisoblanadi. Shunday ekan, barcha sport turlari bo'yicha asosiy harakatlar, mashqlar jismoniy tarbiya vositalaridan biri bo'lib, bu o'quv trenirovka jarayonida shug'ullanuvchilarning har tomonlama rivojlanish vazifasini hal etadi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha to'garaklar quyidagi aniq maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan: - maktab o'quvchilarida yuqori axloq-odob va iroda xususiyatini tarbiyalash; -



o'quvchilarda sportga bo'lgan qiziqishini uyg'otish; - hayotiy zarur harakat malaka va bilimlarini shakllantirish, ularni turlicha sharoitda tadbiq qilish; - o'quvchilarda asosiy harakat qobiliyatini baholash makon va vaqtiga harakat parametrlarini rivojlantirish jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishni shakllantirish uddaburonlikni tashkil qilish, shaxsiy jismoniy takomillashtirish ehtiyojini tarbiyalash<sup>69</sup>.

Shu sababli jismoniy tarbiya darslarini har tomonlama samarli va mazmunli tashkil qilish asosiy vazifalardan sanaladi. Jismoniy tarbiya darslari tashkil etilar ekan, avvalo, o'qituvchining: - o'z kasbining tajribali va professional egasi bo'lishi; - o'quvchilarning o'zlari va ota-onalari bilan samimiy muomala-munosabat madaniyatiga egaligi; - o'quvchilarni shug'ullantirish, faoliyatini baholash, rag'batlantirish, musobaqalardagi ishtirokini ta'minlashda ijtimoiy adolat prinsiplariga qat'iy amal qilishi; - o'z manfaatlaridan o'quvchilar manfaatini ustun qo'yishi; - o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport malkalarini shakllantirishga pedagogik-psixologik jihatdan mohirona yondashishi; o'z ezgu g'oyalari ostidan yoshlarni ergashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi va h.k. kabi omillar hal qiluvchi jihatlardan sanaladi. O'z navbatida esa o'quvchilar: - darslarga o'z xohish-ixtiyori, tanlovi va qiziqishi asosida qabul qilinishi; - tibbiy-fiziologik jihatdan tayyor bo'lishi; - dars va to'garaklarning maqsad-vazifalari bilan to'laqonli tanishishi talab etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Sog'lom turmush madaniyati" tushunchasining pedagogik kategoriyasi uchta bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) sog'lom rivojlanish;
- 2) sog'lom hayot kechirish;
- 3) sog'lom tarbiya olish.

Bularning barchasi sog'lom hayot kechirish vositasida sog'lom turmush madaniyatining shakllanishiga olib keladi.

Shu ma'noda, "Sog'lom turmush madaniyati" tushunchasida sog'lom hayot kechirish g'oyasi asosiy va muhim masala

---

<sup>69</sup>Олий таълим муассасаларида спорт турлари бўйича тўғараклар дастури мажмуаси. Низомий номидаги ТДПУ. Профессор К.М.Маҳкамджонов таҳрири остида. Т.- 2015. 401 б. Б: 12

hisoblanadi. Sogʻlom hayot kechirish – bu insonning ruhiy-maʼnaviy, ahloqiy va moddiy jihatdan maqbul darajada yashashidir<sup>70</sup>

*Sport infratuzilmasi - sport bilan shugʻullanish va sport musobaqalarini tashkil etish uchun sharoitlarni taʼminlaydigan ob'ektlar va tadbirlar majmui hisoblanadi.*

*Sport infratuzilmasi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:*

1. Sport inshootlari va majmualari: stadionlar, sport zallari, suzish havzalari, muz arenalari va ayrim sport turlari bilan shugʻullanish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan inshootlar.

2. Mashgʻulot maydonlari va musobaqa maydonlari: bogʻlar, stadionlar, akvaparklar, changʻi piyodalari va ochiq havoda mashgʻulotlar va musobaqalar oʻtkazish uchun moʻljallangan boshqa joylar.

3. Sport klublari va federatsiyalari: sportchilarni birlashtirib, mashgʻulotlar, musobaqalar va boshqa tadbirlarni oʻtkazuvchi tashkilotlar.

4. Taʼlim muassasalari: maktablar, kollejlari, oliy oʻquv yurtlari va sport bilan shugʻullanish va sportchilarni tayyorlash imkoniyatini beruvchi boshqa taʼlim muassasalari.

5. Muxlislar uchun infratuzilma: stendlar, tomoshabinlar uchun maydonlar, sport tadbirlarida tomoshabinlarning qulay yashashini taʼminlovchi kafe va doʻkonlar.

6. Tibbiyot va rehabilitatsiya muassasalari: kasalxonalar, sport klinikalari, sportchilarga tibbiy yordam koʻrsatish va jarohatlardan keyin rehabilitatsiya qilishlari mumkin boʻlgan fizioterapiya markazlari.

Sport infratuzilmasining muhim jihati uning yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarligi va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, aholining barcha toifalari uchun qulayligidir.

Sport infratuzilmasi jamiyatda sportni rivojlantirish, odamlarning jismoniy va maʼnaviy salomatligini mustahkamlash,

---

<sup>70</sup> И.Д.Матчанов. Мактабдан ташқари таълим муассасаларида ўсмирларнинг соғлом турмуш маданиятини шакллантириш. Номзодлик диссертацияси. Т.-2011.162 б. Б.:14.



sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Sport-sogʻlomlashtirish ishlari tizimini shakllantirishda jismoniy tarbiya darslari, sport tadbirlari va musobaqalarini tashkil etish va oʻtkazish muhim oʻrin tutadi.

Maktabda taʼlim muassasasining sogʻliqni saqlash profiliga muvofiq jihozlangan sport zali mavjud boʻlishi, maktab yonida oʻquv jarayoni va darsdan tashqari mashgʻulotlarni tashkil etish va oʻtkazish uchun toʻliq jihozlangan stadion boʻlishi talab etiladi.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchilari darslarda va darsdan tashqari mashgʻulotlarda turli jihozlar va asboblardan foydalanish imkoniyatiga ega: gimnastika toʻsinlari, echkilar, turli yoshdagilar uchun toʻsinlar, arqon, etarli miqdorda toʻplar, sakrash arqonlari, gimnastika tayoqlari, skittles, gimnastika, skameykalar, yugurish yoʻlaklari boʻlgan sport stadioni, futbol maydoni, basketbol va voleybol maydonlari, shuningdek, ochiq havoda mashq qilish anjomlari boʻlishi talab etiladi.

Issiq mavsumda oʻquvchilar toza havoda jismoniy tarbiya bilan shugʻullanadi, futbol oʻynaydi.

Qish mavsumida stadionda changʻi yoʻli yotqiziladi, bolalar changʻida uchish texnikasini oʻzlashtiradilar.

Sport zali va stadion Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi vazirining 2017-yil 16-oktyabrdagi “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun zarur boʻladigan jihozlar meʼyorlarini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi buyrugʻiga koʻra jihozlanishi kerak.

### **Sport zali uchun jihozlar**

	Sport anjomlari	Oʻlchov birligi	Sport zallarining oʻlchami		
			9 x 18	12 x 24	18 x 30
1.	Dori qutisi	toʻplam	1	1	1
2.	Gimnastik eshak	dona	1	1	1
3.	Dastakli gimnastik eshak	dona	1	1	1
4.	Tayanch sakrash uchun	dona	1	1	1



	gimnastika eshagi				
5.	Gimnastika o'tirgich	dona	4	4	6
6.	Turnik (perekkladina)	to'plam	1	1	1
7.	Parallel brus	dona	1	1	1
8.	Gimnastik to'nka	dona	1	1	1
9.	Yugurib kelib sakrash uchun ko'priqcha	dona	1	1	1
10.	Arqonli halqalar (gimnastik)	to'plam	2	2	2
11	Lazaniya uchun arqon	dona	1	2	2
12	Shved javoni	dona	4	4	6
13	Gimnastik matras( to'shak)	dona	8	10	14
14	Turli xil gantellar (2 kg, 4 kg, 6 kg, 8 kg)	juft	5	8	10
15	Gimnastik gardish	dona	10	15	30
16	Gimnastik tayoqlar	dona	10	15	30
17	Sekundomer	dona	2	2	2
18	Yengil atletika dastaklari	dona	2	2	2
19	Futbol to'pi	dona	10	15	20
20	Basketbol to'pi	dona	10	15	20
21	Voleybol to'pi	dona	10	15	20
22	Gandbol to'pi	dona	10	15	20
23	Voleybol ustunlari to'ri bilan	to'plam	2	2	2
24	Nasos	dona	2	3	4
25	Shaxmat soatlari	dona	3	4	5
26	Basketbol nishoni (halqa va to'r bilan)	dona	2	2	2
27	Shaxmat	dona	3	4	5
28	Shashka	dona	3	4	5
29	Tennis stoli (raketka va to'r bilan)	to'plam	2	4	4
30	Stol tennis to'pi	dona	75	100	100
31	Armrestling uchun stol	dona	1	1	1
32	Tosh (8 kg, 16 kg — har bir odamga)	dona	2	3	3
33	Yengil atletika uchun estafeta tayoqchalari	dona	10	15	20
34	Futbol darvozasi	to'plam	1	1	1



**Kutubxona va uning millat tarbiyasidagi ahamiyati.** Bunda axborot kitob, gazeta, jurnal, video- va audio tasma, optik disk va h.k shaklda bo'lishi mumkin. Kutubxonalar tashkilot (jamoat) yoki jismoniy shaxs (shaxsiy kutubxona) tomonidan tashkil etilishi mumkin.

***Kutubxona** (arab. *kutub* - "kitoblar", fors. *xona* - "uy") axborot yig'iladigan joydir.*

**Kutubxona** — bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa; muntazam ravishda bosma asarlar to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug'ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko'rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini buklash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxonlarga yetkazish kabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat kiradi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini imkon boricha to'liq qondirish va adabiyot tanlashlariga yordam berishdan iborat. Har bir kutubxona o'z turiga ko'ra kitobxonlarni tabaqalarga bo'lib, alohida kitobxonlar guruhlariga ajratgan holda xizmat ko'rsatishni tashkil qiladi. Adabiyotlar targ'ibotining barcha shakl va usullari kitobxonlar talabini imkon qadar to'liq va tezkorlik bilan qondirishga qaratiladi.

O'zRda kutubxonaning ommaviy, ilmiy va maxsus turlari bor. Ommaviy kutubxonalar adabiyotlarni saralash va keng kitobxonlar ommasiga yetkazish, faoliyatida turli kitobxonlar guruhlariga mo'ljallangan kitoblarni targ'ib qilish va o'qishni boshqarishda faol va ta'sirchan usullarni qo'llaydi. Bu guruhga O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi shahar va qishloq kutubxonalari, kasaba uyushmalarining korxonalaridagi kutubxonalari, klublar, madaniyat uylaridagi kutubxonalar kiradi.

Ilmiy va maxsus kutubxonalar fan, iqtisodiyot va madaniyatning turli tarmoqlaridagi olimlar va mutaxassislariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, oliy va maxsus o'quv yurtlari talabalarining ehtiyojlarini qondiradi. Ilmiy kutubxonalarga yirik davlat, akademiya, universitet va tarmoqlar kutubxonalari; maxsus kutubxonalarga texnika kutubxonalari, muassasalar, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va hokazodagi kutubxonalar kiradi. Saqlanayotgan adabiyotlar tarkibiga qarab kutubxonani universal, ko'p sohali va soha kutubxonalariga ajratish mumkin. Kutubxonalar o'z navbatida, faoliyati, mintaqaviy darajasiga, mansubligiga qarab yana turlarga bo'linadi (milliy kutubxona, davlat kutubxonasi, viloyat kutubxonasi, o'smirlar kutubxonasi, qishloq xo'jaligi kutubxonasi va boshqalar). Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida alohida kutubxona kutubxonlarning talablarini qondirishga qodir emas. Shuning uchun kutubxonalar birgalikda faoliyat ko'rsatish jarayoni kuzatilmoqda. Bu kutubxona tarmoqlarini markazlashtirishda namoyon bo'lmoqda.

### ***Har qanday kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondini jamlash, joylashtirish hamda kitobxonlarga xizmat qilishdan iborat.***

Kitob fondini jamlash uchun ushbu kutubxonaga kerakli nashrlar muntazam kuzatib boriladi, aniqlanadi va ularni kutubxonaga olish kutubxona kollektori orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yirik kutubxonalar bosma nashrlarning to'liq yoki qisman nazorat nusxasini olish huquqiga ega, shuningdek, ular uchun mamlakat ichida va chet mamlakatlardan kitoblar sotib olish imkoni yaratiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish darajasi kutubxona fondini to'liq to'plashga birmuncha bog'liq. Kitob fondini to'g'ri tashkil qilish (hisobga olish, joylashtirish, saqlash va kitobxonga yetkazish) kitobxonga adabiyotdan foydalanishni, kutubxonachiga esa kitobxonga tez xizmat ko'rsatishni, fondni ijtimoiy mulk sifatida saqlashni ta'minlaydi.

Kitobxonga xizmat ko'rsatishning turli yo'llari mavjud: kitobxonga abonement, qiroat xona hamda ko'chma kutubxona



orqali kitob berish; ayrim kitobxon va korxonalariga kitob tanlashda yordam berish; kutubxona katalogi tizimi orqali kitob fondini yoritish; turli xil axborot-bibliografiya qo'llanmalari tuzish va hokazo. Zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyoti kutubxonalar ishini murakkablashtirmoqda. Ko'plab bosma asarlarni ishlab chiqarishning beqiyos darajada o'sishi kutubxonalar oldiga ko'p hajmdagi nashrlarni tanlash, saralash va oqilona saqlash, kompyuterlar vositasida izlab topish va tezda kitobxonga yetkazish masalalarini ko'ndalang qo'yadi.

Zamonaviy texnika kutubxonachini qo'l mehnatidan ozod etib, uni asosiy vazifasi — kitobxonlar bilan madaniy tarbiyaviy ishlar olib borishga ko'proq vaqt ajratishga imkon yaratmoqda. Dunyodagi eng yirik kutubxonalar: AQShning Kongress kutubxonasi (Vashington), Britaniya kutubxonasi (London); Fransiya, Avstriya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning milliy kutubxonalari, Rossiyadagi Rossiya davlat kutubxonasi (Moskva), Rossiya milliy kutubxonasi (Sankt-Peterburg) va boshqa, O'zbekistonda O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi, O'zbekiston milliy universitetining Asosiy kutubxonasi, "Turon" kutubxonasi va boshqa kutubxonalar mavjud.

Kutubxona ta'lim faoliyati ishtirokchilarining kutubxona-axborot resurslaridan tekin foydalanish huquqini ta'minlash maqsadida o'quv jarayonida ishtirok etuvchi ta'lim tashkilotining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. O'quv jarayoni ishtirokchilariga xizmat ko'rsatishni tashkil etish xavfsizlik qoidalari va yong'in xavfsizligi, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

***Zamonaviy maktab kutubxonasi - bu o'quv faoliyati turli shakl va usullarda amalga oshiriladigan maxsus muhit.***

***Maktab kutubxonasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:***



Ta'lim jarayoni ishtirokchilari: o'quvchilar, o'qituvchilar, ot-onalar uchun ma'lumotlar, bilimlar, g'oyalar, madaniy qadriyatlarga oid manbaalar bilan ta'minlash. Kutubxonadan mustaqil foydalanuvchi ko'nikmalarini rivojlantirish: axborotni izlash, tanlash va tanqidiy baholashga o'rgatish. Yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va kutubxona-axborot jarayonlarini kompyuterlashtirish, qulay kutubxona muhitini yaratish orqali kutubxona tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni yaxshilash.

***Mazkur vazifalarini amalga oshirish uchun:*** ta'lim tashkiloti kutubxona-axborot resurslari fondini shakllantiradi; axborot mahsulotlarini yaratadi; o'quvchilarga tabaqalashtirilgan kutubxona-axborot xizmati ko'rsatadi; o'qituvchi-o'quvchilarga tabaqalashtirilgan kutubxona-axborot xizmatini ko'rsatadi. Kutubxona boshqaruvini kutubxonachi amalga oshiradi, u o'z vakolatlari doirasida maktab direktori, o'quvchilar oldida kutubxona faoliyatini tashkil etish va natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi.

***Kutubxonadan foydalanuvchi o'quvchilar quyidagi huquqlarga ega:*** kutubxona fondi tarkibi, axborot resurslari va kutubxona tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida to'liq ma'lumot olish; kutubxonaning ma'lumotnoma-bibliografik apparatidan foydalanish; axborot manbalarini qidirish va tanlashda maslahat olish; obuna va o'quv zalida vaqtincha foydalanish uchun bosma nashrlar, audiovizual hujjatlar va boshqa axborot manbalarini olish; hujjatlardan foydalanish muddatini uzaytirish; kutubxona fondi asosida mavzuli, faktik, aniqlovchi va bibliografik ma'lumotlarni olish; elektron va boshqa asbob-uskunalaridan foydalanganda noan'anaviy tashuvchilardagi ma'lumotlar bilan ishlashda maslahat yordamini olish; kutubxona tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish kabilar.

***Kutubxona foydalanuvchilarining majburiyatlari:*** kutubxonadan foydalanish qoidalariga rioya qilish; bosma asarlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish (yirtmang, varaqlarni egmang, kitoblarda tagiga chizma yoki eslatma qilmang), boshqa hujjatlarga turli xil tashuvchilar, jihozlar, inventarlarga munosabatda bo'ling; kutubxonaning jamoat mulki



bo'lgan hujjatlarni joylashtirish, kataloglarda va ish yuritish xonalarida kartochkalarni joylashtirish tartibini saqlash; qimmatli va ma'lumotnoma hujjatlaridan faqat kutubxonada binosida foydalanish; hujjatlarni qabul qilishda nuqsonlar yo'qligiga ishonch hosil qiling va topilsa, bu haqda kutubxonada xodimiga xabar berish, taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan kamchiliklar uchun oxirgi foydalanuvchi javobgar ekanligi; har bir qabul qilingan hujjat uchun o'quvchi blankasiga imzo chekish; hujjatlarni belgilangan muddatlarda kutubxonaga qaytarish; kutubxonada hujjatlari yo'qolgan yoki shikastlangan taqdirda ularni ularga tenglashtirilganiga almashtirish yoki kutubxonaga joylashtirilgan kutubxonadan foydalanish qoidalarida belgilangan miqdorda zararni qoplash; ta'lim tashkilotida o'qish yoki ishlash muddati tugagandan so'ng kutubxonaga to'liq to'lash.

**Maktab kutubxonasi** - bu bolalarda yuksak axloqiy sifatlarni kamol toptiruvchi maskan hisoblanadi. Unda bolalar mustaqil tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik ko'radilar, kognitiv faollikni rivojlantiradilar, asosiy, muhim narsalarni ajratib ko'rsatishni o'rganadilar, umumlashtirish va taqqoslash qobiliyatini rivojlantiradilar, nutqni, e'tiborni, fikrlashni rivojlantiradilar, ishlarga qiziqishni shakllantiradilar va ijobiy xarakter xususiyatlarini rivojlantiradilar.

XXI-asr maktab kutubxonasining vazifasi shaxsning axborot va media madaniyatini shakllantirishdan iborat. Maktab kutubxonasi maktabning o'quv faoliyatida ishtirok etadi. Bu vazifani amalga oshirishda maktab kutubxonasi ham "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun zarur bo'ladigan jihozlar me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga ko'ra jihozlanishi kerak.

### **Maktab kutubxonasi jihozlari**

1	Kitoblar uchun stellaj (ikki	dona	10	10	6	4	4	3	3
---	------------------------------	------	----	----	---	---	---	---	---

	tomonlama)								
2	Kitoblar uchun stellaj (bir tomonlama)	dona	20	20	12	8	8	6	6
3	O'quvchi stoli va stuli (1 dona stol, 2 dona stul)	to'plam	10	10	8	6	2	2	2
4	urnal stoli	dona	1	1	1	1	1	1	1
5	Kafedra stoli (kitob tarqatish uchun)	dona	2	1	1	1	1	1	1
6	Katalog uchun javon	dona	1	1	1	1	1	1	1
7	Arimonyumshoq stul	dona	1	1	1	1	1	1	1

Maktab kutubxonasidagi ta'lim mexanizmi, eng avvalo, bolaning milliy axloq-odobini shakllantirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, hayotda o'z taqdirini o'zi belgilash, xalqiga, vataniga xizmat qiluvchi barkamol shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi maskan. Maktab kutubxonasi bugungi kunda muloqot markazi, uchrashuv joyidir. Maktab kutubxonasi ta'lim va pedagogik makon, shuningdek, bola, o'qituvchi va ota-ona uchun ijtimoiy-madaniy markazdir. Maktab kutubxonachisi zamonaviy ta'lim tashkiloti va provayderining etakchisidir.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Maktab moddiy-texnik ta'minoti deganda nimani tushunasiz, maktabning moddiy texnik ta'minoti nima uchun kerak deb hisoblaysiz?

2. Maktab sport maydonining asosiy vazifasi nimadan iborat?

3. Kutubxonaning millat tarbiyadagi ahamiyati nimadan iborat?

4. Maktab kutubxonasi, zamonaviy maktab kutubxonasiga ta'rif bering.

5. Kutubxonadan foydalanuvchi o'quvchilar qanday huquqlarga ega?

6. Kutubxona foydalanuvchilarining majburiyatlari nimalardan iborat?



## AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

### 1-mavzu: Jahon tarbiyaviy kontsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili

“Jahon tarbiyaviy kontsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili” mavzusida FSMU metodini o'tkazish.

“Hozirgi zamon pedagogika ilmida pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari”


Fikringizni BAYON ETING

Fikringizni ISBOTLOVCHI Sabab ko'rsating

Misol keltiring

Fikringizni Umumlashtiring

Milliy tarbiya asoslari faniga doir “Nima uchun?” metodini bajarish.



## **Mustaqil ta'lim: Milliy tarbiya asoslari faniga kirish**

“Milliy tarbiya” haqida aytilgan fikrlarni konspekt qilish

“Milliy tarbiya asoslari” mavzusida o'n minutlik esse yozish.

Esse –bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo'lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

O'n minutlik essenini yozish qoidalari:

1. Taklif etilgan mavzuga doir so'zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo'lishi mumkin.

2. “Pedagog deganda ko'z oldimga ... keladi”, “Mening fikrimga ko'ra pedagog ...bo'lishi kerak”, “Zamonaviy pedagog ... kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak” kabi jumalardan foydalaning.

3. O'zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo'lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuvingizdagi pedagog timsolini gavdalantiring.

## **Uyga vazifa: Milliy tarbiya asoslari faniga kirish**

### **Reja**

1. Milliy tarbiya xaqida tushuncha.
2. Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari.
3. Amaliy topshiriq: Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari haqida pedagog olimlarning fikrlarini toifalash jadvali orqali taqqoslash.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarova O', Raitboyev M., Nishonova S. *Pedagogika – T.: Talqin, 2008.*
2. Padlasiy I.P. *Pedagogika. V2-x kn.-M.: VLADOS, 2005.*
3. Azixxodjayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.*
4. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madiyarova, YE.I. Eshkulov. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009, 240 bet.*
5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011.- 425 b.*
6. *Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. Alex Moore. USA, 2012*



## **2-mavzu: Milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi**

### **Reja**


1. Milliy tarbiya uning tuzilishi.
2. Milliy tarbiya asoslari faniga munosabat.
3. Amaliy topshiriq: Milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi haqida pedagog olimlarning fikrlarini toifalash jadvali orqali taqqoslash.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarova O', Raitboyev M., Nishonova S. *Pedagogika – T.: Talqin, 2008.*
2. Padlasiy I.P. *Pedagogika. V2-x kn.-M.: VLADOS, 2005.*
3. Azizxodjayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.*
4. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madiyarova, YE.I. Eshkulov. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009, 240 bet.*
5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011.- 425 b.*
6. *Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. Alex Moore. USA, 2012*

### **Yozma "Davra suhbatlari"**

(Har kim yozadi va varaqni chap tomondagi qo'shnisiga uzatadi)



Og'zaki "Davra suhbat"  
(Har kim o'z fikrini aytadi va so'zni chap tomondagi qo'shnisiga beradi) Mavzu: Milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi

### **3-mavzu: O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari**

#### **Reja**

1. "O'quvchilarning milliy tarbiyalanganligi haqida tushuncha
2. O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.I. Ivanov, M.E. Zufarova Umumiy psixologiya darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T.: 2008. 165-185 bet.
2. N. Erkaboyeva, M. Usmonboyeva, M. Irgashova, N. Xujanazarova. Pedagogik mahorat; seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ishlanmalar. (O'quv metodik qo'llanma) – T.: 2012. 72-bet.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. - M.: Znanie, 1996.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. - T.: Fan, 2004.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

#### **"O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari" mavzusiga doir "Blits-so'rov" savollari**

- Milliy so'zining ma'nosi?  
Milliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?  
Milliy tarbiya ko'rgan o'quvchi sifatlarini sanang.  
Milliy tarbiya mezonlari nima?  
Milliy tarbiya mezonlari muhim tarkibiy asoslarini ayting.  
Milliy tarbiya mezonlari deganda nimani tushinasiz?  
O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik sifatlarini  
"Tushunchalar tahlili" metodi yordamida izohlang  
Mashg'ulotni o'tkazish tartibi  
Talabalarni guruhlarga ajratish



Talabalarni mashg'ulotni o'tkazish qoidalari bilan tanishtirish  
Guruh a'zolariga tarqatma materiallar tarqatiladi

Talabalar tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan  
tanishtiriladi

Talabalar berilgan tushunchalarga o'zlaridagi ma'lumotlardan  
kelib chiqib fikrlarni yozadilar

O'qituvchi tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan har bir  
tushunchani tahlil qiladi.

Talabalar belgilangan javoblarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini  
farqlaydilar.

O'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar va bilimlarini  
mustahkamlaydilar.

1-jadval

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Milliy tarbiya	
Milliy tarbiya mezonlari	
Milliy tarbiyaning tarkibiy qismlari	
Milliy tarbiyaning o'ziga xosliklari	
Milliy tarbiyaning shaxs tarbiyasidagi ko'rinishlari	

### **Mustaqil ta'lim topshirig'i: Milliy tarbiya mezonlari**

#### **Topshiriq:**

Milliy tarbiyaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

Tarbiyalangan shaxsning axloqiy jihatlari nimalarni o'z ichiga  
oladi?

3. "O'qituvchi odobi" kitobidagi o'qituvchi mahorati haqida  
aytilgan fikrlarni konspekt qilish.

Adabiyot: M.Ochilov. N.M.Ochilova "O'qituvchi odobi"  
Toshkent O'qituvchi 1997 yil.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.I. Ivanov, M.E. Zufarova Umumiy psixologiya darslik. O'zbekiston  
faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.- T.: 2008. 165-185 bet.

2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy  
kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: "Fan va

texnologiya” nashriyoti, 2013

3. Barisheva T.A., Jigalov Yu.A. *Psixologo-pedagogicheskie osnovi razvitiya kreativnosti – SPb.: SPGUTD, 2006.*

4. Bashina T.F., Ilin Ye.P. *Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.*

### **Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyani amalga oshirishdagi hamkorlik ishlari**

#### **Reja**

1. Milliy tarbiyalanganlik mezonlari.
2. Milliy tuyg’u, O’zbekiston vatanparvarligi, milliy mafkuraviy onglilik, vijdoniylik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy g’urur va milliy odob.

#### **Adabiyotlar ro’yxati:**

1. Asqarova O’, Raitboyev M., Nishonova S. *Pedagogika – T.: Talqin, 2008.*
2. Podlasiy I.P. *Pedagogika. V2-xkn.-M.: VLADOS, 2005.*
3. Azizxo’jaeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.*
4. N.T. Omonov, N.X. Xojayev, S.A. Madiyarova, E.I. Eshkulov. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009, 240 bet.*
5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011.- 425 b.*
6. M.G. Davletshin. *Zamonaviy maktab o’qituvchisining psixologiyasi. TDPU, 2000.*

### **“Maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyani amalga oshirishdagi hamkorligi” mavzusiga doir blits-so’rov savollari**

1. Hamkorlik nima? Pedagogik psixologik ta’rif bering.
2. Hamkorlik nima uchun zarur?
3. Tarbiya jarayonida hamkorlik qanday ahamiyatga ega?
3. Hamkorlikning ilk kurtagi nima?
4. Nima uchun hamkorlik o’qituvchining tarbiyaviy faoliyatida



muhim deb hisoblanadi?

5. Hamkorlik yo'nalishlarini sanang.

1-Topshiriq: Pedagogik qobiliyat va uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni yuzasidan FSMU metodi o'tkazish. Metodning maqsadi: mazkur metod talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni amalga oshirish tartibi: o'qituvchi talabalarga mavzuga oid bo'lgan goya yoki fikrni taklif etadi, o'ylash uchun uch daqiqa vaqt beradi. Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatadi. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar umumlashtiriladi.

**“O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari?”  
mavzusida FSMU metodini o'tkazish**

“O'qituvchi faoliyatida qobiliyat nima uchun kerak?”

Fikringizni BAYON ETING

Fikringizni ISBOTLOVCHI Sabab ko'rsating

Misol keltiring

Fikringizni Umumlashtiring

2-topshiriq: O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini guruhlashtiring.



### Milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari

Shaxsiy

Jamoaviy



Uyga vazifa: "O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari" mavzusida esse yozing.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarova O', Raitboyev M., Nishonova S. *Pedagogika – T.: Talqin, 2008.*
2. Padlasiy I.P. *Pedagogika. V2-x kn.-M.: VLADOS, 2005.*
3. Azizxodjayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.*
4. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madiyarova, YE.I. Eshkulov. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009, 240 bet.*
5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011.- 425 b.*
6. *Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. Alex Moore. USA, 2012.*

### **O'zbek milliy qadriyatlari**

#### **Reja**

1. O'zbek oilalarida tarbiyaviy an'analar.
2. Ota-ona obro'si milliy tarbiyaning asosi sifatida.
3. Milliy qadriyatlarni shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarova O', Raitboyev M., Nishonova S. *Pedagogika – T.: Talqin, 2008.*
2. Padlasiy I.P. *Pedagogika. V2-x kn.-M.: VLADOS, 2005.*
3. Azizxodjayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.*



4. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madiyarova, YE.I. Eshkulov. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009, 240 bet.*

5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011.- 425 b.*

6. *Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. Alex Moore. USA, 2012.*

FSMU texnologiyasi	O'zbek milliy qadriyatlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Topshiriq. Talabalar 3-guruhga ajratilgan holda Keys topshirigini bajaradilar.

Keys topshirig'i. 1-masala. Guruhga yangi guruh rahbari tayinlandi. Yangi guruh rahbari xonaga kirishi bilan hammani o'ziga qaratib shunday dedi:

“Bundan keyin bu yerda mening aytganim –aytgan, deganim degan bo'ladi. Kim menga quloq solmasa itning kunini boshiga solaman” –deb o'zining qator talablarini ayta ketdi va hech kim bilan maslahatlashmasdan guruh liderini tayinladi.

O'qituvchi guruhda kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qildi. Guruhda yangi norasmiy tuzilmalar tashkil topib, ma'suliyatsiz, davomati past o'quvchilar soni ikki barobar oshdi.

Yangi sinf rahbari qanday xatoga yo'l qo'ydi? Pedagog yangi guruhi bilan muloqatni qanday tashkil etishi kerak edi? Qanday yo'l bilan jamoani muvaffaqiyatli boshqarishga erishish mumkin?

**Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi**

<i>Muammo(asosiy va kichik muammolar)</i>	<i>Yechim</i>	<i>Natija</i>

Keys topshirig'i. 2-masala . Adabiyot darsi boshlandi.Hamma o'quvchilar darsga kerakli kitob, daftar, ruchkalarini birin-ketin ola boshladi. O'qituvchi taxtaga ko'rgazmali qurollarni ilayotgan edi. Birdan birinchi partada o'tirgan Dilnoza chinqirib yubordi:" Sumkamdagi pulni o'girlashibdi. Oyim maktabdan qaytayotganda xarid qilishim kerak bo'lgan narsalar ro'yxatini yozib bergan va shunga yarasha pul bergan edilar". Sinfda g'ala-g'ovur boshlanib ketdi. O'qituvchi darrov jimlikni saqlab: "Tur o'rningdan Bekzod olgan narsangni qaytarib ber. Sinfda sendan boshqa hech kim bu ishni qilmaydi. Chunki o'grining bolasi o'gri bo'ladi"-deb baqira ketdi. Bekzod hayratlangancha so'z topolmay angrayib turdi-da pulni men olmaganman deya sinfdan yig'lab chiqib ketdi.

O'qituvchi qanday xatoga yo'l qo'ydi? Aslida o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak edi?

<i>Muammo(asosiy va kichik muammolar)</i>	<i>Yechim</i>	<i>Natija</i>

***Adabiyotlar ro'yxati:***

1. Asqarova O'. *Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. O'quv-uslubiy qo'llanma.* – T.: "Istiqlol", 2008. 38-39-40-60 betlar.

2. R.I. Ivanov, M.E. Zufarova *Umumiy psixologiya darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.*– T.: 2008. 165-185 bet.

3. N. Erkaboyeva, M. Usmonboyeva, M. Irgashova, N. Xujanazarova. *Pedagogik mahorat; seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ishlanmalar. (O'quv metodik qo'llanma)* – T.: 2012. 72-bet.



## **8-mavzu: Bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaning pedagogik-psixologik asoslari bilan qurollantirish**

O'qituvchi ilmiy mehnat jarayonida pedagogik mahoratning qanday komponentlarini o'zlashtirishi zarur?

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi nimalarga bog'liq?

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish uchun nimlarni o'zlashtirib borishi zarur?

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda avvalo nimalardan unumli foydalanishi zarur?

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etishda qanday yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur?

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish vositalari?

O'qituvchi mehnatida iqtidor va qobiliyatning o'rni nimalardan iborat?

I.P. Radchenko, R. Rasulova kabi olimlar tavsiyasiga ko'ra o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishdagi eng muhim talablar?

O'qituvchi mehnati qanday tamoyillar asosida takomillashib boradi?

O'qituvchi mehnatini nazorat qilish va hisobga olish qanday tashkil etiladi?

Pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan pedagogik qadriyatlarga o'z munosabatingizni bildiring.



**Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish  
yo'nalishlarini aniqlashga doir toifalash jadvali**

O'qituvchi kasbiga oid faoliyat	O'z kasbiy mahorat elementini hosil qilish	O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish

**Shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siriga doir  
Assisment metodi**

Test. Hozirgi zamon ilmiy nazariy va metodologik tizimlariga tayangan holda ta'kidlash joizki, o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlaridan biri o'qituvchining.... A.Obyektiv- shaxsiy xususiyatlari. V.Kasbiy xususiyalari. S.Shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.	O'qituvchining kasbiy mahoratini aniqlashga doir muammoli vaziyat. Sinf o'quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.
Simptom O'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi, uning sifat va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar: O'qituvchining pedagogik texnikasi:	Amaliy ko'nikma O'qituvchi kasbiy mahoratini asosini tashkil etuvchi komponentlar:...

**Quyidagi fikrlar bilan tanishing va nuqtalar o'rniga mos  
jumlalarini qo'ying.**

..... jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va



*natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.*

*..... jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – «MEN» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.*

*..... jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi. Bu o'qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog'liq.*

*..... jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.*

*..... o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z – o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.*

### **(o'qituvchi javobi)**

O'z–o'zini bilish jarayoni o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O'z – o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – «MEN» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

O'z – o'zini aniqlashtirish jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi. Bu o'qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

O'z – o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiylangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

O'z – o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z – o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

### **Mustaqil ta'lim: O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish**

Topshiriq: O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishda qanday tamoyillar ilgari surilgan?

(O'qituvchi javobi)

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

optimallashtirish – o'quvchilarning o'quv-tarbiya ishlari uchun ijobiy shart-sharoitlarni yaratish;

insonparvarlik tamoyili – pedagog va o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisalarni bartaraf etish;

estetizatsiyalash tamoyili – ishchanlik qobiliyatini oshiruvchi badiiy unsurlarni kiritish;

tejamkorlik – o'quv mashg'ulotlarini oqilona tashkil etish;

individuallashtirish tamoyili – o'quvchilarga tabaqalashtirilgan tarzda yondashuv;

jamoaviylik tamoyili – alohida xodim va pedagogik jamo mehnatini uyg'unlashtirish;

nazariy va amaliy ta'limni optimal uyg'unlashtirish tamoyili –



qisqa muddatda o'quvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishlarini ta'minlash;

kadrlarni oqilona tanlash, ularning malakasini tizimli tarzda oshirib borish tamoyili;

pedagogik fanlar rivojini hisobga olgan holda o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tizimli yo'lga qo'yish.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarova O'. *Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. O'quv-uslubiy qo'llanma.* – T.: "Istiqlol", 2008. 38-39-40-60 betlar.

2. R.I. Ivanov, M.E. Zufarova *Umumiy psixologiya darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.*– T.: 2008. 165-185 bet.

3. N. Erkaboyeva, M. Usmonboyeva, M. Irgashova, N. Xujanazarova. *Pedagogik mahorat; seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun ishlanmalar. (O'quv metodik qo'llanma)* – T.: 2012. 72-bet.

4. D.A. Abduraximova, R.A. Mavlanova. *Pedagogik mahorat. (O'quv qo'llanma).* – T.: 2013. 159-165 bet

1-Topshiriq: Notiqlik texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, tembr, ritmikani aniqlashda muqobilini tanlash testi.

Tovushning hajmi,uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi	Ritmika
Tovush bo'yog'i, yorqinligini namoyon qilib, nutqning chiroyli, mayin, jozibali, o'ziga xosligini ta'minlaydi	Diapazon
So'z, bo'gin, tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqligi	To'g'ri nafas olish
Ayrim bo'g'inlarni gapirishdagi to'liq davomiylik, nutqning tashkil qilish jarayoni	Tembr
Nutq texnikasi bo'yicha ishlab chiqilgan mashqlar turkumiga kirib, o'qituvchi ravon nutqining muntazam shakllanishini ta'minlaydi	Diktsiya

2-topshiriq. "Nutqning to'g'riligi va ravonligi" bo'yicha "Aqliy hujum" metodini o'tkazish.



Nutqning to'g'riligi va ravonligi	Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi	Nutning mantiqiyliigi	Nutqning tozaligi va ifodaliligi	O'qituvchi madaniyati

### **9-mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani amalga oshirish**

Maktabgacha ta'lim muassasalarida davlat talabalari asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglari va ta'lim muassasasi psixolog vrachlari tomonidan ijtimoiy-gigienik jihatlariga bag'ishlangan ishlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya davrida bir qator muhim parametrlarni, ya'ni kasallanish, yurish-turish, ruhiy rivojlanishidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish kerak.

Birinchi bosqich patronaji xaritasi: ota-onasi haqida ma'lumotlar: otasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi); onasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi); onasida homilaning kechishi va nechanchi bola ekanligi. Tug'ilishi. Maishiy sharoitlari: istiqomat kiluvchilar soni; yashash joyiga baho berish (qulayliklari); yuvinish moslamalari; yashash joyi havosining tozaligi; bola bilan birga yashayotgan bolalar qaysi muassasalarga katnashi.

Bola haqida ma'lumotlar: yoshi; sog'ligi; bolaga kim g'amxo'rlik qiladi? Bolaning kun tartibi qanaqa? U alohida xona, karavotga egami? Bedorlik vaqti: bola bedorlik vaqtini qanday o'tkazadi? Uyg'oqlik davrining uzunligi; sevimli o'yinchoklari; kiyinish-echinish, yuvinish jarayonlariga munosabati; kattalarning bolaga munosabatlari; bolaning kattalarga munosabati; bola bilan tez-tez



sayr qilishadimi? Ovqatlanish: ovqatlanish tartibiga amal kilinadimi? Bola nima yeydi? Nima yordamida ovqatlantiriladi; bolaning ishtaxasi, faolligi. Uyqu: bolani uxlatishda o'zini tutishi; uyqudagi kiyimi; bola qanday uxlab koladi (tez, tinch)? kuniga necha marta, qancha uxlaydi? Uyqu xarakteri va uzunligi; qanday uyg'onadi (tinch, yig'i bilan)? Bola kunduzi qaerda uxlaydi (karavot, xona, ko'cha)? Tunda kanday uxlaydi? Bolani uxlatish uchun unga so'rg'ich beriladimi? va.h.k.

Tayyorlov bosqichi o'z ichiga ijtimoiy pedagog tomonidan muayyan vaziyat asosida qabul qilinadigan bir qancha chora-tadbirlarni qamrab olishi kerak.

Og'ir adaptatsiya sabablarini aniqlash: tuman pediatri, tibbiy xodimlar, psixolog, ta'lim muassasasi tarbiyachilari bilan aloqa va hamkorlik o'rnatish; bolalarning MTM, bolalar bog'chalariga kirishlaridan avval sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini nazorat qilish; bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam rejasini tuzish; bolaning ta'lim muassasalarida yengil adaptatsiyasi uchun oilalar bilan aloqalar o'rnatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiyasi uchun ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik, tibbiy chora-tadbirlarni aniqlash.

Amaliy bosqich quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: oila va ta'lim muassasasida bolaga bir xil yondashuvni shakllantirish; oila bilan aloqalar - bolaning MTMga qatnay boshlaganida 3-4 kun mobaynida onasining ishtirok etishi; axborot bazasining kengayib borishini e'tiborga olish; bolalarning ruhiy-emotsional holatini qo'llab-quvvatlash.

Bolaning rivojlanish va dastlabki bilim olishi to'g'risida har bir oila va jamiyat bilishi zarur bo'lgan muhim tavsiyalar: hayotning dastlabki 8 yili, ayniqsa dastlabki 3 yili mobaynida bola oladigan g'amho'rlik va diqqat-e'tibor nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Go'daklar hayotlarining dastlabki lahzalaridan boshlab, o'rganishni boshlaydilar. Ular mehr-muhabbat, alohida diqqat-e'tibor va bunga qo'shimcha ravishda to'yimli ovqatlanib, to'g'ri parvarish qilinsalar, tez o'sib ulg'ayadilar va bilimlarni tez o'zlashtiradilar.

Murabbiylar bolalar tomosha qilishlari, eshitishlari, ushlab ko'rishlari va o'ynashlari uchun ularga yangi va qiziqarli narsalar berib, o'sib-ulg'ayishlari va o'rganishlarida yordam berishlari kerak. Go'daklar va yosh bolarni uzoq vaqt qarovsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu ularning jismoniy va aqliy o'sib-ulg'ayishini sekinlashtiradi. Qiz va o'g'il bolalar oziq-ovqat, diqqat-e'tibor, g'amxo'rlikka teng miqdorda muhtoj bo'ladilar. Bolalar biror narsa qilishni o'rganayotgan va yangi so'zlarni aytayotganlarida ularning hammasini rag'batlantirish va maqtash zarur. Bolaning jismoniy va aqliy o'sib-ulg'ayishi qoniqarsiz bo'lsa, ota-onalar shifokorga maslahat so'rab murojaat qilishlari zarur. Bolaning dastlab o'z ona tilini o'rgatib, ularning mushohada yuritish va fikr-mulohazalarni ifoda etish qobiliyatlarining kamol topishiga yordam berish mumkin. Bolalar tilni qo'shiqlar, oilaviy voqea-hodisalar, she'rlar va turli o'yinlar vositasida tez va oson o'rgandilar. Barcha bolalar rivojlanganlik darajasiga muvofik turli o'yinchoqlar o'ynashlari kerak. Do'kondan sotib olgan o'yinchoqlar bilan bir qatorda suv, qum, karton qutilar, to'rtburchak shakldagi yog'och bo'laklari, o'yinchok idishlar va qopqoqlar ham yaxshi vosita bo'lib xizmat kiladi. Maktabgacha yoshdagi bola 6 yoshga yetganda: ko'pcatilgan yo'ldan yupa olishi; ma'noli gaplashish va ko'plab typli co'zlapni qo'llashi; qapama-qapshiliklapni tushunishi (macalan, cemiz va opiq, uzun va kalta); boshqa bolalap bilan o'ynashi; doimiy e'pdamciz kiyina olishi; cavollapga javob bepa olishi; 5 tadan 10 tagacha napcalapni canay olishi; qo'lini yuva olish kabilarni bajara olishi kerak.

Bu davrda ota-onalar va mypabbiylapga bolaning gap-co'zlapiga tinglashlari, bola bilan bilan tez-tez muloqot qilishlari, agap bola duduqlansa, ynga shoshilmacdan dona-dona kilib gapirishga undashlari, hikoyalap o'qib bepishlari, ularni typli o'yinlapga va yangi napralarni o'zlashtipishga rag'batlantirishlari zarur. Bolalar dastlabki ijtimoiy myomala ko'nikmalarini tevapak-atpofdagilapni kuzatib, ularga taqlid asosida hosil qiladilar hamda qanday xulq-atvorlar maqbul, qaysilari nomaqbul ekanini bilib oladilar.



## **10-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim maktabida milliy tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari**

### **Reja**

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida milliy tarbiyani amalga oshirish mohiyati va mazmuni.

Jamiyatdagi takomillashish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligining ortishi dolzarb masala. Chunki yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish har bir ziyoli insonning burchidir. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatlarni o'zida qamrab oladi. Jamiyatda yashovchi yoshlar ana shu sohalarning barchasida ijtimoiy faollik ko'rsatishi hayotiy zaruriyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda".

Faollik, ijtimoiy va ilmiy bilim, huquqiy me'yorlar va majburiyatning mujassamlashuvi natijasi shaxsda ifodalanadi. Bu tarkiblarning sifati, ya'ni bilimlarni qay darajada o'zlashtirilganligi, ularning odatga aylantirilganligi faollikning namoyon etish darajasini belgilaydi. Ijtimoiy hamda siyosiy psixologik nuqtai nazardan faollik: - yorqin ifodalangan faollik; - shunchaki ifodalangan faollik; - ifodalanmagan faollik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin<sup>71</sup>.

Faollikni ifoda etishni nazariy jihatdan quyidagilarga ajratish mumkin: reproduktiv o'xshatuvchi-faollik (shaxsiy tajriba yetarli emasligi natijasida, tajriba orttiruvchi vosita sifatida ifodalanadi); izlanuvchi-ta'minlovchi faollik (amaliyotda yuqori faollik va erkinlik kuzatiladi); ijodiy faollik (bilish faolligining oliy


---

<sup>71</sup>P.Самаров. Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар. Конференция материаллари. 91.6

darajasi)72.

“Ijtimoiy faollik” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u talaba yoshlarning ta‘lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san‘at, siyosat, huquq kabi sohalarda ham faol bo‘lishini anglatadi. Demak, “ijtimoiy faollik” o‘zining tub mohiyatiga ko‘ra, kishilar jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy, sotsial va boshqa sohalardagi faolligini ifodalaydi. Bozor munosabatlari va yangicha dunyoqarash shaxsning ijtimoiy faolligi strukturasi ma‘naviy-intellektual, ijtimoiy-siyosiy faollik yetakchi va hal qiluvchi element ekanligini ko‘rsatdi.

**Topshiriq: “Baliq skeleti ” texnikasi asosida berilgan topshiriqni bagaring.**




### 11-12- Mavzu: Boshlang'ich ta'lim “Tarbiya” darsliklarining tahlili

#### Reja


1. Boshlang'ich ta'lim “Tarbiya” darsliklarining tahlili va mazmuni(4 soat).

Klaster metodi






**1 - o'quv topshiriq:** O'quvchilarni tarbiyalashga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar. Ushbu topshiriq debat usulida amalga oshiriladi.



**2 - o'quv topshiriq:** Pedagogik tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatish usullari. Ushbu topshiriq bahs -munozara shaklida amalga oshiriladi.



### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarova O', Raitboyev M., Nishonova S. *Pedagogika* – T.: Talqin, 2008.
2. Padlasiy I.P., *Pedagogika. V2-xkn.-M.: VLADOS, 2005.*
3. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
4. N.T. Omonov, N.X. Xojaev, S.A. Madiyarova, YE.I. Eshkulov. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009, 240 bet.*
5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat. Darslik.* – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011.- 312b.



## Umumiy o'rta ta'lim 5-11-sinf "Tarbiya" darsliklarining tahlili

### Reja


1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni milliy tarbiyalashning shakl va yo'llari.

FSMU jadvali

O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi bo'yicha FSMU jadvalini to'ldiring

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

"Kaskad" texnikasi asosida topshiriqni bagaring.



**14-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim 8-9-sinf "Tarbiya"  
darsliklarining tahlili**

**Reja**

1. Umumiy o'rta ta'lim 8-9-sinf "Tarbiya" darsliklarining tahlili va mazmuni.

FSMU texnologiyasi

*Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochi? xolda baxslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.*

*F – fikringizni bayon eting*

*S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating*

*M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring*

*U – fikringizni umumlashtiring*

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Ta'lim jarayonida jahon tarbiyaviy konsepsiyalari tendensiyalarini o'rni beqiyos.	
(F) Fikringizni bayon eting		
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating		
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring		
(U) Fikringizni umumlashtiring		



3-topshiriq.

2. “Umumiy o’rta ta’lim 8-9-sinf “Tarbiya” darsliklarining tahlili” bo’yicha sxema tuzing.

4-topshiriq.

Insert usuli

Samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib o’rganishga yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib «V; +; -; ?» belgilar orqali o’z fikrini ifodalaydi.

(V)- Men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)- Yangi ma’lumot

(-)- Men bilgan narsaga zid.

(?)- Meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?

**15-Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim 10-11-sinf "Tarbiya"  
darsliklarining tahlili**

**Reja**

1. Umumiy o'rta ta'lim 10-11-sinf "Tarbiya" darsliklarining tahlili va mazmuni.

**«3 X 4» METODI**

Metodning tasnifi: Ushbu mashg'ulot talabalarning aniq bir muammoni yakka xolda fikrlab hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan keragini aniqlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi.

«3 X 4» Metodining maqsadi: Talabalarning mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab, ulardan nazari va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikrini o'tkazishga uni ma'qullashga, qo'silgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallangan bilimlarni qo'llay olishga o'rgatish.

«3 X 4» Metodining o'tkazish tartibi:

Talabalarning umumiy soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruxlarga ajratadi;

O'qituvchi mashg'ulotning maqsadi va o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi va har xil kichik guruhga qog'ozning yuqori qismiga «Pedagogik texnologiya - bu» tushunchasi yozilgan varaqlarni tarqatadi;

O'qituvchi guruhlarni tarqatmalarga yozilgan tushunchaga nisbatan munosabatni faqat 3 ta so'z bilan ifodalashni aytadi va buning uchun aniq vaqt belgilaydi;

Ushbu vazifa soat millari bo'yicha aylantiriladi va har gal yangi tushunchalar yozib boriladi;

Guruh a'zolari tarqatmadagi tushunchalar bilan tanishib yaxlit bir ta'rif keltirib chiqaradilar.

Har bir guruhning ta'riflarini guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi;



O'qituvchi pedagogik texnologiyalarga berilgan ta'rifni izoxlab, tahlil qilib ularni baholaydi.

B/B/B chizmasi

B/B/B chizmasi – Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivoj-lantiradi.

O'quvchilar:

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.

Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar.

MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

B/BX/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

## “SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• тўсиқлар

### Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan mahruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash



maqsadida foydalanish mumkin.

**METODNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**



Trener—o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



Trening maqsadi, har bir guruhga umumiy tahlil qilinishi zarur bo'lgan umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlar tushurilgan tarqatma materiallar tarqatiladi



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib , o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi.



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng , trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi., mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Tarbiyachiga qo'yilgan zamonaviy talablar					
Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi munosabati		Tarbiyachi va ota-onalar bilan munosabat		Tarbiyachi va axborot texnologiya vositalar bilan ishlash	
afzalligi	Kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

## “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot tahminoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys , yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalga qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish



Keys. Mashg'ulot jarayonida siz o'tayotgan mavzuni juda yaxshi biladigan bola bor, shu sabab, u mashg'ulot davomida Sizga va bolalarga xalaqit bera boshladi: savollari, fikrlarga qo'shilishi bilan barchani diqqatini bo'lib chalg'ita boshladi  
Sizning harakatingiz....

**Кейси бажариш босқичлари ва топшириқлар:**

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Мобил иловани ишга тушириш учун бажариладагина ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

**“FSMU” metodi**

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan mahruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F	fikringizni bayon eting
S	<ul style="list-style-type: none"><li>• fikringizni bayoniga sabab ko'rsating</li></ul>
M	<ul style="list-style-type: none"><li>• ko'rsatilgan sabablaringizni izohlab o'ting</li></ul>
U	<ul style="list-style-type: none"><li>• fikringizni umumlashtiring</li></ul>

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: "Maktabgacha pedagogika"

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

"Assesment" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tahlil oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tahlil oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment"lardan mahruza mashg'ulotlarida tinglovchi yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagogning ijodiy



yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);

tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday mahno anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma mahlumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”**

<i>Tushunchalar</i>	<i>Sizningcha bu tushuncha qanday mahnoni anglatadi?</i>	<i>Qo'shimcha mahlumot</i>
<i>Pedagog</i>	<i>Pedagog-tarbiyachi. Yosh avlodga tahlim-tarbiya beruvchi shaxs. Tahlim-tarbiya jarayonini o'rganuvchi va bu jarayonni boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi shaxs.</i>	
<i>Jamoa</i>	<i>Yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh mahnolarini anglatadi.</i>	
<i>Tarbiya</i>	<i>Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.</i>	

<i>Shaxs</i>	<i>Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat ahzosi.</i>	
<i>Insonparvarlik</i>	<i>Insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxurlik qilishni ifodalovchi tushuncha.</i>	
<i>Pedagogik texnika</i>	<i>O'qitish, tahsir ko'rsatish, tahlim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi.</i>	
<i>Rivojlanish</i>	<i>SHaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.</i>	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

### **“Blits-o'yin” metodi**

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, yahni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. SHundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch



kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga tahsir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonitirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. SHundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**Sharq allomalarining milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlariga doir "Assisment" metodi**

<p>Test.</p> <p>1. "Avesto" da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari qanday tartibda tavsiya etilgan:</p> <p>A) Diniy va axloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish.</p> <p>V) Aqliy va axloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish.</p> <p>S) Diniy va axloqiy tarbiya; estetik tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish.</p> <p>2. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim- tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:</p> <p>A) Ta'lim-tarbiya haqida; hunar va turli kasb egalari haqida; turmush va xulq-odob qoidalari haqida; jismoniy yetuklik haqida.</p> <p>V) Kaykovus bilim haqida; hunar va turli kasb egalari haqida; turmush va xulq-odob qoidalari haqida; jismoniy yetuklik haqida.</p> <p>S) Kaykovus bilim haqida; hunar va turli kasb egalari haqida; turmush va xulq-odob qoidalari haqida; aqliy yetuklik haqida.</p>	<p>Muammoli vaziyat.</p> <p>Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) "Futuvvatnomai Sultoniyyoxud javonmardlik tariqati" asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatib o'tadi. Bular qanday odob sanalgan?</p>
<p>Simptom</p> <p>Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa - ..., ..., ... muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi</p>	<p>Amaliy ko'nikma</p> <p>Az Zamaxshariy deydi: ".....". Bu dono fikrga yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir.</p>



## Milliy tarbiya asoslari bo'yicha muqobilini tanlash testi

Djon Lokk	o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi
I.G. Pestalotsyi	o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan
A. Disterverg	o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan
V.A. Slastyonin	ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir qonun yoki programma, ta'lim-tarbiya to'grisidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi
A.S. Makarenko	aqli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziq tirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql — aql bilan tarbiyalanadi, vijdon — vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik — bevosita vatan uchun xizmat qilish
V.A. Suxomlinskiy	o'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi
K.D. Ushinskiy	Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolaparni tarbiyalasin



**Milliy tarbiya g'oyasining tarixiy pedagogik asoslarining tarkibiy qismlari haqida pedagog olimlarning fikrlariga oid toifalash jadvali**


Milliy tarbiya asoslari

Pedagog shaxsining insonparvar

Kasbiy bilimlar

Pedagogik qobiliyat

Pedagogik madaniyat va texnika

--

--

--

--



## **16-mavzu: Milliy tarbiyaning mazmuni va uni takomillashtirish**

Milliy tarbiyaning mazmunining asosi sifatlarini “Tushunchalar tahlili” metodi yordamida izohlang

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi

Talabalarni guruhlariga ajratish

Talabalarni mashg’ulotni o’tkazish qoidallari bilan tanishtiriladi

Guruh a’zolariga tarqatma materiallar tarqatiladi

Talabalar tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishtiriladi

Talabalar berilgan tushunchalarga o’zlaridagi ma’lumotlardan kelib chiqib fikrlarni yozadilar

O’qituvchi tushunchalarni o’qiydi va jamoa bilan har bir tushunchani taxlil qiladi.


Talabalar belgilangan javoblarni to’g’ri yoki noto’g’ri ekanligini farqlaydilar.

O’z-o’zlarini tekshiradilar, baholaydilar va bilimlarini mustaxkamlaydilar.

1-jadval

TUSHUNCHALAR TAHLILI			
Mavzuga oid tushunchalar	Mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o’rni	Qo’shimcha fikrlar

O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari  
O'quvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlariga doir  
Venn diagrammasini to'ldirish.



### **O'zbek oilasidagi milliy tarbiya mazmuni**

#### **1-topshiriq. "T – SXEMA" METODI**

Metodning maqsadi: Mazkur metod biror tushuncha, yoki mavzu bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bunda ta'lim oluvchi shaxsidagi: Mustaqil va ijodiy fikrlash; Axborotlar tizimini tahlil etish; O'z pozitsiyasida qat'iy turish; O'z-o'zini nazorat qilish va baholash; Muloqotchanlik va o'zgalar fikriga hurmat; Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: 6. O'qituvchi talabalarni miqdor jihatdan teng guruhlariga ajratadi;

7. O'quvchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi; 8. Tarqatmalar (ilovadagi) talabalar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi; 9. Bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy yo'nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi; 10. Belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga yetgach, barcha guruhlarining fasilitatorlari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi; 11. Barcha guruhlarining yakuniy xulosalari o'qib eshittirilganidan so'ng, trener-o'qituvchi guruhlar ishini baholaydi



va qo'shimcha to'ldirishlarni kiritadi.

Kutiladigan natija: O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, mavzuning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

Tarbiya – ijtimoiylashtirish omili sifatida

YUTUQLAR	TO'SIQLAR

### **Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash**

#### ***Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish yo'nalishlarini aniqlashga doir toifalash jadvali***

O'qituvchi kasbiga oid faoliyat	O'z kasbiy mahorat elementini hosil qilish	O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish



## **Shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siriga doir Assisment metodi**

<p>Test. Hozirgi zamon ilmiy nazariy va metodologik tizimlariga tayangan holda ta'kidlash joizki, o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlaridan biri o'qituvchining.... A.Obyektiv- shaxsiy xususiyatlari. V.Kasbiy xususiyalari. S.Shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.</p>	<p>O'qituvchining kasbiy mahoratini aniqlashga doir muammoli vaziyat. Sinf o'quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.</p>
<p>Simptom O'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi, uning sifat va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar: O'qituvchining pedagogik texnikasi:</p>	<p>Amaliy ko'nikma O'qituvchi kasbiy mahoratini asosini tashkil etuvchi komponentlar:...</p>



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'PQ-637 son qonuni. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni 2016 yil 14 sentyabr, O'RQ-406-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 noyabrdagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
5. Mirziyoyev Sh.M. Islom tsivilizatsiyasi markazi uchinchi renessans poydevoridan biri bo'lishiga umid qilamiz. 2021yil 29 yanvardagi nutqi // Xalq so'zi. – T., 2021. – 30 sentyabr.
6. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrik nutqi.
7. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manozil. – T.: 1966
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
9. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. / Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullaev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I. Abdullaev va O. Fayzullaev. –T.: Fan, 1968.
10. Ahmad Yugnakiy. Hibatu-l-haqoyiq. Tuzuvchi : Qosimjon Sodiqov. T.: Akadernashr: 2019, 168 b
11. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-qulub. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. -- Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
12. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 94 b.
13. Voxidova N.X Milliy g'urur tarbiyasi. Monografiya. –T.: 9 b.t. Istiqlol, 2010
14. Baybayeva M., Voxidova N.X. Saidova B. Tarbiyaviy ishlarni boshqarish– T.: TDPU, 2023
15. Egamberdieva N.M. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi.O'quv qo'llanma. Fan va texnologiya. T.: -2012y. 364 b.
16. Jamoldinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri ... diss. – T., 2015. – 339 b.
17. Karimova V.M. Tolerantlikning oilaviy an'ana, urf-odat va udumlar, maishiy o'zaro munosabatlarda aks etishi // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – T., 2007.
18. Kaykovus, Unsurul – Maoliy. Qobusnoma. – T.: O'qituvchi, 1986. – 164 b

19. Mahkamov U.I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... diss. – T., 1998. – 287 b.
20. Mavlonova R.A., Voxidova N.X., Rahmankulova N.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
21. Voxidova N.X., Mirzaeva F. Ijtimoiy pedagogika. –T.: TDPU, 2022
22. Musaeva N.M. Insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarining roli: Fals. fanl. nomz. ... dis. Avtoref. – T., 2001. – 27 b.
23. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. (Aksiologiya) Toshkent Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti – 2004
24. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. T.: O'qituvchi, 2001. – 364- b.
25. Ochilova N.M. Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish: Ped. fanl. nomz. ... Avtoref. – T.: O'zPFITI, 2007. – 22 b.
26. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Ped. fanl. d-ri ... dis. – Toshkent, 2000. – 298 b.
27. Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. Toshkent "Ma'naviyat" 2007y
28. Quronov M. Vatanning mafkuraviy himoyasi mustahkam bo'ladi.// Ma'rifat, 2017 yil 23 avgust. №67(9028).
29. Quronov M. Bizni birlashtirgan g'oya / M.Quronov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 348 b.
30. Qushvaqtov N.X. Talabalarni milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped. fan. nomz. ... avtoref. – Toshkent, 2006. – 22 b
31. Sadullaev B.B. O'yinlar vositasida o'quvchi larda do'stona munosabatlarga asoslangan ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: Ped. fanl. fals. d-ri (PhD) ... Avtoref. – Samarqand, 2019.
32. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: Fan dasturi / Tuzuvchi: N.X.Voxidova. – T., 2018. – 12 b.
33. Toshmatova J.S. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar asosida talaba-yoshlar shaxsini kamolotga yetkazish. – T., 2020.
34. Xoliqov A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish: Ped. fanl. d-ri ... Diss. – T., 2018. – 226 b.



**N.X. VOXIDOVA, F.O. MIRZAYEVA, B.N. SAIDOVA**

**MILLIY TARBIYA ASOSLARI**

*Pedagogika ta'limi sohasi bakalvriyat ta'lim yo'nalishilari uchun  
darslik*

**Toshkent - "METHODIST NASHRIYOTI" - 2024**

Muharrir: Bakirov N.

Bosishga 29.12.2023. da ruxsat etildi.  
Bichimi 60x90. "Cambria" garniturasini.  
Shartli bosma tabog'i 9. Nashr bosma tabog'i 8.87.  
Adadi 100 nusxa.

"METHODIST NASHRIYOTI" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy ko'chasi, 5-uy.



**+99893 552-11-21**

***Nashriyot roziligisiz chop etish ta'qiqlanadi.***

